

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

KOCHKAROVA NODIRA ELDAROVNA

**TURK TILIDA TABU VA EVFEMIZIMLARNING
QO'LLANISH XUSUSIYATLARI**

5A 120102-Lingvistika (Turk tili)

**Magistr akademik darajasini olishi uchun yozilgan
dissertatsiya**

ANNOTATSIYA

**Mazkur ish kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhatidan iborat.
Tadqiqotda turk tilidagi tabu, evfemizmlarning funksional uslub matnlarida
lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan.**

Ilmiy rahbar: Dots: Rixsiyeva.G

Toshkent 2014

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ularning tilga ta'siri turli shakllarda namoyon bo'layotgan hozirgi kunda tilshunoslik fani oldiga ham yangi vazifalarni qo'yimoqda. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida ta'kidlaganidek, "o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi."¹ Til milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar oynasi hisoblanadi. Har bir millatning tili avvalo uning o'tmishidan, madaniyatidan dalolat beradi. Chet tilini o'rganar ekanmiz, til bilan birga xalq turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi, madaniyatini ham o'rganishimiz zarur. Zero, hozirgi kunda tilga ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillar tilni yanada chuqurroq, kengroq tadqiq qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikdagi tadqiqotlar "lison-nutq" tamoyili asosida olib borilmoqda. Boshqacha aytganda, nazariy tilshunoslik aniqlagan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga jiddiy kirishilmoqda. Buni tilning amaliy voqelanishi, undan samarali foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi zamonaviy fan yo'nalishlari bo'lgan sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi kabi ijtimoiy va iqtisodiy samarador qator yo'nalishlar jadal rivojlanayotganligi ham ko'satmoqda.

Har bir tilning taraqqiyot darajasi, avvalo, uslubiyatining qay darajada ishlanganligi bilan baholanadi. Chunki tilning mohiyati uslubda, ya'ni nutqiy faoliyat shakllarida namoyon bo'ladi. Anglashiladiki, til taraqqiyoti global muammolarining yechimi uslubshunoslikni notiqlik san'ati ilmi maqomiga ko'tarishni, jumladan, funksional uslublarda qo'llaniladigan evfemik vositalarni tadqiq qilish, evfemiyalogiyaning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B.87.

– tilshunoslikdan o‘tib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darsliklar, lugàtlar tuzish kabilarni taqozo qiladi.

Mavzuning dolzarbligi, turk tilida evfemizmlarning juda kam o‘rganilganligi, evfemiyaning tilshunoslikning qaysi sohasi, qanday til sathiga oidligi, uning o‘rganish predmeti, tasvir obyekti haqida aniq fikrlar mavjud emasligidadir. Evfemizm leksik birlik deb qaralganligidan bo‘lsa kerak, u leksikologiya bo‘limidan o‘rin olgan. Tilda tabu va evfemizmlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki til tarixi va etnografiya uchun ham ahamiyatlidir.

Tildagi tabu va evfemizm nutqda biror bir hurmatni bildiruvchi yoki aksincha salbiy tushuncha, hodisani bildiruvchi so‘zlarni taqiqlash asosida vujudga keladi. Madaniyat rivojlanishining ilk davrlariga xos bo‘lgan predmet va uning nomi o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlik haqidagi tasavvur, so‘z sehr-u jodusi va tabu ya’ni, ma’lum predmet va hodisalarning nomlari (Xudo nomlari, ruh, shayton, o‘lim, kasallik, ba’zi hayvonlar, odam tana a’zolari nomlari)ni taqiqlashni keltirib chiqaradi. Tabu va evfemizmlarning boyligi nafaqat ularning keng miqdoriy tarkibga ega ekanligida, balki uning semantikasining kengligi va uslubiy sifatining xilma-xil ekanligidadir. Tabuning maqsadi jamiyatga zarur bo‘lgan tushunchani emas, balki so‘z-nomni iste’modan chiqarishdir. Shu tariqa tabu mexanizmi, ya’ni so‘zni boshqa bir so‘z bilan almashtirish yoki nomlanishini o‘zgartirish bilan aniqlanadi. Tabulashgan so‘zni almashtiruvchi so‘z yoki ibora esa evfemizm hisoblanadi. Shunday qilib, jamiyat hayotining tilga ta’sirini amalga oshiruvchi kanallardan biri sifatida, tabu, tildagi muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi: so‘zlarning yo‘q bo‘lib ketishi, sinonimiyaning rivojlanishi, so‘zlarning o‘zgarishi. Tabu va evfemizmlarning nutqda qo‘llanilishi, ularning lingvospetsifik xususiyatlari nafaqat turk tilshunosligi uchun, balki uning tarixi, zamonaviy etnolingvistika uchun ham dolzarbdir. Nutqning stilistik resurslari va ularning evfemistik vositalar asosida shakllanishi fan va texnikaning jadal rivojlangan sharoitida jamiyat vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ta’minlaydi.

Umuman tabu va evfemizmlar turkologiyada ma'lum nuqtayi nazardan tekshirish obyekti bo'lganiga qaramay, uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzu bo'lib qolmoqda. Ushbu ishda tabu va evfemiyaning paydo bo'lishi, ularning o'zaro aloqalari, evfemizatsiya usullari va boshqa til hodisalari bilan munosabati kabi masalalar o'rganilgan.

Tadqiqot maqsadi turk tilidagi tabu va evfemizm, shuningdek, disfemizmlarning turk tilidagi qo'llanish xususiyatlari, ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishdan iborat. O'rganish maqsadi aniq **vazifalarni** yuzaga keltirdi:

- tabu va evfemizmning tugilishi, o'zaro aloqasi, evolyutsiyasi, sababi va qonuniyatlarini yoritish
- tabu va evfemizm assimetriyasini o'rganish;
- evfemizmni uslubiy vosita sifatida o'rganish;
- badiiy va publisistik uslub matnlarida evfemizmlarning qo'llanilishini o'rganish;
- evfemizatsiya usullarini tahlil qilish va tasniflash;
- disfemizm hodisasining matnda tabu va evfemizm bilan aloqasini ko'rsatish;

Tadqiqot obyekti – turk tilidagi tabu va evfemizmlar, tabulashgan leksika.

Tadqiqot predmeti turk tilidagi tabu va evfemizmlarning nutqda qo'llanilish xususiyatlari, omillari, tabulashgan leksikaning matnlarda aks etishi va ularni ifodalashda qo'llaniladigan evfemizm usullari.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tildagi tabu, evfemizm va disfemizm hodisasi o'zaro bog'liqligi, tabusiz evfemizm ham, disfemizm ham mavjud bo'la olmasligi, ularni bir sistemada ekanligini isbotlash asosiy farazni tashkil qiladi. Shuningdek, tadqiqotning asosiy masalalari quyidagilarda aks etadi:

- tildagi barcha evfemizmlar tabuga asoslanganligi;
- tildagi bir qator hodisalar evfemizm xususiyatlarini namoyon etishi;
- turk tilida mavjud evfemizatsiya usullari va uslubiy o'ziga xosliklar;

- siyosiy evfemizm hodisasi tadqiqi;
- disfemizm ham aslida tabuga asoslanganligi.

Mavzuning o'rganilganligi. Lingvistik aspektda tabu va evfemizmlar XIX asr oxiridan boshlab tadqiq qilina boshladi. A.Mayo tabu va evfemizmlarning qadimiy tillar misolida lingvistik xususiyatlarini o'rganib, ushbu jarayonni so'z semantikasining o'zgarishi deb belgilaydi. Tabu va evfemizmlar XX asrning 60-80 yillarida S.Vidlak², Dj.Keyni³, Dj.Lorens⁴ tadqiqotlarida keng miqyosda o'rganila boshlangan. Keyinchalik esa E.Partridj⁵, A. Richard Spears⁶, J.S Neaman, C. Silver⁷, D.Oaks⁸, K.Allan⁹ va boshqalar. Bu davrgacha bo'lgan leksik materiallar tartibga solinib mahsus lug'atlarda o'z aksini topgan.(Spears, Neaman, Silver; Holder) Ingliz leksikografiyasida evfemizmlar izohli lug'atlarga kiritilgan. Tabu va evfemizmlarning nazariyasida nomutanosibliklar bo'lsa-da, uning umumiy belgi va xususiyatlari belgilangan.

Tabu va evfemizmlar ko'pgina turkiy xalqlar tomonidan, xususan, qozoq, turkman, oltoy, ozarbayjon, o'zbek tilshunos olimlari tarafidan o'rganilgan. Ulardan S.Altayev, N.Ismatullayev, N.M.Jabbarov kabi tilshunoslarni monografiyalarini keltirib o'tishimiz mumkin. Bulardan o'zbek tilshunos olimi N.Ismatullayevning nomzodlik dissertatsiyasini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Muallif o'z tadqiqotida tabu va evfemizmgga doir ma'lumotlarni to'plagan, ularga munosabat bildirgan, umumlashtirgan, muayyan xulosalarga kelgan.¹⁰ Ushbu tadqiqot nafaqat o'zbek tilshunosligi uchun, balki butun turkiy tilshunoslikda evfemizm muammosiga yangicha tus bergan ishlardandir. Ko'pgina turk olimlari ham tildagi evfemizm hodisasini o'rganar ekan, ushbu tadqiqotni asos sifatida keltirib o'tganlar.

² Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля.1965.– С.267-285.

³Keane J. The media and democracy.Cambridge: Polity Press, 1993.– P.202.

⁴Lawrens J. Ummentionables and other euphemisms. London: gentry Books, 1973.– P.84.

⁵Partridge E. Usage and abuse. -New York: Penguins Books, 1964.– P.379.

⁶Spears A. Richard. Slang and euphemism.-New York: New American Library, 1982.– P. 462.

⁷Neamen J.S, Silver C.Thesaurus of euphemisms.-New York:Facts On File, 1990.– P.373.

⁸Oaks D.D. Old English euphemisms//General linguistics.-University Park, 1993.– P.57-63.

⁹Allan.K. Linguistics meaning. –London,New York: Routledge&Kegan Paul, 1986.– P.452.

¹⁰Исматуллаев Н. Ўзбек тилида қўлланиладиган эвфемизмлар. Тошкент.1963.– Б.48, 3-59, 3-12, 19.

1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzusi sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy aspektda o'rganish kerak deb hisoblaydi. Evfemizmlarni qo'llanish darajasiga ko'ra umumnutqiy va xususiy nutqiy evfemaga ajratib, ifoda usullarini o'rganadi. Tasnifiy xarakterdagi bu izlanish o'zbek tilidagi evfemik birliklar haqida ko'proq amaliy ma'lumot beradi.¹¹

Vaqt o'tib, til taraqqiyoti, global muammolarning yechimi uslubshunoslikni notiqlik san'ati maqomiga ko'tarishni, jumladan, professional nutqning barcha tarmoqlarini — chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifokor, kurashchi, sovchi, to'quvchi, tikuvchi, temirchi kabilar nutqini fundamental tadqiq qilish, xususan, ularning evfemik vositalarini yozib olish kabi muammolarni davr taqozo qiladi va A.Omonturdiyev muayyan soha evfemiyasi, ya'ni chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingvistik nuqtayi nazardan tavsiflashga bag'ishlangan "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida chorvadorlar nutqidagi, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlarini, an'analari, marosimlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qildi.

Boshqa tilshunos olimlarning tadqiqot ishlarida ham evfemizm xususida yo'l-yo'lakay fikrlar bildiriladi. Masalan, H.Shamsiddinov so'zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari haqida fikr-mulohazalarini bildirsa¹², A.Mamatov doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to'xtalib o'tadi. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog'liq ishlarda ham evfemik ma'noga e'tibor qaratiladi. Jumladan, "Boburnoma" leksikasini maxsus tadqiq qilgan olim Z.Xolmanova unda

¹¹ Омонтурдиев А.Эвфемик воситаларнинг функционал услубий хусусиятлари. филол. фан. номзоди... дис./Тошкент. 1997. — Б.175.

¹² Шамсуддинов Х. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1995. — Б.65-69.

qo‘llangan evfemizmlar xususida ham ba‘zi fikrlarni bayon etgan.¹³ Olima “Boburnoma”dagi evfemik ifodalar eski o‘zbek adabiy tili leksikasining semantik tarkibi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari, muallifning lingvistik mahorati, badiiy tasvir usuli xaqida asosli tasavvur berishini ta’kidlaydi. Ishda *o‘lmoq* tushunchasining evfemik birliklari tahlil etilib, uning muayyan semantik-uslubiy maqsadlarda qo‘llangan shakllari tavsiflanadi.

Ko‘rinadiki, evfemizm o‘zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o‘tilgan olimlar tomonidan evfemizmning ko‘proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan.

Shuningdek, B.O‘rinboyev ham qator ishlarida so‘zlashuv nutqini tadqiq qilishi munosabati bilan evfemizm hodisasiga doir qimmatli fikrlar bayon qilgan¹⁴.

Rus tilshunosligida evfemiya muammosiga uzoq vaqt mobaynida yetarlicha e’tibor qaratilmagan, sababi sovet paytida o‘ziga xos “Sotsialistik davrga xos bo‘lgan evfemizmlarni taqiqlash va ularning o‘rniga to‘gridan-to‘g‘ri nomlanishni afzal ko‘rish” kabi fikr mavjud edi.¹⁵ Evfemizmlar rus tilining izohli lug‘atlariga kiritilmagan, ushbu tushunchaga oid maxsus lug‘atlari ham yaratilmagan. Ammo bu bo‘shliq hozirda ko‘pgina olimlarning tadqiqotlari bilan to‘ldirilib kelinmoqda. Bu borada ko‘pgina dissertatsiyalar yaratila boshlangan E.K.Павлова¹⁶, А. Родченко¹⁷, Е.Е. Тюрина¹⁸, ushbu muammo bilan bog‘liq

¹³ Джаббаров Н. М., Табу и эвфемизмы в азербайжанском языке. Канд. филол.наук...дис. Баку, 1972.– С.65.

¹⁴ О‘rinboyev В. Turkiy filologiyaga kirish. Samarqand. 1989.– В.112.

¹⁵ Ларин.Б.А. История русского языка и общее языкознание. Избранные работы. М.Просвещение,1977. – С. 224.

¹⁶ Павлова Е.К. Языковая преемственность в процессе эвфемизации политических реалий//Вестник МГУ. Лингвистика и межкультурная коммуникация. -2000. №3.– С 17-25.

¹⁷ Родченко А.В. Средства эвфемии в современном испанском языке. Автореф. дис.канд.филол.наук.-М, 2000.– С.20.

¹⁸ Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка(на материале английского языка) Автореф.дис.канд.филол.наук.- Нижний Новгород, 1998.– С.18.

publikatsiyalar ham yaratilgan, Н.С.Болотнова¹⁹, Н.А.Евсеева²⁰,
З.З.Киквидзе²¹, Т.В.Кочеткова²², Г.Маньковская²³, Е.И. Шейгал²⁴.

Evfemiya hodisasi A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, L.V.Artyushkina, V.P.Moskvin va boshqa tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning turli nuqtayi nazardan har xil jihatlarini yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo'lsa, N.S.Boschayeva tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o'rganiladi. G.G.Kujim²⁵ evfemizmni tilning meliorativ vositasi sifatida yoritadi, A.M.Katsev²⁶ uni ijtimoiy psixologik-jihatdan talqin etadi.

Tabu va evfemizm hodisasining paydo bo'lish sabablari, qanday maqsadlarda qo'llanilishi kabilarga doir umumtilshunoslikda, turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida anchagina manbalar: ilmiy ishlar, maqolalar, yo'l-yo'lakay aytilgan nazariy fikrlar mavjuddir.

J.Vandries: Evfemizm – bu man etilgan lug'atning muloyimroq va madaniyroq shakligina xolos”.²⁷ L.A.Bulaxovskiy: Evfemizmlar yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yozuv kuchlarini chaqirish “xavfi”ni tug'dirmay gapirish,...hammadan oldin” xavfning oldini olish” formulasidir,²⁸ deydi.

O.N.Turbachyov yevropa ovchilari, baliqchi va dehqonlari ov mavsumida qo'rqinchli va zararli hayvonlarning nomini aytmaslikka harakat qiladilar deb

¹⁹ Болотнова Н.С.Эвфемизация в современном словоупотреблении и языковая компетенция личности//Языковая компетенция. Новосибирск, 1998.-4.1.– С.19-23.

²⁰Евсеева Н.А. Культура и языковые запреты//Вестник МГУ.Лингвистика и межкультурная коммуникация. -2000. №2.– С.43-47.

²¹ Киквидзе З.З. Социолингвистический аспект изучения грамматического эвфемизма в разносистемных языках//Актуальные проблемы лингвистики и лингводидактики. – Тюмень, 1997.– С.38-42.

²²Кочеткова Т.В. Эвфемизмы в речи носителя элитарной речевой культуры//Вопросы стилистики. – Саратов, 1998.-Вып.27.– С.168-178.

²³ Маньяковская Г.Русские эвфемизмы и их эквиваленты в польском языке//Проблемы изучения отношений эквивалентности в славянских языках. М, 1997.– С. 151-157.

²⁴ Шейгал Е.И. Эвфемизм, ирония в политическом тексте//Филология.-Краснодар, 1997. № 11.– С.47-49.

²⁵Кужим Г.Г. Некоторые лингвистические аспекты эвфемии в современном английском языке//Пятигорск, 1997.– С.104-111.

²⁶ Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. Л.ЛГПИ, 1989.– С.79.

²⁷ Вандриес Ж. Язык.-М.1937.– С.206.

²⁸ Булаховский Л.А. Введение в языкознание, часть 2. М. 1953.– С.175.

yozadi va muallif o'rmon hayvonlari (ayiq, bo'ri kabi) ni Shvetsiya, Finlyandiya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda erkalatib, hushomadgo'yli, kinoyali laqablar bilan atashlari rasm bo'lib qolganligini qayd etadi.²⁹

K.K.Shaxjuri gruzin tilidagi ko'pgina evfemistik hodisalarni bayon etish bilan birga rus tilida qo'llaniladigan qo'rqq kishini masxaralab "репoй- qahramon" deyish kabilarni ham evfemizm hisoblaydi.³⁰

I.V.Arnold ham ingliz tilida evfemizmning lug'aviy ma'nosi, ta'rifi, evfemizm qadimdan olimlar e'tiborini jalb qilganligi, keyinchalik axloqiy normalar uchun, masalan, Xudoning nomi evfemalashtirilganligi kabilar haqida qisqacha to'xtalgan.³¹

Sh.Ch.Sat tabulashtirish tavaliklar faoliyatida, xususan, ularning jonli tilida, folklorida: qo'shiq, maqol va topishmoqlarida, shuningdek, chorvadorlar, ovchilar va ayollar nutqida aktiv qo'llanilishi: eng ko'p yirtqich hayvon, zaharli hashorot, o'lim bilan bog'liq jarayonlar tabulashtirilganligi va bunda qo'llaniladigan evfemik vositalar haqida boy material bergan.³²

Tabu va evfemizm mavzusi, ana shu mavjud ishlardan ijodiy foydalanilgan holda, birinchi marta 1983-yilda oily maktab uchun tuzilgan "O'zbek tili stilistikasi" nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar tabu va evfemizga doir umumiy ma'lumot berish bilan birga, uning nutq vositasi sifatidagi ahamiyati, hatto kontekstual individual evfemizmlar haqida ham to'xtalib o'tganlar.

Tabu va evfemizm tarixiy etnografik hodisa bo'lib, yozma adabiyotda keyinroq, tilshunoslikda XVIII asrning boshlarida, turkologiyada XIX asrning oxirlarida aks eta boshlagan. Asrimizning 50-yillaridan boshlab qozoq, qir'giz, turkman, o'zbek tillarida ilmiy tekshirish obyekti bo'lgan.

²⁹ Турбачев О.Н. Из истории табуистических названий//Вопросы славянского языкознания. М. 1958.– С.12.

³⁰ Шахжури К.К. Эвфемизмы и их роль изменение значение слов. Автореф. дис... канд. филол. наук. Тбилиси, 1956.– С.15.

³¹ Арнольд С. Эвфемизмы в современном английском языке. М, 1959.– С.147.

³² Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке//Советская тюркология. Баку, 1981.– С.266.

Ushbu tildagi hodisa tadqiqida sotsiolingvistik yo‘naltirilganlik ustuvorlik qiladi. Shunday qilib, evfemizmni ko‘paspektli lingvistik hodisa sifatida 3 o‘zaro bog‘liq omillar nuqtayi nazaridan o‘rganish lozim: 1) ijtimoiy omil, uning asosini moral etnik va diniy qadriyatlarni o‘zida mujassam qilgan ijtimoiy evfemizmlar tashkil qiladi, 2) psixik omil, uning asosini ehtiyotkor munosabatda bo‘lish, ya’ni ba’zi predmet va hodisalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlash salbiy his-tuyg‘ularni, uyat, nohushlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ularni almashtiruvchi so‘zlar esa salbiy munosabatni yumshatadi. 3) Lingvistik omil, disfemistik birliklarning ko‘payishi, nohush ibora va so‘zlarni tilning stilistik potensialini kengaytiruvchi emotsional bo‘yoqdor so‘zlar, ya’ni evfemizmlar bilan almashtirish zaruratidan kelib chiqqan. Umumtilshunoslikdagi tabu va evfemizm haqidagi fikrlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkun. Bular: 1- evfemizm ibtidoiy dunyoqarashli (Tabu) ta’sirida paydo bo‘lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo‘q bo‘lib boradi³³ ; 2-evfemizmlar fakti, passiv leksik qatlam sifatida mavjud³⁴ ; 3-evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi³⁵ deyuvchilar.

Turk tilida tabu va evfemizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni cheklangan. Turk tilshunoslaridan K.Demirci, A.Güngör, U.Söylemez kabi tilshunos olimlar tabu va evfemizmlarni o‘rganganlar. Turk tilida evfemizm muammosi avvalo, ushbu soha terminologiyasidagi nomutanosibliklar, disfemizm hodisasiga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi va bu borada tilshunos olimlarning bahs-munozaralari bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, Cengiz Celik³⁶ o‘z dissertatsiyasida turk tilida va lahjalarida qo‘llanilgan evfemizm va tabu so‘zlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadi.

³³ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке: Автореф.дис...д-ра филол.наук.-Л.,1977.– С.19.

³⁴ Ергазиева Н.И. Взаимсвязь прозвищ табу и евфемизмов в казакском языке// Ономастика Узбекистана июль, Ан Уз ССР. – 1989.– С.120.

Черкасова Е.Г.О метафорическом употреблении слов// Исследования по языку советских писателей. – М:1959.– С.13.

³⁵ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: афтореф. дис...канд.филол. наук. Т., 1963.– С.10.

³⁶ Celik C. Türkiye Türkçesinde Örtmece ve tabu kelimeler. Doğu Akdeniz Üniversitesi. 2011. – S.126.

Tadqiqot uslubi va uslublari. Ishda qoʻllangan metodlar, tadqiqotning maqsadi, vazifasi va xarakteri bilan oʻzaro uzviy bogʻlangan. Qoʻyilgan savollarni oʻrganish jarayonida oʻz ichiga kuzatuv uslublarini oluvchi tavsifiy metod, tabulashgan va evfemizatsiyalashgan leksika klassifikatsiyasini ishlab chiqishda qoʻllaniluvchi **tahliliy-statistik** metod, materialni qiyoslash, umumlashtirish uslublariidan foydalanildi. Material zamonaviy uslubshunoslikda qoʻllaniladigan leksik birliklarni semantik-uslubiy va funksional-uslubiy metodlar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, keyinchalik bu mavzuni oʻrganish mobaynida asosiy nuqtayi nazarlarni va xulosalarni qoʻllash mumkinligi, ishning natijasi turk tilini oʻrganuvchilar uchun tilni yanada chuqurroq bilish imkonini berishi mumkin. Mazkur ishning nazariy xulosalari turk tili evfemiyasini yirik ilmiy-monografik planda (masalan, vazifaviy uslub turlarining evfemiyasi, professional nutq evfemiyasi, siyosiy til evfemiyasi) kabilarni oʻrganishga yoʻl ochishdan tashqari, umuman, matnshunoslik nazariyasi, uslubshunoslik, til va nutq, nutq madaniyati, soʻz qoʻllash sanʼati, badiiy mahorat, tasviriy vositalarni oʻrganish, ularga meʼyor, mezon, chegara belgilash masalalarini tadqiq etish doirasini yanada kengaytirishga yordam beradi. Evfemiyaning alohida soha sifatida shakllanishiga asos boʻladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Turk, oʻzbek, rus va chet tillari lingvistikasi maʼlumotlariga tayangan holda ishda ilk bor turk tilidagi tabu va evfemizmlarning asosiy lingvospetsifik xususiyatlari tahlil qilindi. Turk tilidagi tabulashgan leksikaning evfemizatsiya jarayonining oʻziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi. Evfemizmlarni qoʻllash maqsadlari, ularning taʼsir darajasi oʻrganib chiqildi. Evfemizatsiya usullari, metaforalar, maqollar, iboralar vositasida ifoda etilishi misollar orqali koʻrsatib berildi.

Turk tilidagi evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari ilk bor yoritilmoqda. Buning uchun avvalo, evfemiyaning oʻrganish obyekti-predmetini oʻrganishga harakat qilindi. Umumtilshunoslikdagi nazariy materiallar asosida turk tili evfemik qatlamiga doir 400 ga yaqin evfemik ifoda,

kartochka tahlil qilindi. Matnlar asosan badiiy matn va publisistik uslubdan (gazeta matnlaridan) olindi.

Shundan kelib chiqib, evfemaning o'ziga yondosh, turdosh bo'lgan troplar, nutqiy figuralarga munosabati aniqlandi, til sathidagi o'rni belgilandi, lisoniy va nutqiy(individual, okkazonal) evfemalar farqlanib, ularning uslubiy qimmati yoritildi. Evfemik matn asoslari nazariy va amaliy jihatdan ishlandi, ularning nutqiy qimmatiga baho berildi.

Umuman, ishda tilimizning evfemik qatlami tarixiy-etnografik hodisa yoki passiv leksik qatlam sifatidagina emas, balki uslubshunoslik (xususan, uslubning badiiy, publisistik, so'zlashuv turlarining) mundarijasini to'ldiruvchi, boyituvchi, emotsional-ekspressiv nutq uchun ham xizmat qiluvchi soha ekanligi yoritilgan. Tilshunoslikda kam e'tibor qaratilgan disfemizm hodisasining tabu va evfemizm bilan aloqasi o'rganildi, uning evfemizmdan farq qiluvchi tomonlari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot materiali sifatida turkcha va o'zbekcha izohli lug'atlardan yaxlit olingan ma'lumotlar, shuningdek, turk adabiyotining ilmiy va badiiy asarlaridan, ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar matnlaridan foydalanildi.

Ish tuzilishi va tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Tabulashgan va evfemistik leksik birliklarning vujudga kelishi

1. Tabu va evfemizmlarning ilmiy o'rganilishi

Evfemizm so'zi yunoncha *eu*-“yaxshi”, *phemi*-“gapiryapman” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, og'zaki yoki yozma nutqda qo'llaniladigan, ma'nosi neytral “vazifasi”ga ko'ra emotsional bo'lgan so'z bo'lib, qo'pol yoki “beodob” so'zlar

oʻrniga qoʻllaniladi.³⁷ A.A.Reformatskiy “Evfemizmlar –taqiqlangan (tabulashtirilgan) soʻzlarning oʻrniga qoʻllanilishi mumkin boʻlgan soʻzlardir” deya taʼrif beradi.³⁸ “Лингвистический энциклопедический словарь”da esa “Evfemizm-soʻzlovchi uchun nooʻrin, nohush, qoʻpol tuyulgan soʻz va ifodalar oʻrniga ularga sinonim hisoblangan emotsional neytral soʻzlardir”³⁹ deb taʼriflanadi.

A.Hojiyevning 2002 -yilda qayta nashr qilingan ‘Lingvistik terminlar izohli lugʻati’da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qoʻpol, beadab soʻz, ibora va tabu oʻrnida qoʻpol boʻlmagan, botmaydigan soʻz, iborani qoʻllash.”⁴⁰ Masalan, *ikkiqat* soʻzi oʻrnida *homilador*, *ogʻir oyoq* soʻzlarini qoʻllash” (Biroq lugʻatda disfemizmga doir fikr bildirilmagan).

Evfemik maʼno yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uygʻotgan. O.M.Freydenbarg tahriri ostida chop etilgan “Античные теории языкознания стиля” nomli asarda ‘evfemizm’ tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida maʼlumot beriladi⁴¹. Demak, bu til birligi haqida qadimgi davrlarda ham bilishgan, ulardan foydalanishgan va hozirga qadar istifoda etishadi. Dastlab, evfemizmlar XII—XV asrlarda ingliz tilida paydo boʻlgan. XIV asrlarda fransuz madaniyati urf boʻla boshlaydi, bu esa tilda ham oʻz aksini topadi, degan qarash ham bor.

Ingliz tili tarixini oʻrgangan olim R.Byorchfild Choser nazmining evfemik birliklari misolida tadqiqot olib borar ekan, evfemizm sheʼriyatning juda qulay uslubiy vositasi ekanligini eʼtirof etadi. R.Byorchfild Choserni birinchi bor oʻz ijodida intim munosabatning evfemik shaklini berganligini taʼkidlaydi. V.Shekspir esa bu yoʻnalishni buzgan holda, oʻzining obrazlarini his-hayajonli

³⁷ Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. Л.ЛГПИ, 1989.– С.15.

³⁸ Реформатский А.А. Введение в языкознание, М.1967.– С.200.

³⁹ Лингвистический энциклопедический словарь. [Советская энциклопедия](#).1989.– С.406.

⁴⁰ Хожиев А. Лингвистик терминлар изохли лугати. Тошкент, Укитувчи, 1974.– Б.56.

⁴¹ Фрейденберг О.М. Античные теории языка и стиля. М.; Л.: ОГИЗ, Соцэкгиз.1936.– С.207.

birliklar bilan ifodalab, evfemizmdan faqatgina stilistik bo‘yoqni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanadi⁴².

XVI asrning yarmiga kelib nutqiy madaniyatni yuksaltirishga bo‘lgan urinish kuchayib, Xudo, insonning avratlari va u bilan bog‘liq narsa-hodisalar nomini ishlatmaslikka qarshi kurash olib boriladi va bu V.Shekspir ijodida ham o‘z aksini topa boshlaydi. Kurash XVIII asrga qadar davom etib, S.Richerdsonning “Pamella” asarida ba‘zi nozik vaziyatlarning evfemik shaklini juda madaniy tarzda qo‘llaganini ko‘rish mumkin.⁴³

XIX asrga kelib o‘zgacha madaniy hayot tarzi shakllanadi, erkaklar ishlab chiqarish bilan band bo‘lishlari, ayollar esa o‘zlarini turmush o‘rtoqlari va oilasiga baxsh etishlari lozim bo‘ladi. Axloqiy va rasmiy senzura kuchayib, noziklik, nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi.

XX asrga kelib nafaqat inson a‘zolari, balki hayvon va hasharot, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemalashtirish ham avj oladi. Chunki jahon urushi davrida odam savdosi, yetimlik, fohishabozlik rivoj topa borgan sari evfemik birliklar va argotizmlar ham ko‘payib boradi. Ularning ma‘noviy xususiyatlari zamon va makonda, insoniyat xatti-harakati va holati bilan bog‘liq holda tomir yoza boshlaydi.

1.1. Dunyo tilshunosligida o‘rganilishi. Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J.Vandriyes, L.A.Bulaxovskiy⁴⁴ kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog‘liq adabiyotlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.A.A.Reformatskiy tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid‘at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta‘kidlaydi⁴⁵.

⁴² Омонтурдиев Ж. Профессионал нутқ эвфемияси: Филол.фанлари.д-ри...дис. Т.,2009.– Б.85.

⁴³ Омонтурдиев Ж, Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. Термиз.Бойсун. 1994.– Б.60.

⁴⁴ Булаховский Л.А.Введение в языкознание.Букинист.1954.– С.174.

⁴⁵ Реформатский А.А. Введение в языкознание, М.1967.– С.204.

XXI asrdan boshlab birgina rus tadqiqotchilari tomonidan evfemizm mavzusi doirasida 15 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangani bu hodisani o'rganish yangi kuch olayotganidan dalolat beradi.

So'zlovchi o'z fikrini til va nutq birliklari vositasida ifodalaydi. Bu jarayonda asosan tushunchalarning to'g'ridan to'g'ri ma'nosini bildiruvchi vositalardan foydalanadi, aniq obyektlar, reallik, insoniyat faoliyati muhiti va insonlarning munosabati nutqda o'z aksini topadi. Ammo ba'zida vaziyatni yumshatish, qo'pol tasvirlamaslik, so'zlarni to'g'ridan to'g'ri qo'llashdan qochish, muloqot madaniyati, so'zlashuvchilar o'rtasidagi hurmat va boshqa bir qancha omillar tilda alohida so'zlardan foydalanish ehtiyojini tug'diradi. So'zlovchi bunday so'zlarni tanlashda shunchaki u yoki bu qo'pol tuyulgan so'z yoki iboralarni yumshatibgina qolmay, asl ma'noni yashirib, niqoblab keladi.

Lingvistik adabiyotlarda evfemizmlarga turli xil ta'riflar beriladi. Ushbu ta'riflarda bu hodisaning funksiyalari aks etadi. Evfemizmning asl mohiyatini yanada aniqroq tushunish maqsadida tadqiq qilingan ta'riflarni 3 guruhga ajratdik. Evfemizmlarning ushbu ta'riflarda ifodalangan funksiyalari asos sifatida olindi.

Birinchi guruh, evfemizmlarning qo'pol va nohush hisoblangan so'zlarni yumshatish funksiyasi tarafdorlari bo'lgan olimlar:

D.Nimov va K.Silver "Evfemizmlar – nohush haqiqatni berkitish maqsadida qo'llaniluvchi neytral so'zlardir" deyilar.

A.Spirs "Evfemizm – aytilishi noo'rin, nohush bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga boshqa o'rinli bo'lgan so'zni qo'llash."⁴⁶

C. Mamitov va Z. Kulumbayeva: "aytilishi nohush bo'lgan, muomala qoidalariga uyg'un bo'lmagan qo'pol, hunuk so'zlarning o'rniga boshqa so'zlarning qo'llanilishiga 'evfemizm' deyiladi."⁴⁷

⁴⁶ Spears A. Richard. Slang and euphemism: a dictionary of oaths, curses, insults, sexual slang, metaphor, etc. - New York: New American Library, 1982. – P. 11.

⁴⁷ A.U. Turkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 29. Erzurum, 2006 71 Prof. Dr. Zeki Başar Özel Sayısı 5 Mamitov, C., Kulumbayeva Z., Azırkı Kırgız tili, Frunze, 1971. – S.25.

X.Fauler “Evfemizm – qo‘pol va nohush bo‘lgan haqiqat o‘rnida qo‘llaniluvchi muloyimroq, noaniq iboralardir”⁴⁸

Ch.Keyni “Evfemizm – nohush, haqoratli yoki qo‘rquv uyg‘otuvchi so‘zni boshqa yumshoqroq termin bilan almashtirib qo‘llash usulidir”⁴⁹

I.P.Galperin “Evfemizm – nohush so‘z va iborani nisbatan o‘rinli bo‘lgan so‘z yoki ibora bilan almashtirish”⁵⁰

Ikkinchi guruh ta’riflarida asosiy yumshatish funksiyasidan tashqari, ijtimoiy motivlarning muhimligi e’tiborga olingan:

E.Partridj “Evfemizm – tinglovchiga nohush ta’sirni kamaytirish yoki so‘zlovchining yaxshi taassurot qoldirish maqsadida qo‘llaniluvchi iboralardir”

A.Katsev “Evfemizm – ahloqiy va diniy motivlardan kelib chiqqan holda qo‘rqinchli, uyatli so‘zlarni o‘rnida qo‘llaniluvchi, yumshatish ta’siriga ega bo‘lgan so‘z va iboralardir”⁵¹

L.Krisin “Evfemizm muloqotda kommunikativ konfliktlardan qochish, tinglovchida kommunikativ diskomfort hissini uyg‘otmaslik maqsadida qo‘llaniladi”⁵²

E.Tyurina “Evfemizmlar ma’lum sabablarga ko‘ra nisbatan o‘rinli deb hisoblanuvchi so‘z va iboralar bo‘lib, ular so‘zlovchi uchun jamiyatda qabul qilingan ahloq normalari nuqtayi nazaridan taqiqlangan, noo‘rin, qo‘pol so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi”⁵³

Uchinchi guruhga kiruvchi ta’riflarda evfemizmning asosiy funksiyasi sifatida ma’lum bir tushunchani niqoblash funksiyasi olingan:

⁴⁸ Holder R. W. A dictionary of euphemisms. - London: Oxford University Press, 1995. – P.470.

⁴⁹ Капу С. Е. American-Spanish euphemisms. - Berkely, Los Angeles: University of California, 1960. – P.5.

⁵⁰ Гальперин И. Р. Проблемы лингвостилистики // Новое в лингвистике. -1980.-Вып. 9. – С.5-68.

⁵¹ Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия. - Л.: ЛГПИ, 1989. – С.79.

⁵² Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи / Русский язык конца XX столетия (1985-1995) - М., 1996. – С.391.

⁵³ Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале современного английского языка): Автореф. дис. канд. филол. наук.-Нижний Новгород, 1998. – С.18.

Dj.Lourens “Evfemizm fikrni (ma’lum sabablarga ko‘ra) yumshatilgan, qog‘ozga o‘ralgan holda ifoda etishdir. Ko‘p hollarda bu yumshatish faqatgina sohta”.

D.Nimov va K.Silver “Evfemizmlar nohush haqiqatni berkitish maqsadida qo‘pol, haqoratli deb hisoblanuvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi terminlardir”.

Yuqoridagilarni o‘qib shunday xulosaga kelish mumkin: Evfemizmlar 3 funksiyani bajaradi:

1. So‘zlovchi uchun qo‘pol va nohush hisoblangan so‘zlarni yumshatish.

Bunda so‘zlovchi tomonidan nutq obyektining baholanishi yuz beradi, ya’ni so‘zni to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlash qo‘pollik, odobsizlik deb qabul qilinadi.

2. Tinglovchi uchun qo‘pol va nohush bo‘lgan so‘zlarni yumshatish

evfemizmni kontekst va muloqot shartlariga bog‘liq holda, qaysi so‘z evfemizm bo‘la olishini ijtimoiy asoslanganlik orqali ifoda etadi.

3. Haqiqatni berkitish (niqoblash).

Bunda nafaqat qo‘pol yoki nohush so‘z boshqasi bilan almashtiriladi, balki fikrning asl mohiyati berkitiladi, niqoblanadi.

1.2. Turk tilshunosligida o‘rganilishi. Turk tilida ko‘p qo‘llaniladigan evfemizmlar chuqur tadqiq etilmaganligi tufayli har xil, bir biridan farqli terminlar bilan nomlanadi. Evfemizm aytilishi nojo‘ya bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llash demakdir. Turk tilida ushbu ta’rif “*örtmece sözler*” ya’ni oralgan yoki yopilgan so‘zlar yoki “*güzel adlandırma*” go‘zal nomlash kabi terminlarga nisbatan berilgan. Albatta evfemizmning vujudga kelishi tabuga bog‘liqdir. Turk olimi Oyarkılıçgil Ateş tabuga quyidagicha ta’rif bergan: “Bir jamiyatda qaysi bir harakat tabu hisoblansa, ushbu harakatni ifoda etishimiz uchun qo‘llaydigan so‘zimiz ham tabu hisoblanadi. Ushbu harakatni taqiqlagan tabu, uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etilishida ham taqiqlar keltirib chiqaradi.”⁵⁴

⁵⁴ Oyarkılıçgil Ateş Arzu, “Dilde tabu ve örtmecenin yeri üzerine”, Dil Dergisi, S. 49, kasım 1996. – S.16 – 18.

Evfemizmga turkchada ritorika va adabiy san'atlar bilan bog'liq asarlarda "*edeb-i kelam*" termini ham ishlatiladi. "To'g'ridan to'g'ri aytilishi noxush bo'lgan tushunchalarning go'zal, adabiy shaklda ifoda etilishi edeb-i kelamdir." Edebi kelam adabiy kinoya san'atining turi hisoblanib, majoziy ma'noda so'zlarni chiroyli qo'llash demakdir.

G'arb olimlari qo'llaydigan "euphemism" termini turkchada "*öfemizm*" ko'rinishida ham qo'llaniladi.

Evfemizmlar qaysi maqsadda qo'llanilishiga ko'ra turlarga bo'lingan. "*Açık euphemizmler*" termini H.Melenk fikriga ko'ra, o'zining asl maqsadida, ya'ni odamlarga hush kelmagan so'zlar, tushunchalarni boshqa so'z va iboralar bilan almashtirib qo'llashdir.⁵⁵ "*Gizli euphemizmler*" berkitilgan evfemizmlar ko'pincha tijorat va siyosiy sohada uchraydigan, aldash ko'zbo'yamachilik maqsadida qo'llanadigan yolg'on va noto'g'ri nomlar, evfemizmlardir. Ushbu o'ziga xos evfemizm turi turklarda "*kötü adlandırma*" yomon nomlash yoki "*diphemism*" terminlari bilan ishlatiladi.⁵⁶

Turk tilida qo'llaniladigan evfemizmlarning paydo bo'lishi, ularning mohiyati va ma'nolarini chuqur tadqiq qilingan ishlar juda kamdir. Evfemizmlarning vujudga kelishini chuqur o'rgangan g'arb tilshunoslari bu so'z yoki so'zlarni shakl va ma'nosiga ko'ra tasniflaganlar. Shakliga ko'ra: *birleştirme* (birlashtirma), *türetme* (vujudga kelish), *yansıtma sözcük* (aks etuvchi so'z), *kısaltma* (qisqartma), *silme* (o'chirish), *ters argo* (teskari argo) kabi guruhlarga bo'lingan. Evfemizmlar ma'nosiga ko'ra: *zıt anlam* (zid ma'no), *mecaz* (majoz), *benzetme* (o'xshatish), *ima etme* (imo ishora), *kinaye* (kinoya), *abartma* (mubolag'a) kabi tasniflar qilingan.⁵⁷

Odil Ahmedov "Turkiy tillardagi tabu va evfemizmlar" nomli asarida evfemizmlarning yasaliş usullari; "evfemistik metaforalar, evfemiztik majoz, ironiya, olmoshlardan yasalgan evfemizmlar, evfemizmnı shakllantiruvchi

⁵⁵ Menderes Coşkun, Sözüñ Büyüsü Edebi Sanatlar, Dergah Yay., İstanbul 2007.– S.45.

⁵⁶ Üstüner Ahat, Örtmece sözlerle ilgili terimler: 2007.– S.4.

⁵⁷ Demirci Kerim, "Örtmece (Euphemism) kavramı üzerine", Milli Folklor, C. 10, S. 77, Ankara 2008.– S.30.

boshqa ta'sirlar deformatsiya, 3 nuqta, olingan so'zlar, hurmat ma'nosini ifodalovchi evfemizmlar" kabi tushunchalar tahlil etilgan.⁵⁸

Evfemizmlarning o'ziga xos xususiyati ularning doimiy o'zgarib turishidir. Evfemizm sifatida tilda qo'llaniluvchi evfemik so'zlar keyinchalik bu xususiyatini yo'qotib o'z ma'nosida qo'llanila boshlaydi va yangi evfemik so'zning shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi.

Evfemizmlarning doimiy o'zgarib turishi, tilning lug'at boyligini boyitadi, mavjud so'zlarga yangi mano yuklagani tufayli tilda ma'nodosh so'zlarning vujudga kelishini va so'zlarning "polisemantik" xususiyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.⁵⁹ Turk tilida evfemizm termini bilan ma'nodosh hisoblangan "*hüsnü tabir*" termini ham ishlatiladi.

Butun dunyo tillarida qabul qilingan "evfemizm" termini (nemischa euphemismus, fransuzcha euphemisme, inglizcha euphemism) yunoncha "eupheme" (yaxshi, xosiyatli so'z) o'zagidan paydo bo'lgan.⁶⁰

Turk lahjalarida "haristir til" kabi termini bilan qo'llaniladi. Turkiyada evfemizmlar eski davrlarda "*edebi kelam*", "*hüsnü tabir*", "*güzelleme*", "*asalet*", "*mumtaziyet*", "*güzel adlandırma*" kabi terminlar qo'llanilgan.

Hozirgi turk tilida evfemizm terminining haqiqiy turkcha qarshiligi "*örtmece sözler*", "*örtmece ifadeler*" terminlaridir.⁶¹

2.Tabu va evfemiyaning o'zaro aloqadorligi

Tabu so'zi Polinezyaning tonga tilidan olingan bo'lib, "man etmoq, taqiqlamoq" tushunchasini anglatadi. Biroq uning polinezya va melaneziya shevalarida qo'llaniladigan tapu, kapu, tambu kabi dialectal sinonimlari, man etmoq tushunchasi bilan birga zararli degan ma'nosi ham mavjud.

Tabu so'zi qadimgi rimliklarda soccer, greklarda ayoc, yevreylarda kadausch deb nomlangan. Tabu 2 xil ma'noda qo'llanilgan: birinchi ma'nosi, muqaddas, ilohiy; ikkinchi ma'nosi esa man etilgan, taqiqlangan, xavfli.

⁵⁸ Ahmedov Adil, *Türki Dilderindeki Tabu men Evfemizmder*, Almatı 1995.– S.11.

⁵⁹ Güngör Ahmet, "Tabu – örtmece sözler üzerine", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi*, S. 29, Erzurum 2006.– S.81.

⁶⁰ Aksan Doğan, *Her Yönüyle Dil Ana Çizgileriyle Dilbilim C. 3*, TDK. Yay., Ankara 1982.– S.100.

⁶¹ Coşkun Menderes, *Sözün Büyüsü Edebî Sanatlar*, Dergah Yay., İstanbul 2007.– S.188.

Qadimgi tabular har qanday asoslanganlikdan yiroqda bo'lgan. Kelib chiqishi noma'lumdir. Ular axloq taqiqlaridan farq qilgan, chunki ular mana shu taqiqlarni asoslab beruvchi ma'lum sistemaga mansub emas. Wundt, tabu insoniyatning eng qadimgi yozilmagan kodeksidir, deb ta'kidlaydi.

Tabuni buzish o'z o'zidan jazoni keltirib chiqaradi. Har xil ilohiy kuchlar, jin va ruhlarga ishonish, tabu buzilgan holatlarda ular tomonidan jazoni taqozo etadi. Boshqa holatlarda, jazo jamiyat tomonidan ham berilishi mumkin. Shunday qilib ilk jazo shakllari tabu bilan bo'g'liq bo'lgan. Tabuni buzgan inson o'zi ham tabuga aylanadi.⁶²

Tabu so'zi va tushunchasining o'z davrida yirik hududni egallagan Agilshin imperiyasi tiliga kirib kelishida, so'ngra xalqaro termin sifatida tarqalishiga, yer sharini kemada 3 marta aylanib chiqqan, 1768-1779-yillarda Tinch okeanining ko'pgina orollarini, Avstraliya yerlari va aholisining urf-odatlarini tadqiq qilgan, geografik kashfiyotlar ochgan, mashxur sayyoh, etnograf olim Jeyms Kuk (Kapitan Kuk) ning xizmatlari kattadir.

Bundan tabu tushunchasi – tabulash an'anasi XVIII asrlarda polinezyalarda kelib chiqqan ekan-da, degan xulosaga kelinmaydi, albatta.

Tabuning etnogenezisini, ya'ni qayerda, qachon paydo bo'lganligi, qaysi urug', qabila yoki xalqning udumi ekanligini aytib berish qiyin. Tabu ijtimoiy, tarixiy-etnografik hodisa bo'lib, til va tafakkur kabi qadimiydir. Uning ildizlari ibtidoiy ongning, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo'lishi, borliqning ilohiylashtirilishi (fetishizm), ruh tushunchasining paydo bo'lishi (animizm), ko'chib yurishi (reinkarnasiya), umuman totemik, mifologik tasavvurlarga borib taqaladi.

Ibtidoiy davrda – varvarlikning quyi bosqichlarida yuzaga kelib, odatga aylangan, biroq bora-bora jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'la boshlagan odamxo'rlik (kannibalizm), odamni qurbonlik qilish, yurak qonini ichish, qizlarni tiriklay ko'mish, er o'lsa, xotini va buyumlarini qo'shib ko'mish, marhumga tegishli ashyolarni qabr ustiga qo'ydirish (marhum o'zi bilan narsalarini ham olib ketadi ma'nosida), qonga qon, jonga jon olish, ota-bola,

⁶² Фрейд З. Табу и тотем. Москва. М 1960.– С.36-38.

ona-bola, aka-singil o'rtasidagi jinsiy aloqa, nikoh (endogamiya), ko'perlilik va ko'pxotinlilik (poligamiya, geterizm) kabi g'ayritabiiy, g'ayriinsoniy, g'ayriaxloqiy odatlar man etilgan (tabulashtirilgan).

Manaviyatni qaror toptirishning dastlabki shakli bo'lmish tabu, yangi ibtidoiy jamiyatda muayyan xatti-harakatlar va narsalarga tegish, iste'mol qilishni taqiqlashdir. Tabu jamiyatni ijtimoiy boshqarish, inson ruhini poklash, ijtimoiy nazariyani yo'lga qo'yishning tarixiy shakli bo'lgan. Masalan, uning yordamida, keksalar, xotin va bolalarni so'yib yeyish (kannibalizm) taqiqlangani, bunday yol tutgan odamlarga nisbatan jamoatchilik nafrati qo'zg'atilib, jazolangani, urug'dan chiqarib yuborilgani juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.⁶³

Tabularni xususiyatlariga ko'ra 2 guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Tildan tashqari omillar vositasida paydo bo'lgan tabular (etnografik tabular). Insonlar tarafidan qilinishi taqiqlangan ish, harakatlarga, ma'lum shaxslarga (qirol, afsungar, rohib, homilalik ayollar) qo'llanilishi mumkin bo'lmagan narsa-buyumlar bilan bog'liq bo'lgan taqiqlar.

2. Lingvistik tabular. Til vositalari orqali paydo bo'lgan lingvistik tabu faqat tushuncha va ma'noni taqiqlovchi chegara emas, balki o'sha tushunchaning tildagi nomlanishiga, ya'ni so'zga qo'yilgan taqiqlardir.

Birinchi holat ko'proq tarixchilar, etnograflar, ikkinchi holat tilshunoslarning o'rganish obyektidir. Tashqi tomondan ular o'rtasida bog'lanish yo'qday ko'rinsa-da, aslida bunday emas: etnografik tabu termini ostida tarixan shakllanib odatga aylangan, biroq ma'lum sabablarga ko'ra man etilgan ijtimoiy harakat, voqelik yoki odat tushunilsa, lingvistik tabu termini ostida ma'lum sabablarga ko'ra, voqelik yoki predmetning o'zi emas, uning nomini to'g'ridan-to'g'ri tilga olish man etiladi. Bundan tashqari, etnografik tabu lingvistik tabuning shakllanishiga bevosita sabab ham bo'ladi. Masalan, cho'chqa go'shti yeyish, aroq ichish odatining islomda man etilishi (etnografik tabu) bilan bog'liq nomlari ham to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmaydi. Masalan,

⁶³ Омонтурдиев Ж. Профессионал нутқ эвфемияси. Док.дис...2000.— Б.50.

Kadeh ichinde, deniz ichinde olduğundan daha çok kimse boğulmuştur. Qadah ichida, dengiz ichida bo'lganidan ko'p inson bo'g'ilgandir. Bu yerda kadeh (qadah) so'zi o'ziga xos ichkilik ramzi sifatida qo'llanilmoqda. Bu yerda jumla disfemik xarakterga ega bo'lsa ham, ammo ichkilik, mastlik kabi tabulashgan so'zlarni neytral ma'noli so'zga almshtirilganligi sababli evfemizm deb ayta olamiz.

Şarapla yazılan şey, cennette okunmaz. Sharob bilan yozilgan narsa, jannatda o'qilmaydi. Bu yerda ham sharob ichkilik ramzi sifatida qo'llanilgan. Mast holatda bajarilgan ish, amal jannatda oqlanmaydi ma'nosida qo'llanilmoqda.

Etnografik tabu asosan tarixiy-etnografik voqeliklarni, lingvistik tabu, asosan til hodisalarini, shu bilan bog'liq shakllangan evfemiologiya – uslubshunoslikni o'rganadi. Ushbu tushunchalar bir biridan uzilgan, alohida emas, ular etnolingvistikaning o'rganish obyektlaridir. Bu fan etnografiya, lingvistika va nutqshunoslikning shunchaki qo'shilmasi emas, balki yangi shakllangan yaxlit obyekt - bir butun fanning fazalaridir. Zotan, lingvistik tabu zaminida xalqlar tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, axloq-odobi, xulq-atvori, udumlari, ruhiy-psixologik, mifologik e'tiqodi, bir so'z bilan aytganga, dunyoqarashi – mentaliteti mujassam.

Har qanday etnografik tabu etnografik hodisadir. Masalan, tush ta'birlash-yo'llash (etnografik hodisa) vaqtida qo'rqinchli bo'lsa, tabulashtiriladi.

Aytish lozimki, har qanday etnografik hodisa tabuni keltirib chiqarmaydi. *Yatirlari ziyorat ederek adakta bulunma, çevrede tanınan hocalara muska yaptırma, Cuma namazından çıkanlara kilit açtırma, gelin ayakkabısının altına isim yazdırma.* Yotib qolgan insonlarni ziyorat qilganda ularga atab taom tayyorlash, atrofdagi tanilgan domlalariga tumor qildirish, juma namozidan chiqqanlarga qulf ochdirish, kelin oyoq kiyimining tagiga ism yozish.

Etnolingvist ma'lum darajada etnograf bo'lishi mumkin, biroq hamma etnograf ham lingvist bo'lolmaydi.

Tabu va evfemiya etnolingvistikaning o'rganish obyekti ekanligi va bu haqidagi ilk fikrlar dastlab I.T.Gerder (XVIII) va V.G.Gumbolt (XIX) dan

boshlangani bilan, u XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fan sifatida shakllana boshlagan.

Turk olimi, tilshunosi Abdulkadir Inan “tabu” termini sifatida “*tekinsiz*” soʻzini qoʻllagan⁶⁴.

I.S. Kon tabuni “diniy sanksiya bilan mustahkamlangan sotsial madaniy taqiq” deb belgilagan⁶⁵.

Tabuning lingvistik koʻrinishini L.Blumfeld⁶⁶ yozgan. U taqiqlashning uchta muhitini belgilagan:

1) Diniy atamalar. Koʻp tillarda, jumladan ingliz tilida *God, devil, heaven, hell* va boshqa atamalar faqat diniy nutqda qoʻllaniladi. Oddiy paytlarda ularning oʻrniga boshqa soʻzlar qoʻllaniladi. Turk tilida masalan, Xudo soʻzi oʻrniga koʻp hollarda 3 shaxs birlikdagi kishilik olmoshi qoʻllaniladi. *O büyüktür, O affedecidir.* Bu Xudoning nomlari muqaddaslashtirilganligi uchun, uni har yerda qoʻllayverish nooʻrinligi tufayli kelib chiqqan tabudir. Bundan tashqari qoʻrquv hisidan, har xil jin, ruhlar, shayton nomlari tabulashtirilishi ham mumkin. Masalan, ***Senin içinde üç harfli bir şey var. Sening ichingda 3 harfli bir narsa bor.*** Bu yerda 3 harfli soʻz cin (jin) soʻzidir. ***Iyi saatte olsunlar*** iborasi jin, parilar haqida gapirilganda qoʻllanildi. Ularning nomi tilga olingandan soʻng ushbu ibora “*bizga yomonliklari tegmasin*” degan maʼnoda qoʻllaniladi.

2) Beodob soʻzlar. Jamiyatda, nutqda qoʻllanilishi noqulaylik keltirib chiqaruvchi soʻzlar bilan bogʻliq tabular. Masalan, *orospu (fohisha)* soʻzini toʻgʻridan toʻgʻri qoʻllash beodoblik hisoblanadi. Ushbu soʻz oʻrniga baʼzan *eskort, fingirdek, oynak kadın, hayat kadını, ortalık kadın...*kabi evfemizmlar qoʻllaniladi.

3) Baʼzi mudhish kasallik yoki xavfli soʻzlar bilan bogʻliq tabu. Masalan, ***ölmek*** (*oʻlmoq*) soʻzi oʻrnida *ruhunu teslim eylemek, son nefesini*

⁶⁴ GÜNGÖR Ahmet, “Tabu – örtmece sözler üzerine”// Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, Erzurum 2006. – S.75-86.

⁶⁵ Kon, I.S. [A History of Classical Sociology](http://en.wikipedia.org/wiki/Igor_Kon).
http://en.wikipedia.org/wiki/Igor_Kon

⁶⁶ Блумфильд Л. Язык. М., 1968. – С.54.

vermek, vefat etmek kabi evfemik iboralar qoʻllaniladi. *Oʻlim bilan yakun topuvchi kasalliklarga esa alıcı, kötü hastalık, amansız bir hastalık* kabi evfemizmlar qoʻllaniladi.

Bizning zamonimizda taqiqlar asosan odob-axloq bilan bogʻliq. Masalan, turk tilida *xotiniga xiyonat qilmoq* “*karısını aldatmak*” ifodasi oʻrniga “*üstüne gül koklamak*” boshqa gulni *hidlamoq* kabi evfemik ibora ishlatiladi.

Turkcha izohli lugʻatda tabuga quyidagicha taʼrif berilgan: “Muqaddas hisoblangan baʼzi insonlar, hayvonlar, narsalar nomini aytish, ularga yaqinlashish taqiqlangan, aks holda zararli oqibatlarga olib keladi deb tushuniladigan diniy ishonch, taqiq koʻrinishida himoyalannuvchi narsa, soʻz, munosabat” deb taʼriflanadi.⁶⁷

Tabu mavzusi etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik, etnolingvistika kabi bilim sohalarning tadqiqot doirasiga kirgani uchun olimlarning eʼtiborini tortgan. Tabu zamonga bogʻliq boʻlib, “*davomiy*” va “*kechuvchi*” tabu sifatida 2 ga ajratiladi. Rohiblar, xoʻjayinlar, oʻliklar va bularga bogʻliq hamma narsa “*davomiy*” tabudir. “*Kechuvchi*” tabular esa ayollarning fiziologik davrlari, homilalik davri, urushga oʻtlanayotgan jangchining urush oldi va urushdan keyingi holati bilan birga ovchining ov oldi, ov payti va oxiri kabi holatlar bilan bogʻliqdir. Oldingi zamonlarda tabu sifatida qabul qilingan, nomini tilga olish taqiqlangan inson, hayvon, togʻ, dengiz, koʻllar nomlari keyinchalik tabulik xususiyatlarini yoʻqotishi mumkin. Madagaskarga ilk bor keltirilgan otlar, bir missioner tarafidan u yerga olib borilgan quyonlar, yangi oziq-ovqat va ichimliklar aholi tarafidan avval tabu sifatida qabul qilingan, keyinchalik esa tabulik xususiyatini yoʻqotgan.⁶⁸

Ibtidoiy odamlar davrida baʼzi soʻzlar tabu hisoblangan: Xudo nomlari, jin; hayvon, oʻsimlik nomlari; kasallik, oʻlim nomlari, tana aʼzolari nomlari va b. Qoʻrquv sababli ushbu tabu soʻzlardan muloqotda foydanilmagan, bu esa evfemizmlardan foydalanish ehtiyojini keltirib chiqargan. Taxminlarga koʻra,

⁶⁷, Türkçe Sözlük, TDK. Ankara, 2005.–S.49.

⁶⁸ GÜNGÖR Ahmet, “Tabu – örtmece sözler üzerine”// Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, Erzurum 2006. – S.78.

evfemizmlar irim-sirimlardan vujudga kelgan qarg'ish va so'zning sehr-u jodusidan qo'rqish ta'sirida, tabulardan kelib chiqqan. Bu esa o'z navbatida faqatgina hukmdorlar, qabila boshchilari foydalanishi mumkin bo'lgan ba'zi leksemalar taqiqini keltirib chiqardi. Insonning sehr-u joduga ishonishi turli xil duolar, issiq sovuq, irim so'zlarni keltirib chiqardi. "Evfemizatsiya – turli xil madaniy birlashmalar, tarixiy shakllanishlarga, ijtimoy qatlamlarga xos bo'lgan tilning o'ziga xos jihati hisoblanadi"⁶⁹. Natijada tabu ta'siridagi ibtidoiy irimlarbosqichida qadimiy evfemizmlar qatlami vujudga kela boshladi.

Tabu va evfemizatsiyani tadqiq qilgan ba'zi olimlar, turli xil xalqlarda ushbu hodisalar o'xshash ekanligini ta'kidlaydilar. Bu degani, ushbu hodisalarni nafaqat zamon balki makon ko'lamida universalialar sifatida o'rganish zarur. Jamiyatning bugungi kundagi taraqqiyot bosqichida turli xil tillardagi tabuning mavzu guruhlari o'xshashdir, ammo milliy madaniyat, tarix, ijtimoiy va iqtisodiy o'ziga xosliklar tufayli ba'zi farqliliklar bo'lishi mumkin.

Tabu dinamik hodisa hisoblanadi. D.Niman va K.Silver "Evfemizmlar tezaurusi" mualliflari evfemiya bilan bog'liq lingvistik o'zgarishlar, madaniy o'zgarishlar natijasidir, deb hisoblaydilar⁷⁰. Qadimda tabuning emotsional asosini qo'rquv tashkil qilgan bo'lib (diniy motivlar), keyinchalik axloqiy motivlar ustunlik qila boshladi.

Hozirgi kunda nutqda tabularni qo'rquv sababli emas, balki bu so'zlar ma'lum bir auditoriya tuyg'ularini haqoratlashi mumkinligi tufayli, ushbu ijtimoiy kontekstda noo'rin hisoblanganligi uchun qo'llanilmaydi.

Tabu va evfemizmlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular o'rtasidagi munosabat doim ham simmetrik emas. Tabu so'zni aytmaslik, paraevfemiya orqali ham ifoda etilishi mumkin. So'zni tushirib qoldirish tabuga xos bo'lgan so'zni taqiqlash bo'lib, u har doim ham yangi nomni, ya'ni evfemizmlarning hosil bo'lishini kafolatlamaydi. Ba'zan muloqotda tabulangan so'z tushirib qoldiriladi va uni almashtiruvchi so'zga ehtiyoj tug'ilmaydi.

⁶⁹ Кудрявцев А.Ю., Куропаткин Г.Д. Англо-русский словарь табуированной лексики и эвфемизмов. – С.65.

⁷⁰ Neaman J. S., Silver C. G. Kind words: a thesaurus of euphemisms. –New York: Facts On File, 1990. – P.150.

Paraevfemiya tabuni tildan tashqari vositalar, belgilar tizimi- jest, mimika orqali ifoda etishdir. Lekin, ko‘p hollarda tabu yangi so‘z orqali ifodalanishni talab qiladi. Tabu evfemiyasiz bo‘lishi mumkin, lekin evfemiya tabusiz bo‘la olmaydi.⁷¹ Ammo tilshunoslikda ushbu fikrga mutlaqo qarama-qarshi bolgan qarashlar ham mavjud. Xususan, R.A.Budagov tabuning paydo bo‘lishiga insoniyatning e‘tiqodi turtki bo‘lganligini va bu ma‘lum ma‘noda tafakkur rivojining asosi ekanligini e‘tirof etgani holda, evfemizm yuzaga kelishida muhim omil emas deb hisoblaydi. Chunki tabu boshqa sabablarga ko‘ra vujudga kelgan. Evfemizm esa nutqiy madaniyat yuzasidan aytish noqulay bo‘lgan vaziyatni yumshatish uchun qo‘llanadi. Masalan, aqlli bo‘lmagan insonning ko‘ngliga ozor bermaslik uchun u haqda *”he uzoʻbremet nopoxa”* deyilishini ta‘kidlaydi.⁷²

N.Ismatullayev⁷³, S.Altayevlar ham evfemizmlarni klassifikatsiyasini keltirib o‘tganlarida, “Tabuga asoslangan evfemizmlar” deb alohida bo‘lim sifatida ajratganlar. Bundan tabusiz qo‘llanila oladigan evfemizm guruhlari ham mavjud, degan fikr kelib chiqadi. Vaqt o‘tishi bilan tabu tushunchasi kengaygan, hozirgi kunda evfemizatsiyaning ijtimoiy motivlariga ham o‘ziga xos tabu sifatida qaraladi.

Tabu o‘ziga xos individuallik xususiyatiga ega bo‘lgan hodisadir. Bu so‘zlovchining muloqot vaziyatiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. J.Holderning majoziy ta’rifiga ko‘ra, “Erkak kishi uchun evfemizm bo‘lgan narsa, ayol kishi uchun disfemizm sanaladi”. Demak, tabu va evfemizmi gender xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish mumkin.

Tilshunoslikda tabu va evfemizmlar turli tillar doirasida o‘rganilgan. Har bir tilda taqiqlangan leksika sifatida tabu qo‘llanilib kelsada, tabuning insoniyat tarixida qachon vujudga kelgani haqida aniq fikr, tasavvurlar yo‘q. Evfemiya tabu vositasida vujudga kelgan dinamik hodisa hisoblanadi.

⁷¹ Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия. - Л.: ЛГПИ, 1989. – С.38.

⁷² Будагов Р.А Филология и культура. М 1980.– С.300.

⁷³ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дис...канд.филол.наук. Т.1963.– С.10.

3. Tabu va evfemizm evolyutsiyasi

Evfemik ma'noni mezonlash uning evolyutsiyasini tarixiy jarayonlar (bosqichlar) bilan bog'lab o'rganishni taqozo qiladi. Biroq masalaning bu tomoni murakkab. Chunki, ibtidoiy tilda paydo bo'lgan evfemalarni urug' tilining yoki ibtidoiy jamiyat a'zolarining muomala mahsuli emas, deb qarash to'g'ri bo'lmaydi yoki buni isbot qilish qiyin. "Ibtidoiy tilni tarixdan ham, yozuvlardan ham, grammatikadan ham topish mumkin emas"⁷⁴.

Faktlar shuni ko'rsatadiki, dunyo tillaridagi mavjud tabulashtirish jarayonini, uni maydonga keltirish sabablariga ko'ra dastlab diniy, so'ngra dunyoviy tushunchalar asosida ro'y bergan va shu bilan bog'liq qo'llanilgan vositalarni diniy va dunyoviy tushunchalar bilan bog'liq tug'ilgan evfemizmlar deb ikki yirik guruhga ajratish mumkin.

Bu evfema evolyutsiyasini o'rganishda ahamiyatlidir. Biroq dunyoviy va diniy evfemizmlarning farqlarini aniqlash ham qiyinlashib qolgan. Chunki aslida diniy qarash asosida tug'ilgan evfema tilning keyingi taraqqiyotida dunyoviydashib, oldingi ma'nosi sezilmaydigan bo'lib qolgan. Masalan, *Ölmek-namazi kılınmak, can vermek, ömür defterini kapatmak, adres değiştirmek...*

Diniy va dunyoviy evfemani ma'lum tarixiy bosqich yoki sotsial sinf, tabaqa bilan bog'lash, masalan, diniy evfema ibtidoiy, quldorlik, feodalistik jamiyatning; dunyoviy evfema kapitalistik yoki sotsialistik jamiyatning mahsuli deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki qabila (quldorlik jamiyati) tilida qo'llanilgan so'z va iboralar, shu jumladan, evfema xalq, millat tillarida (feodalistik, kapitalistik yoki sotsiolistik jamiyat a'zolari nutqida) ham mavjud.

Tabu va evfemizm qo'llash vositalari ham til va jamiyat taraqqiyoti bilan birga taraqqiy etadi, eskiradi, iste'moldan chiqadi; o'rnida yangi evfemik vositalar shakllanadi. Ya'ni, ba'zi evfemik vositalar davr o'tishi bilan eskirib, o'zi bog'langan tabu tushunchaning, beozor ifodasi bo'lib qolmaydi. Natijada, birinchi evfemik vosita o'rnida yangi- eshitilishi yanada qulay bo'lgan evfema paydo bo'ladi. Bitta tabu tushunchaning qayta qayta evfemalashtirilishi birdan ortiq evfemaning shakllanishiga olib keladi. Masalan, "nogiron" so'zini olsak.

⁷⁴ Шарль-де Броссе.Первобытный язык.- Париж 1871. – С.19-27.

“Nogiron” so‘zi sifatida turk tilida *sakat* so‘zi qo‘llanilgan. Ammo bu so‘zni jamiyatda (xususan katta ommada) qo‘llash tabulashtirilganligi sababli, keyinchalik *özürlü* (uzurli) evfemizmi bilan almashtirilgan. Bu evfemizm ham vaqt o‘tishi bilan evfemistik xususiyatini yo‘qotib uning o‘rniga hozirgi kungacha qo‘llanilib keluvchi *engelli* (imkoniyati cheklangan) evfemizmi qo‘llanilmoqda.

Tabu tushunchasining bu borada rivojlanishini tahlil qilish qiyin. Chunki ushbu tushunchani insoniyat tarixida qachon va nima sababdan vujudga kelganligi haqida aniq fikrlar yo‘qligi, ushu hodisaning rivojlanish, o‘zgarish xarakterini yoritishga qiyinchilik tug‘diradi. Qadimgi tabularni dinning ibtidoiy shakllari bilan bog‘lagan holda, ularni qo‘rquv motivi asosida vujudga kelganini aytdik. Masalan, Miya funksiyasi buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan *epilepsiya*, *sara* (tutqanoq) kasalliklari xalq orasida jindan va sehr-u jodudan paydo bolgan kasallik deb ishoniladi. Ushbu kasallik uchun quyidagi evfemizmlar qo‘llaniladi: *al basma*, *bayılma*, *cin carpması*, *dışarlık*, *eser ~ eserge*, *koyanavrul*, *tutalga ~ tutak ~ tutalık ~ tutar ~ tutarak ~ tutarı ~ tutarık*, *uğrak*, *yellenme*.

Ammo keyinchalik vujudga kelgan tabular, hozirgi kunda qo‘llaniladigan tabular albatta, qo‘rquv emas, balki ijtimoiy motivlarga ega bo‘lgan tabulardir. Masalan, ***Kimsesiz çocuklar, devletin himayesinde. Onların tüm ihtiyaçları karşılanıyor. Hech kimi yo‘q bolalar davlat himoyasidadir. Ularning barcha ehtiyojlari davlat tomonidan e‘tiborga olinadi.*** Bu yerda qo‘llanilgan *kimsesiz çocuklar* (hech kimi yo‘q bolalar) evfemizmi yetim so‘zi o‘rniga qo‘llanilgan. Ushbu so‘z noo‘rinligi tufayli, ushbu so‘z bilan assotsiatsiyalar keskinligi tufayli uning o‘rniga yumshoqroq shaklga ega bo‘lgan evfemizm qo‘llangan.

Bundan tashqari tabu, individual xarakterga ega bo‘lgani tufayli, (buni yuqorida ham ta’kidlab o‘ttik) uni nutq jarayonida o‘zgarib borish yoki paydo bo‘lishini qoliplashtirib bo‘lmaydi.

Inson nutqi uning ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik beozor, nozik ma’no ifodalamasin, tabulashtirilgantushunchalarning salbiy mohiyatini butunlay yopolmaydi, xotiradan bartaraf qilolmaydi. Boshqacha aytganda, aytilishi uyat yoki noxush voqelik - tushuncha o‘zini namoyon

qilaveradi. Masalan, *zorlamak*(zo‘rlamoq) so‘zi o‘rnida qo‘llaniluvchi *namusuna dokunmak, dokunmak, zorla sahip olmak* evfemalari o‘sha uyat so‘z va u orqali anglashiladigan tushunchani xotiradan bartaraf qilolmaydi. Shu bois ham yangi yangi evfemalar qo‘llashga ehtiyoj borgan sayin kuchayib boraveradi.

4. Evfemizmlarning yondosh tushunchalar bilan munosabati

Tadqiqodchilarning fikriga ko‘ra evfemizmlar, sinonimiyaning qo‘llanilish (realizatsiya) shakli hisoblanadi. So‘zlovchi uchun noqulay bo‘lgan tushunchalarni almashtirib nomlab keluvchi so‘z yoki so‘z birikmasi evfemizm ekanligi haqida yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Lekin evfemizm so‘zlarning mutlaq sinonimi hisoblanmaydi, u kontekstual asosga ega sinonimdir. M.Muhammadiyev ta’kidlaydiki, har bir tilning lug‘at tarkibining rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqadi⁷⁵. Umumiy olganda, tilda qo‘llaniluvchi so‘zlarning sinonimik qatorida evfemizmlarning o‘rni sezilarlidir. Stilistik xususiyatlariga ko‘ra, evfemizmlar obrazlilik va stilistik qo‘llanilishi, nutqga yuqori darajada emotsionallik berishi bilan oddiy sinonimlardan farq qilsa-da, sinonimiyaning rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Turk tilida evfemizmlar orasida muhim o‘rinni xuddi evfemizm-so‘zlar singari semantik, stilistik va emotsional funksiyalarni bajaruvchi frazeologizmlar egallaydi. O‘zaro shaxsiy, emotsional va psixologik munosabatlarni ifoda etishda ularning o‘rni muhim hisoblanadi.

4.1. Evfemizm va sinonimlarning o‘zaro munosabati

Tabulashtirilgan nutqiy obyektlarni tasvirlash uning evfemik vositalarini aniqlashga imkon beradi, ya’ni bir tabu tushuncha bir va undan ortiq evfemik sinonimlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi va sinonimiyaning boyib borishi uchun tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sinonimiyaning o‘rganish, xususan, uning til sathiga munosabati, shu bilan bog‘liq tasnifi masalasi hali o‘z yechimini topmagan. Ya’ni, sinonimlar til sathlari materiallariga (leksik, morfologik, sintaktik birliklarga) asoslanib

⁷⁵ Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти//ТошДПИ илмий асарлари, 1964. – Б. 3-12.

o'rganilgan va shu nomlar bilan turlarga ajratilgan. Bu jarayon biror tushuncha yoki voqelik (denotat) ning tasviriga bog'liq bolgan majoziy ma'noli (konnotat) sinonimlarning leksik lug'atlardan tashqarida qolishiga sabab bo'lgan. Mana shu masala ayrim tishunoslarni, jumladan, Hakimjon Shamsuddinov e'tiborini jalb etgan. U: 1) sinonimiya hodisasi intralingvistik tarzda o'rganilganligi, ekstralingvistik omillarga yetarli e'tibor berilmaganligi; 2) mazkur masala nomlash bilan bog'liq o'z tahlilini topmaganligini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, funksional-semantik sinonimlar,-deydi muallif,- bosh tushunchani (denotatni) qayta nomlab, uni ekspressiv ifoda vositalari bilan boyitishni, ma'lum ma'noda leksik sinonimlar ustiga qatlamlangan sinonimiya sifatida baholanishi kerakligini ham uqtirgan⁷⁶.

Demak, evfemik sinonimlar ham tilning muayyan sathida "yashamagan"ligi, funksional-semantik metod asosida ish ko'rilganligi uchun semantik-funksional sinonimiya kategoriyasiga kiradi.

Evfemik vositalar bosh (denotat) tushuncha bilan bog'liq tematik va izohli lug'atlar tuzish imkonini beradi. Bunda sinonimiya qatorlarining har biri nutqiy qimmati, funksiyasiga ko'ra baholanadi.

Evfemik sinonimlarning shakllanishi, xarakteri yoki umuman nutqiy qimmati bir xil emas. Ular ko'p hollarda denotat (tabu) tushunchaning musbat, ba'zan esa ham musbat, ham manfiy konnotat (qutb)lardan hosil bo'ladi. Bunda subyektning voqelikka bo'lgan munosabati asos bo'ladi.

Sinonimlarning funksiyalari ushbu tildagi hodisalarning ta'rifida tasvirlanadi. Shunday qilib sinonimlar borliqdagi bir hodisani uning eng kichik jihatlarigacha tasvirlashga xizmat qiladi. Ushbu funksiyalar asosan semantik nuqtayi nazardan tavsiflanadi. Ammo nutq, stilistik stratifikatsiyalarga ham uchraydi.⁷⁷ Shunday qilib, semantik funksiyalari bilan birlikda stilistik funksiyalarga ham egadir. Sinonimlarga nisbatan ushbu funksiyalarni birgalikda ko'rish zarur. A.P Evgenyeva ideografik va stilistik sinonimlar orasida aniq bir

⁷⁶ Шамсуддинов Х. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари// Ўзбек тили ва адабиёти.-1995.- Б.65-69.

⁷⁷ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. Автореф.дис...д-ра филол.наук. Л, 1977.- С.5.

chegara o'tkazib bo'lmaydi, chunki sinonimlarning ko'p qismi stilistik va semantik (bo'yoqdorlik, aniqlashtirish) maqsadlari uchun xizmat qiladi va 2 funksiyani bir vaqtning o'zida bajaradi.

Leksikaning evfemistik birliklari semantika va stilistikaning birlashishiga yaqqol misol bo'la oladi.⁷⁸

Evfemizmlar odatda tabulangan sferaning predmet va hodisalarni bilvosita nomlab keluvchi so'zlar hisoblanadi, ularning asosiy funksiyasi borliqdagi ba'zi jarayonlarni chiroyli ko'rsatish va ifoda etishda yumshatishdir. Stilistika nuqtayi nazaridan evfemizmlar nutqga rasmiy, kitobiy ma'no qirralarini beradi.⁷⁹

Shakliga ko'ra evfemizmlar ko'pincha so'z birikmalari shaklida bo'ladi. Masalan,

Ölmek- *dünyaya veda etmek, ebediyete göcmek, can borcunu ödemek*(jon qarzini to'lamoq), *ruhunu teslim etmek, dünyaya gözlerini kapamak, gözlerini yummak*.

So'z birikmalari bilan bir qatorda, evfemizmlar alohida so'zlar bilan ham ifodalanadi, ular esa o'z navbatida sinonimiya hodisasini o'zida aks ettiradi. *Dedikoducu, yay-sat, hürriyet, taşıyıcı* kabi sinonimlar g'iybatchi ma'nosida qo'llaniladi.

Sinonimlarning evfemizmlar bilan aloqasi, denotatsiya nuqtayi nazaridan o'xshash, konnotatsiyasi bo'yicha har xil so'zlarning o'z qatoriga qo'shilishi orqali ifodalanadi. Shunday qilib, aniq salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan dominant so'z evfemistik qatorda neytrallashishi mumkin. Masalan, sharq oilalarida islom diniga e'toqod qiluvchi oilalarda jinslar o'rtasidagi munosabatga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladilar. Qiz va yigitning to'ydan oldin, nikohsiz munosabatda bo'lishi qoralanadi. Ushbu munosabatlar turk tilida *dost tutmak, flört, uçkur çözmek, kaçamak, işi pişirmek, zina yapmak, kabahat* kabi evfemistik sinonimlar bilan ifodalanadi. Ushbu qatordagi sinonimlardan *dost tutmak* iborasi boshqa o'ziga sinonim bo'lgan evfemizmlar qatorida neytrallashgan. Yoki *kilo almak, kilolu* (semirmoq, ortiqcha vaznli) kabi so'zlar

⁷⁸ Евгеньева А.П. Тропические окказионализмы. М, 1982.– С. 199.

⁷⁹ Шумелев Д. Н. Слово и образ. М, Наука. 1969.– С.39.

şişman, şisko, yağ bağlamak, yağ tulumu kabi sinonimlar qatorida neytrallashgan.

Ushbu qatordagi barcha soʻzlarning salbiy maʼno qirrasiga ega ekanligiga qaramay, nutqda yumshatish maqsadida soʻz tanlashda, baʼzi soʻzlar boshqalariga qaraganda yumshoqroq tuyuladi. Shunday qilib, sinonimlarning evfemistik funksiyasi salbiy maʼnoni yumshatish orqali sinonimik qatordagi soʻzlardan eng neytralini qoʻllashda namoyon boʻladi.

Evfemizmlarni sinonimik tabiati haqida gapiradigan boʻlsak, ular kontekstual sinonimlarga juda yaqindir. Yaʼni maʼlum bir kontekstda qoʻllanilgan evfemizmlarni faqat oʻsha kontekstda sinonim deb olish mumkin. Chunki matndan tashqari ushbu soʻzlarning maʼnosi har xil boʻlishi mumkin. Evfemizmlarni sinonimlardan farqli yana bir eng muhim jihati mavjud, evfemizm asosini tabu tashkil qiladi, agar evfemizm asosida tabulangan tushuncha boʻlmasa, ushbu soʻz evfemistik xususiyatini yoʻqotadi. Masalan, turk tilida *inançsiz kimse* (eʼtiqodsiz inson) soʻzi oʻrnida *kitapsiz, ataist* kabi evfemizmlar qoʻllaniladi. Bu yerda eʼtiqodsiz inson tushunchasi tabulashtirilgan. Ushbu soʻzni hamma yerda ham qoʻllay olmaysiz. Masalan, *fedakar (fidokor)* soʻzi oʻrnida *esirgemez, özverili, özgeçili* kabi soʻzlarni qoʻllaganimizda, ushbu sinonimlarni evfemizm deb ayta olmaymiz. Chunki ular ifoda etayotgan tushuncha tabu emas, tabu albatta koʻpincha salbiy maʼnoga ega soʻzlar hisoblanadi (ijtimoiy tabular). Yoki *egoist, bencil* kabi sinonimlar. Ular salbiy tushunchani ifoda qilishiga qaramay, tabulashtirilmagan, birini oʻrniga boshqasini qoʻllash mumkin.

4.2. Evfemizm va maqollarning oʻzaro munosabati

Madaniyat rivojlanishining ilk davrlariga xos boʻlgan predmet va uning nomi oʻrtasidagi tabiiy bogʻliqlik haqidagi tasavvur, soʻz sehr-u jodusi va tabu yaʼni, maʼlum predmet va hodisalarning nomlarini (Xudo nomlari, ruh, shayton, oʻlim, kasallik, baʼzi hayvonlar, odam tana aʼzolari nomlari) taqiqlashni keltirib chiqardi. Tabu va evfemizmlarning boyligi nafaqat ularning keng miqdoriy tarkibiga ega ekanligida, balki uning semantikasining kengligi va uslubiy sifatining xilma-xil ekanligidadir. Bugungi kungacha tabulashgan leksika

evfemizatsiyasining usullari har xil olimlar tarafidan turlicha tasnif qilingan. Shunday tasniflardan eng to'liq va batafsil sifatida V.P. Moskvinning klassifikatsiyasini aytib o'tish mumkin. V.P. Moskvin⁸⁰ evfemizatsiya usullarini sanab o'tar ekan, maqol va iboralaridagi evfemizatsiya hodisasini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Maqol va iboralar kabi evfemizmlar ham til universalialari bo'lgani uchun, bu til birliklari o'zaro munosabatga kirishadilar. Xuddi maqollar singari tildagi evfemizatsiya hodisasi lingvovomamlakatshunoslik va lingvokulturologiya uchun shubhasiz qiziqarli mavzudir. Maqollar ham, evfemizmlar ham xalqning o'ziga xos xususiyatlarini, turmushni o'ziga xosliklarini aks ettiradi, xalqning urf-odatlarini uning folklori, madaniyati va tarixini ifodalaydi, avloddan avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi. Har bir maqol va evfemizmlarning lingvokulturologik nuqtayi nazardan kelib chiqishi va qo'llanilishi ma'lum bir xalqning, etnosning tarixi, uning madaniyati, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liqdir.

Maqollar tildagi hodisa sifatida evfemizmlar kabi universal bo'lib, u ko'pgina dunyo tillarida mavjuddir.

Maqollar va evfemizmlar o'zaro bog'liqdir. Maqollarning o'xshashlik va farqliligini, umumiylik va ramziy asoslarini o'ziga xosligi nuqtayi nazardan tadqiq qilar ekanmiz, ma'lum bir xalqning turmushi, udumlari va urf- odatlarini aks ettiruvchi mintaqaviy xususiyatlari, realiyalariga asoslangan holda ramziy obrazlar tanlanishini tushunishimiz mumkin. Masalan:

Gül dikensiz olmaz. Dunyodagi barcha go'zallik kamchiliksiz bo'lmaydi. Hamma narsaning, har kimning bir kamchiligi bor ma'nosida qo'llaniladi.

Fukaranın düşkünü, beyaz giyer kış günü. Kambag'al insonning puli bo'lmaganligi uchun u mavsumga ko'ra kiyin olmaydi. Nochorligni ifoda qilish maqsadida qo'llaniladi.

Avrat var ev yapar, avrat var ev yıkar. Oilani ayol kishi boshqaradi. Ba'zi ayollar oilaga baxt, ba'zilari esa baxtsizlik keltiradi. (baxtsizlik keltiruvchi ayollarga ishora qilinganida evfemizmlar bo'la oladi)

⁸⁰ Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. - 2001. - № 3. – С.58-70.

Zamonaviy paremiologiyada maqollarni o'rganishda ilk bor V.Permyakov tarafidan asoslab berilgan mantiqiy semiotik (logikosemiotik) yondashuvga ko'ra, maqollar tahlilida asosiy e'tibor ularning ramziy asosiga emas, balki ular ifoda etuvchi aniq bir holatga qaratiladi. Masalan, "har kim uyida ko'rganini qiladi" gapiga, o'zbeklarning "*Qush uyasida ko'rganini qiladi*", turklarning "*Ağaca çıkan kecinin dala bakan oğlağı olur*", ruslarda "*Яблоко от яблони не далеко падает*" kabi maqollari to'g'ri keladi. Aynan biror yomon ish qilgan insonning, bu harakati uning oilasi, yashash sharoiti bilan bog'liq ekanligiga, qaysidur yomon xislati otasiga yoki onasiga o'xshashligiga ishora qilingan holatlarda ushbu maqollar evfemizm bo'la oladi. Bu yerda tanlangan ramziy obrazlarning har xil ekanligiga qaramay, umumiy bir holat uchun qo'llaniladigan maqollarni ko'rishimiz mumkin. Yuqorida evfemizatsiyaning usullaridan biri bu maqollar, dedik, shundan kelib chiqqan holda, evfemizmlar ham tipik umumbashariy ahamiyatga ega, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu evfemizmlar semantikasiga ko'ra tabulangan evfemizmlarga o'xshamaydi, ya'ni ular ifodalayotgan tushunchalar yoki holatlar qandaydir qo'rquvga asoslanmagan.⁸¹(Bu holat yuqorida ham qayd etildi)

Hozirgi zamonaviy jamiyatda qo'llaniluvchi tabular, ushbu so'z keltirib chiqaruvchi yomon oqibatlar bilan bog'liq qo'rquvga asoslangan tabular emas, balki ma'lum bir ijtimoiy kontekstda noo'rin, ma'lum bir auditoriya uchun nohush bo'lgan so'z va iboralar tushuniladi.⁸²Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, maqol ko'rinishida qo'llanilgan evfemizmlar ma'lum bir ma'noda tabuga asoslangandir.

Bu esa maqollarda uchraydigan evfemizatsiya hodisasini uslubshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishini taqozo etadi. Mana shunday o'ziga xos funksional evfemizm sifatida qo'llaniluvchi maqollarni nutqimizda qo'llash nutq madaniyatini va umuman ushbu tilda so'zlashuvchi aholi madaniyatini

⁸¹ Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия. - Л.: ЛГПИ, 1989.- С.79.

⁸² Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале современного английского языка): Автореф. дис. канд. филол. наук. - Нижний Новгород, 1998.- С.7.

yuksaltirishga yordam beradi. Savol tugʻiladi: aynan qanday maqollar evfemizm xususiyatlarini namoyon etadi? Buni aniqlashimiz uchun paremiologik lugʻat bilan ishlash zarur boʻladi. Paremiologik lugʻatda har bir maqolning izohi, etimologik va ensiklopedik maʼlumoti beriladi, shu bilan birga har bir maqolga uslubiy baho, situativ va kontekstual xarakter berib oʻtiladi. Rus paremiologik leksikografiyasining yutugʻi bu lingvomamlakatshunoslik lugʻatini yaratilishi boʻldi. Ushbu lugʻat maqollarda aks etgan tilning milliy madaniy semantikasini oʻrganishga va xususan, maqollardagi evfemizatsiya jarayonini koʻrsatib berishga yordam berdi.

4.3. Evfemizm va iboralarning oʻzaro munosabati

X.Madjitov, evfemistik frazeologizmlarda aytilayotgan predmetning ijobiy xarakteristikasi, muloyimlik, xushmuomalalik va boshqalarning emotsional munosabatlari ifoda etadi, deb taʼkidlaydi. Frazeologik birliklar maqol, topishmoq, hikmatli soʻzlar singari xalqning tajribasi, dunyoqarashini ifodalab keladi. Masalan, *Ağır söz*- odamning koʻnglini ogʻritadigan soʻzlar, haqorot. *Dili uzun*- gap qaytaradigan. *El etek öpmek*- hurmat koʻrsatish maʼnosida. *Ali Cengiz oyunu*-Ayyorlik, hiylalik bilan bir ishni qilish. *Akıl hocası*-bir insonga yoʻl koʻrsatib maslahat berish; aql oʻrgatish(salbiy maʼnoda) *Ateş almaya gelmek*-Kelgan joyidan tezda ketishga harakat qilgan insonga aytiladigan ibora.

Evfemistik frazeologizmlarning stilistik imkoniyatlari keng boʻlib, ular yordamida badiiy asar tili chiroyli va koloritli boladi. Masalan, ***Zaurun kara gün dostu olduğunu bütün arkadaşları bilirdi. Zaurning qiyin paytlar doʻst ekanligini hamma bilar edi. Kara gün dostu*** falokatli, qiyin bir holatlarda doim yonida boʻluvchi insonlarga nisbatan aytiladi.

Umumiy olganda badiiy adabiyot tilini evfemistik frazeologizmlarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi, ulardan, shuningdek, asar qahramonlarining xarakterini ochib berish uchun ham foydalaniladi. ***...Sen Tehminenin yanında dağda büyümüş birisine benziyorsun. Sen Tahminaning yonida togʻda katta boʻlgan insonga oʻxshaysan.*** Ushbu gapdagi ***dağda büyümüş*** (togʻda ulgʻaygan) iborasi qoʻpol, madaniyatsiz kabi maʼnolarda qoʻllanilgan. Ushbu gapni

aytayotgan asar qahramoni togʻridan-toʻgʻri soʻzni aytmay, oʻz fikrini ushbu evfemistik ibora orqali ifoda etgan. Bu bilan oʻzining tarbiyali, madaniyatli ekanini koʻrsatib berishga harakat qilgan va aksincha murojaat qilayotgan shaxsning ham qaysidur maʼnoda sifatlarini ochib bergan. Ushbu misoldan koʻrinib turibdiki, evfemistik frazeologik birliklar majoziy frazeologizmlarga kiradi.

Dj. Eytoning eng mashhur «Dictionary of Euphemisms» evfemizmlar lugʻati tahlili shuni koʻrsatdiki⁸³, lugʻatlarda koʻrsatib oʻtilgan evfemizmlarning aksariyati frazeologizmlardir. Ularni frazeologik evfemizmlar deb nomlashimiz mumkin.

Frazeologik evfemizmlar bir soʻz-evfemizmlarga qaraganda koʻproq qoʻllanilib, ular keng semantik imkoniyati bilan xarakterlanadi. Frazeologik evfemizmlar evfemistik qayta nomlashning ifodali usuli hisoblanadi, yaqqol namoyon boʻluvchi baholash, ekspressiv va funksional-stilistik komponentlari bilan farq qiladi, til sohibining umummilliy qadriyatlar tizimiga nisbatan emotsional-baholash munosabatini yanada majoziy tarzda namoyon qilish uchun xizmat qiladi. Jamiyatning madaniy-tarixiy tajribasini aks ettiradi, jamiyatda oʻrnashishi mumkin yoki taqiqlangan tushunchalar, boshqa bir nom talab qiluvchi hodisalar haqidagi tasavvurlar dunyoning milliy koʻrinishini shakllantiruvchi vositalar sifatida koʻrilishi mumkin.

Frazeologik evfemizmlarning oʻziga xos jihati shundaki, frazeologizmni tashkil qiluvchi turli xil leksik komponentlarni umumiy belgi funksiyasi boʻlib, ifoda etilayotgan hodisaga butunlik bilan yoʻnaltirilganlikni amalga oshiradi.⁸⁴ Shuningdek, frazeologizmning oʻziga xosligi madaniy komponentlari turmush tarzi xarakteri, ijtimoiy yukni oʻzida mujassam qilgan aspektlar orqali namoyon boʻlishidadir. Frazeologizm asosida yotuvchi majoziy metafora xalq madaniyatining turli xil obyekt va hodisalari bilan analogiya oʻtkazishga imkon beradi.

⁸³ Ayto J. Dictionary of Euphemisms. Bloomsbury, Britain, 2000.— P.250.

⁸⁴ Левинтова Э.И., Вольф Е.М. О связи фразеологии с системой языка// Просвещение. 1967.— С.65.

Frazeologik evfemizmlarning qo'llanilishi tahlili shuni ko'rsatdiki, frazeologik evfemizmlarni to'g'ridan to'g'ri nomlashni almashtirish xarakteri asosida 2 ga ajratishimiz mumkin: turmush bilan bog'liq frazeologik evfemizmlar va ijtimoiy frazeologik evfemizmlar. Turmush bilan bog'liq evfemizmlar inson uchun muhim bo'lgan mavzularni tabulashtirish davriga borib taqaladi, bunda ushbu evfemizmlarni qo'llashni asosiy maqsadi nutqdagi noxushlikni axloqiy-etik jihatdan yumshatish bo'lgan. *Kötü hastalık, amansız bir hastalık*- o'lim bilan yakunlanuvchi davosiz kasallik; *canına kıymak*-o'zini o'zi o'ldirmoq; *bir yastığa baş koymak*-bir yostiqa bosh qo'ymoq (birga bo'lmoq); *hamile, ağır ayaklı, iki canlı, üzeri yüklü, üzerli* - homilador ayol. Oldingi zamonda ko'p insonlarning o'limiga sabab bo'lgan epidemik kasalliklar hozirgi davrga kelib, zamonaviy tibbiyot nazorati ostiga olingan.⁸⁵ Bu kasalliklardan biri verem sil kasalligidir. Sil kasalligidan o'lgan insonlarga *ince hastalıktan öldü* deyilgan. Yosh chaqaloqlarda D vitamini tanqisligi bilan bog'liq, bolani bezovta bo'lishiga sabab bo'lgan *rasitan*(rahid) kasalligi xalq orasida "*değistirme*" (o'zgartirish) evfemizmi bilan qo'llaniladi. Shayton bolani o'zgartirganiga ishoniladi. Shuning uchun shaytonni xonadan yo'qotish uchun bolaning xonasiga qizil go'sht yoki supurgi qo'yilar ekan.⁸⁶

Turmush bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlar nutqni axloqiy jihatdan yumshatish, ushbu jamiyatda to'g'ridan to'g'ri nomlash noxushlikni keltirib chiqaruvchi qo'pol nomlar. Ushbu guruh evfemizmlariga jinslar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, oila, uy, kasallik, o'lim va boshqalar kiradi.

Ushbu tipdagi frazeologik evfemizmlar inson hayotini intim, oilaviy sohada va har kungi faoliyat sohasida tasvirlaydi. Ijtimoiy frazeologik evfemizmlar borliqni bezab ko'rsatib, salbiy harakat yoki hodisalarni tasvirlashni yumshatish maqsadida qo'llaniladi. Ijtimoiy evfemizmlar nutqda politkorrekt evfemizmlar ko'rinishida mavjud bo'ladi. Politkorrekt evfemizmlar suhbatdoshni xafa qilib

⁸⁵ Ayşe Tekin, *Sağlık-Hastalık Olgusu ve Toplumsal Kokenleri (Burdur Orneği)*, Suleyman Demirel Universitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sosyoloji Anabilim Dalı Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Isparta, 2007.— S.50.

⁸⁶ Abdulkadir İnan, *Tarihte ve Bugün Şamanizm, Materyaller ve Araştırmalar*, Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara, 1986.— S.171.

qo'yish qo'rquvi yoki ushbu holatdagi so'zlashuv normalariga amal qilish zaruratidan yuzaga keladi. Masalan, 1960-yilga qadar g'arbga kirmagan mamlakatlarni "*az gelişmiş ülkeler*" kam rivojlangan davlatlar, keyinchalik ushbu termin "*gelişmekte olan ülkeler*" evfemizmi bilan almashtirilgan. Ijtimoiy frazeologik evfemizmlarga siyosat, diplomatiya va harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu evfemizmlar asosan publisistik matnlarda ko'p uchraydi, ular mashhur bo'lgan harakat, so'z va iboralarni ma'nosini kamuflyaj⁸⁷ qilish vositasida, boshqa yumshoqroq ifodalar orqali ma'lumotni yetkazib beradilar. Masalan, ***Hükümet olarak, engellilerin karşılaştığı sorunların çözümü için var gücümüzle çalışıyoruz, engelli vatandaşlarımızı hak ettikleri hayat şartlarına kavuşabilmeleri için pek çok reform yaptık. Hukumat sifatida, nogironlar muammolarini yechimi uchun bor kuchimiz bilan ishlayapmiz, nogiron vatandoshlarimizni ular loyiq bo'lgan yashash sharoitlariga erishishlari uchun bir qancha reformalar o'tkazdik.*** Bu yerda ***engelli*** so'zi evfemizm hisoblanib, u ***sakat*** so'zining o'rniga qo'llanilgan. ***Engelli*** so'zi imkoniyatlari cheklangan ma'nosida qo'llanilib, ma'lum auditoriya his-tuyg'ularini haqoratlamaslik uchun qo'llanilgan.

Frazeologik evfemizmlar tadqiqot uchun qiziq bo'lgan mavzulardan biri bo'lib, til leksikasining ichki tuzilmasi sifatida "tilni amalda" qo'llashni real ko'rsatib beradi. Evfemizmlar tilni ijtimoiy kontekstda qo'llash sohasiga tegishli, u jamiyat tafakkurining aksi, jamiyat tomonidan yaratiladi va shakllanadi. Evfemizmlar aniq funksional tavsiflarga ega: ular so'zlovchining nutq didi, axloqiy va etik qadriyatlari ularga tog'ridan to'g'ri nomlashni boshqa so'z bilan almashtirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi holat va kontekstlarda qo'llaniladi. Hozirgi kunda ular "*kamuflyaj*" maqsadlarda, ya'ni siyosiy diskursda ma'lum bir hodisaning asl mohiyatini berkitish uchun ham qo'llaniladi. Evfemizmlar ushbu jamiyatda ushbu zamonda mavjud bo'lgan ma'lum bir stereotiplarni ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Ko'pincha bir

⁸⁷ Kamuflyaj-fransuzcha "niqoblash". Harbiy sohada qo'llaniluvchi niqoblash bo'yog'i. Bu yerda so'z ma'nosini berkitish, niqoblash mazmunida qo'llanilgan.
Ru.wikipedia.org/wiki/камуфляж

ijtimoiy sharoitda to'g'ridan to'g'ri nomlangan narsa, boshqa o'zgargan sharoitlarda va boshqa davr sharoitida evfemistik iboralar talab qiladi. Struktura va semantika nuqtai nazaridan frazeologik evfemizmlar erkin birikmalardan farqli o'laroq o'zaro bog'liq hisoblanadi. Frazeologik evfemizmlar komponentlari o'zgarishlarga uchraydi, semantik butunlik ularga xos bo'lgan xususiyatdir.

I bob bo'yicha xulosa

1. Tilshunoslikda tabu va evfemizm hodisasi XX asrdan boshlab o'rganish obyektiga aylangan bo'lib, hozirgi kunda ushbu hodisalarga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Evfemizmlarga turlicha ta'rif berilgan bo'lib, har bir ta'rif albatta ushbu hodisaga bo'lgan munosabatni va ushbu hodisaning tildagi funksiyasini belgilab beradi. Ko'pgina olimlarning ta'riflarini tahlil qilib, evfemizmlarning so'zlovchi va tinglovchi uchun noxush bo'lgan tushuncha va so'zlarni yumshatish, haqiqatni niqoblash kabi asosiy funksiyalarini ajratib o'tdik.

2. Tabu va evfemiya bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan til hodisalaridir. Ammo ushbu hodisalarni o'rtasidagi munosabat doim ham simmetrik emas. Tilda evfemiya hodisasi o'rganilar ekan, uni tabuga asoslangan holda o'rganish zarur. Chunki tabu evfemizmgga muhtoj bo'lmasligi mumkin, ammo evfemizmni tilda mavjud bo'lishi uchun tabulangan tushuncha mavjud bo'lishi zarur.

3. Tabu qadimdan mavjud. Tabuning etnografik va lingvistik ko'rinishlari mavjud. Etnografik tabulardan lingvistik tabular kelib chiqqandir. Ammo tabuning tilda aks etishini, evfemizm bilan almashtirib qo'llanilishini aniq qonuniyat va sabablarini keltirib o'tish qiyin. Qadimda qo'llanilgan tabularning tabiati hozirgi kunda qo'llaniladigan tabulardan keskin farq qilgan. Hozirgi kundagi tabular ijtimoiy motivlarga borib taqaladi, hamda ular individual xarakterga ega, qaysi tushuncha tabu yoki tabu emasligini kommunikator aniqlaydi.

4. Evfemizm tildagi ko'pgina yondosh hodisalar bilan munosabatga kirishadi. Shulardan biri bu sinonimlar, frazeologizmlar va maqollardir. Evfemizmlarni biz kontekstual sinonimlar turiga kirittik, chunki ushbu so'zlar

faqatgina kontekstda sinonim hisoblanadi. Frazeologizmlar esa, obrazli ma'noda qo'llanilgani uchun, evfemistik ma'no tashishi mumkin. Bunda til birliklarini biz evfemistik frazeologizmlar deb atadik. Maqollar ma'lum xalqning tarixi, madaniyati va urf odatlarini o'zida aks ettirgani uchun, ushbu xalqlarda tabulangan tushunchalarni berkitish maqsadida qo'llanilishi mumkin, albatta. Tildagi boshqa hodisalar ham evfemizm bilan aloqador bo'lishi mumkin, agar ular ham evfemizm funksiyalarini bajarsalar, evfemistik vositalar hisoblanadi.

II bob. Turk tilida evfemizatsiya usullari va evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari

1. Evfemizatsiya usullari

Tilshunoslikda evfemizatsiya usullarining bir necha turi ajratiladi. Turk tilshunosligida evfemizatsiya usullari ajratilmaydi, evfemizmlarning turlari sifatida ba'zi usullar ajratilsa ham, ular yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu sababli g'arb tilshunoslari bu borada olib borgan tadqiqotlariga murojaat qilamiz. G'arb olimlari evfemizatsiya usullarini tasniflash masalasiga turlicha yondashganlar. Biz o'z tadqiqotimizda ushbu tasniflarning ba'zilarini ko'rib chiqishga qaror qildik.

L.P.Krisin⁸⁸ evfemizatsiyaning bir necha usullarini ajratib o'tadi. Masalan,

1. "Diffuz" semantikaga ega bo'lgan aniqlovchi so'zlar: rus tili misolida *некоторый, известный, определенный, соответствующий, надлежащий* kabi so'zlar berilgan. Не советуясь с нами, он (президент) поддерживает правительство, которое своими действиями привело страну к *известным* результатам (уомон, ayanchli natijalar kabi so'z tabulashtirilgan (Радио, 8.4.1992, выступление депутата Верховного совета)

2. Umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlarning qo'llanilishi: *акция, изделие, объект, продукт* kabi so'zlar yashirin ma'noda qo'llanadi.

3. Boshqa tillardan olingan so'z va terminlar.

4. Ba'zi fe'llarning ma'nosini yumshatish orqali evfemizmlar hosil qilinishi. Masalan, он *прихрамывает* (Cho'loqlangan inson haqida//belgini darajalab ko'rsatish)

Ushbu tasnifning kamchiligi shundaki, usullarning ajratish mezonlari mavjud emas va usullar juda ham tor doirada berilganligidir. Albatta, evfemizmlar

⁸⁸ Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи / Русский язык конца XX столетия (1985-1995) – М., 1996. – С. 392-394.

o'zgarish salohiyati katta bo'lgan hodisalardan biridir. Vaqt o'tishi bilan yangidan yangi evfemizatsiya usullari vujudga kelaveradi.

Ko'pgina tilshunoslar tez-tez qo'llaniluvchi evfemizmlar yaratishning usullarini deyarli bir xil ajratadilar. Lingvistik adabiyotlardagi xilma-xil evfemizatsiya usullarining tasniflari, guruhlariga ajratish mezonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Qo'llanilgan mezonlarga ko'ra ushbu tasniflarni ko'rib chiqamiz.

Evfemizatsiyaning xilma-xil usullarini belgilashda bosh mezon – tabu so'zni evfemizmgaga almashtirish usulini qo'llash. Ushbu mezonga ko'ra Dj.Lourens⁸⁹ va Ch.Keyning tasnifini keltirib o'tishimiz mumkin. Ch.Keyni tasnifiga ko'ra evfemizatsiya usullari:

1. Ixtiyoriy ravishda nutqda haqoratli so'zni tushirib qoldirish.
2. Tabu so'zning shaklini o'zgartirish.
3. Tabu so'zni boshqa umumiyroq so'z bilan almashtirish.
4. Noo'rin bo'lgan so'zni boshqa tildagi so'z orqali ifodalash.

Ammo bu shakldagi tasnif juda ham umumiy hisoblanadi va evfemizatsiya usullarini aniqroq tushunishga imkon bermaydi.

Bundan tashqari nolingvistik mezonlar asosida tahlil qilingan E.Partridj⁹⁰ tasnifini aytib o'tish mumkin. Bu tasnif nisbatan kengroq bo'lsa-da, lekin guruhlar orasidagi bog'liqlik, mantiqiy ketma-ketlik yo'qligi tufayli ular o'rtasidagi chegaraning noaniqligini keltirib chiqaradi.

Ushbu tasniflarni tahlil qilish asnosida ularning o'ziga xosliklarini e'tiborga olgan holda evfemizmlarni quyidagi guruhlar ichida tasniflash mumkin deb hisoblaymiz:

- 1. Grafik usul orqali hosil bo'lgan evfemizmlar.**
- 2. Semantik usul vositasida hosil bo'lgan evfemizmlar.**
- 3. Morfologik usul vositasida hosil bo'lgan evfemizmlar.**

⁸⁹ Lawrence J. Unmentionables and other euphemisms. - London: Gentry Books, 1973.– P.50.

⁹⁰ Partridge E. Usage and abuse. - New York: Penguin Books, 1964.– P.102.

4. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish va terminlarni qoʻllash orqali hosil boʻlgan evfemizmlar.

5. Sintaktik usul orqali hosil boʻlgan evfemizmlar.

1.1. Grafik usul orqali hosil boʻlgan evfemizmlar: Bunda evfemizmlar soʻz orqali emas, balki grafik vositalar, masalan, uch nuqta (...) orqali ifodalanadi. Bu usuldagi evfemizmlar, albatta, yozuvda aks etadi va bu, asosan, soʻkish, haqorat soʻzlarning boshi, oʻrtasi yoki oxirini tushirib qoldirish kabi misollarda koʻriladi. Bunda oʻquvchi gap nima haqida ekanligini bilsa ham, ushbu evfemizim usuli oʻquvchida oʻziga xos etik diskomfort hissining oldini oladi. Masalan,

Bu olaydan (yani Cemileʻden benim ...ʻe gittiğimi öğrenişinden) bir hafta sonra Gülnaz evlendiğini öğrendim. Bu voqeadan (yaʻni Jamila mening ...ga borganimni bilganidan) 1 haftadan keyin Gulnoz turmushga chiqqanini eshitdim. Bu yerda 3 nuqta bilan berkitilgan soʻz *ishratxona* soʻzidir. Bu kabi holatlar asosan yozma nutqqa tegishli ekanligi bois ularni uslubiy xoslanganligini hisobga olgan holda keyingi boʻlimlarda batafsil tahlil qilamiz.

1.2. Semantik usul vositasida hosil boʻlgan evfemizmlar

Soʻz maʼnolarining semantik oʻzgarishi, torayishi, kengayishi va boshqalar taʼsirida efimizatsiyaning quyidagi usullarini koʻrsatish mumkin:

- **Generalizatsiya.** Katta semantik imkoniyatga ega boʻlgan leksikani qoʻllash, masalan, ishora soʻzlari hisoblangan kishilik va koʻrsatish olmoshlari. *Cemile dedi ki sana, “o kadını gönder ben geliyorum”. Sen gönderemedin. İlişkinin devam ettiğini öğrendi orada. Jamila senga aytdiki: “Men kelyapman ana u xotinni joʻnatib yubor”. Sen uni joʻnatib yubora olmading. Aloqaning davom etayotganini bildi oʻsha yerda.* Bu yerda *o kadın* (ana u xotinni) “jazman” soʻzining evfemizmi sifatida qoʻllanilmoqda.

Bundan tashqari, tilda maʼlum harakatlarni ifoda qilish uchun umumiy semantikaga ega boʻlgan soʻzlar ham qoʻllaniladi. Bu asosan maʼlum bir harakatlarni boshqa neytral va umumiy maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar bilan almashtirish ortqali namoyon boʻladi.

• **Metaforizatsiya.** Bu eng ko‘p qo‘llaniladigan evfemizatsiya usuli bo‘lib, metafora usuli bilan hosil bo‘lgan evfemizmlarni badiiy va publitsistik uslub matnlarida ko‘p uchratishimiz mumkin. Badiiy matnlarda qo‘llaniladigan metaforalar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi biror-bir qahramonga xarakteristika berishi, unga o‘ziga xos munosabat bildirish uchun turli xil o‘xshatishlardan foydalanadi. Umuman olganda, tabulangan tushunchani obrazli metaforik ko‘rinishda ifoda etish badiiy asar tilini yanada bezaydi. *Tereyağından oyulmuş heykeli andıran Muhlis Bey, hararetli hararetli bir şeyler anlatıyordu. Sariyog‘dan o‘yilgan haykalni eslatuvchi Muhlis Bey hayajonlanib bir narsalar haqida gapirardi.* Bu yerda *tereyağından oyulmuş heykel* o‘xshatishi “laganbardor” so‘zining evfemizmi sifatida qo‘llanilgan.

Ramzlardan foydalanish. Metaforaning ko‘rinishi sifatida qo‘llaniluvchi ushbu ma’no ko‘chish usuli ham evfemizmlarga xos. Masalan, *Ona, ‘erkekler’ dedim, “genellikle Züleyha’ya aşık olurlar, ama bir Meryeme evlenirler. Unga “Erkaklar,- dedim, “ko‘pincha Zulayhoga oshiq bo‘ladilar, ammo bir Maryamga uylanadilar.”* Bu yerda Zulayho va Maryam simvol sifatida qo‘llanilmoqda. Zulayho go‘zallik ramzi, Maryam esa soflik, bokiralik ramzidir. Erkaklar go‘zal ayollarni sevsalar ham, ularga uylanmaydilar (go‘zallik barchani e’tiborini tortadi deb tushunilgani sababli) uylanish uchun esa sof, bokira qizlarni tanlaydilar, degan fikr evfemik simvollar yordamida ko‘rsatib berilmoqda.

• **Metonimizatsiya.** Evfemizatsiya usuli vositasida qo‘llaniluvchi metonimiya ma’no ko‘chish turi tabulangan denotat va neytral ma’nodagi denotat o‘rtasidagi assosiativ aloqalarga asoslanadi. Ushbu usul vositasida hosil bo‘lgan evfemizmlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ma’lumotni qabul qiluvchilar tabulangan tushuncha bilan assosiatsiya hosil qilmaydilar, ya’ni tabu maksimal ravishda berkitiladi. Masalan, Apparat yordamida hayotini davom ettirayotgan bemorni *“öldürmek” o‘ldirmoq* so‘zi o‘rnida *“fişini çekmek” tok (rozetka)dan olib tashlash* ifodasi qo‘llaniladi.

Bugüne dek bir birlerinin kapısını çalmamışlar. Shu kungacha birbirlerinin eshiklerini qoqmagan ekanlar. Ushbu gapda endi quda bo‘lmoqchi

bo'lgan ayollarning munosabatlari haqida gapirilmoqda. Ular bir-birlarini tanisalar ham, *oldin hech gaplashmagan ekanlar* ma'nosida qo'llanilgan. Bu yerda ***kapi çalmamak*** eshik qoqmaslik iborasi *bordi-keldi qilmaganlik, hol-ahvol so'ramaslik* ma'nosida qo'llanilgan.

- **Polyarizatsiya.** Denotat va assotsiotatning butunlay antonimligi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, *Cemile ondan bir tek şey istemişti. Ne kadar eli açık birisi olduğunu bilse bile, mektubu gönderdi. Jamila undan faqatgina bir narsa istagan edi. Qanchalik saxiy ekanligini bilsa ham, xatni yubordi.* Bu yerda *eli açık* iborasi *qizg'anchiq, baxil* ma'nosida qo'llanilmoqda.

1.3. Morfologik usul vositasida hosil bo'lgan evfemizmlar

- Inkor qo'shimchasi va so'z orqali. ***Fenerbahçe Kulübü Genel Sekreteri Uslu: “Tayfur’un (Havutçu) söylediğine göre durumu iyi değil, ama inşaallah düzelebilir.”*** *Fenerbahçe klubi bosh sekretari Uslu: “Tayfurning (Havutçu) gapiga qaraganda ahvoli yaxshi emas, ammo xudo xohlasa yaxshi bo'lib ketishi mumkin.”* Ushbu gapda ***iyi değil*** ifodasi ahvoli yomon birikmasini izohlab kelyapti. ***Trabzonspor iyi bir takım profile çiziyorken, maçlarına ilgi azdır. Trabzonspor başarılı değil mi yoksa?*** *Trabzonspor yaxshi jamoa sifatida ko'rinsa-da, o'yinlariga bo'lgan e'tibor ozdir. Yoki Trabzonspor omadli emasmi?* Bu yerda *başarılı değil mi* iborasi ijobiy ma'noda qo'llanilgan denotatni inkor qilish orqali ***omadsiz*** so'zi yumshatilib, ***omadli emas*** evfemizi orqali ifoda etilgan.

- So'roq olmoshini qo'llash orqali. Ushbu evfemizatsiya usuli badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Asosan ***ne*** (nima) so'roq olmoshini qo'llash orqali, ritorik savol tarzida tabulashgan tushuncha berkitiladi. Masalan, ***Kadınlara, özellikle güzel kadınlara ne gözle baktığını iyi bilirdi.*** *Ayollarga, ayniqsa, go'zal ayollarga qanday ko'z bilan qarashini yaxshi bilar edi.* Ushbu gapdagi *ne gözle baktığını* ifodasi asl qanday ko'z bilan qarashini yashirib, fikrni so'roq olmoshi vositasida neytral ifoda etgan.

- **Qisqartirish orqali (Abbreviatsiya).** Qisqartirish orqali hosil qilingan evfemizm turli xil sohalarda qo'llaniladi. Badiiy asarlarda qahramonlar ismlarini

qisqartirish, ya'ni ism-sharifining bosh harflarini yozish holatini ham kuzatishimiz mumkin. Bu asar syujeti real hayotdan olingan bo'lsa, qahramon ismlarini sir saqlash maqsadida shunday usulga murojaat qilingan bo'lishi mumkin. Masalan, *Aşk öyküleri yazdığımı öğrenen bir dostumun yakın arkadaşı E. G., "ya baksana" demiş, "senin bu arkadaşın benim öykümü de yazsa ya..."* Sevgi hikoyalari yozishimni bilgan do'stimning eng yaqin tanishi E.G, *"buni qara" debdi, "sening bu do'sting mening ham hikoyamni yozsa-ya..."*

Bundan tashqari qisqartirishlar siyosat sohasida, tibbiyot sohasida ham qo'llaniladi. Tibbiyot sohasida qo'llaniluvchi qisqartmalar, asosan, boshqa tillardan o'zlashgan qisqartmalardir. Turk tiliga ingliz tilining ta'siri oshib borayotganligi tufayli hozirgi kunda ingliz tilida keng qo'llaniladigan qisqartmalar, turk tibbiyot leksikasiga kirib kelmoqda. Masalan, **DNR (Do Not Resuscitate) Canlanmaz Hayat Emaresi Göstermez** (Yashash belgilarini ko'rsatmaslik) yoki parranda gripi o'rniga "H5N1" kabi ifodalar qo'llash.⁹¹

1.4. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va terminlarni qo'llash orqali hosil bo'lgan evfemizmlar

Terminlar evfemizatsiya usullaridan biri hisoblanadi. Ular jamiyatda gunoh, qo'rquv, uyat kabi holatlarni keltirib chiqaradigan holatlarda qo'llaniladi. Terminlar ma'lum bir sohaga tegishli so'zlar bo'lgani tufayli, ko'pchilikda salbiy his-tuyg'ular uyg'otmaydi. Eng ko'p tijorat va tibbiyot sohasida qo'llaniladi. Tibbiyot sohasida kasallikning nomini ushbu kasallik bilan og'riqan bemor yoki uning yaqinlari oldida to'g'ridan to'g'ri aytmasdan, ushbu soha terminlari bilan aytish, noxush holatlardan asrashi mumkin. Masalan, ignadan qo'rqadigan bemorning yonida **ig'ne** (igna) so'zi o'rniga **"enjektör"** so'zining qo'llanilishi; **Kanser** (saraton) kasalligi haqida gap borayotganda **"tümör"** ifodalarining qo'llanilishi salbiy munosabatni yumshatadi.

Ko'pincha ushbu o'zlashmalar etimologiyasi lotincha bo'lgan ilmiy terminlardir. Ushbu so'z tilda yaxshi o'rnashmagani tufayli, yaqqol salbiy

⁹¹ Celik C. Türkiye Türkçesinde örtmece ve tabu kelimeler. Doğu Akdeniz Üniversitesi.2011.– S.46.

konnotatsiyaga ega bo'lmaydi. Masalan, *Her erkek niye monogam değil. Çünkü kendini tamamlayan yarımı bulamıyor.* Nima uchun har bir erkak monogam emas. Chunki o'zining yarmini topa olmaydi. Bu yerda **monogam** so'zi yunon tildan olingan so'zdir, *bir juftga ega bo'lish* ma'nosida qo'llaniladi. Monogam so'ziga antonim sifatida *poligam* so'zi qo'llaniladi, ya'ni ko'p juftlilik. Ushbu jumlada gapirayotgan shaxs erkak kishi bo'lgani tufayli, erkaklarni **xotinboz, vafosiz** deb ta'riflashdan qochib, boshqa tildan kirib kelgan va ko'pchilikda ilmiy bir tasavvur uyg'otuvchi so'zni tanlagan. Hamda ushbu o'ziga xos ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lgan so'zga inkor qo'shimchasi qo'shib, asosiy fikrni niqoblab kelmoqda.

1.5. Sintaktik usul orqali hosil bo'lgan evfemizmlar. Ushbu evfemizatsiya usuli lingvistikada yetarlicha ishlanmagan, o'rganilmagan usullardan biri hisoblanadi. Ko'pgina olimlar umuman bunday gap ko'rinishdagi evfemizmlarni qabul qilmaydilar. Ammo ushbu usuldagi evfemizmlar eng samarali evfemizatsiya usullaridan biri hisoblanadi, chunki sintaktik evfemizmlarda kommunikator tarafidan tabu tushunchani almashtirilgan konstruksiyasini farqlash qiyin. Adresat leksik-semantik usuldagi evfemistik so'zni farqlashi osonroq, murakkab konstruksiya sifatidagi evfemizmlarni esa kontekstdan kelib chiqqan holda, chuqur tahlil qilish orqali o'rganish mumkin. Ushbu usuldagi evfemizmlar, tabulashtirilgan tushuncha yoki hodisa bilan uzoqdan bog'langan bo'ladi.

Sintaktik evfemizatsiya usullariga so'z birikmalarining turli xil transformatsiyasi, ellipsis (gap bo'lagini tushirib qoldirish, fe'llarning majhul nisbatda qo'llanilishi) ijobiy ma'noli konstruksiyani (salbiy ma'noga ega faktni tasdiqlash orqali) analogik salbiy ma'nodagi konstruksiyaga (ijobiy ma'nodagi faktni tasdiqlash orqali) almashtirish kabilar kiradi.

So'z birikmalari transformatsiyasi birlamchi so'z birikmaning strukturasi bilan bog'liq operatsiyalarni nazarda tutadi, xususan: qo'shimcha ijobiy ma'noga ega bo'lgan komponentni kiritish, salbiy ma'noga ega komponentni olib tashlash, bir- biriga qarama-qarshi komponentlarni (oksyumoron) qo'llash, so'z birikmasi strukturasi murakkablashtirish.

Quyidagi misolda ellipsis natijasida hosil bo'lgan evfemizm qo'llanganini kuzatamiz: *Yayinlamamak yanlişti, gazeteciliği bırakıp, politikacı gibi davranıldı, eğer yayınlansaydı o facia yaşanmazdı, çünkü herkes çıkarmayı tartıřmaya başlayacaktı. Nashr qilmaslik xato edi, muxbirlikni tashlab, siyosatchi sifatida harakat qilindi, agar nashr qilinganda, o'sha fojia bo'lmas edi, chunki hamma bosqinchilikni muhokama qilishga kirishib ketardi.* Ushbu gapdagi fe'llar faqatgina majhul nisbatda qo'llanilgan. Gapda subyekt ishtirok etmagan. Harakatlar kim tomonidan amalga oshirilgani tabulashtirilgan. Hamda aynan qaysi fojiyani nazarda tutayotganligi ham noma'lum. O'sha fojia deb aytib o'tganligi, barcha uchun noxush bo'lgan bir tarixiy hodisa haqida gap borayotganligidan dalolat beradi. Ushbu gaplar "Vashington Post" gazetasining muxbiri Katerin Grhamga tegishlidir. 1961-yildagi AQSHning Kubadagi F.Kastro rejimini tugatish uchun boshlamoqchi bo'lgan harbiy harakat haqida xabar topgan K.Grham, do'sti va davlat boshlig'i Kennedining iltimosi bilan ushbu sirli ma'lumotni ommalashtirmaydi. Bir necha yildan so'ng esa yuqorida keltirib o'tgan gapni aytadi. Demak, u ham ushbu fojia subyekti, shuning uchun psixologik himoya usuli sifatida majhul nisbatda gapirgan.

2. Turli xil uslublarda evfemizmlarning qo'llanilishi

Manbalarni ko'zdan kechirish umumuslubiyat (stilistika)ni o'rganishning nazariy masalalari hozirgacha uzil-kesil hal etilmaganligidan darak beradiki, bu evfemiyaning uslubiy qimmatini ochib berishni qiyinlashtiradi. Masalan, uslub ham lingvistik, ham adabiyotshunoslik sohalarida o'rganish obyekti bo'lishi mumkinligini e'tiborga olsak, bu masala yaxlit filologik yondashuvni ham talab qiladi.

Ba'zi olimlar uslubni ikki soha nuqtayi nazaridan ajratgan holda o'rganish to'g'ri emasligini salkam bundan yarim asr oldin payqaganlar; adabiyotshunos asar tilini tizimli tahlil qilish o'rnida ko'pincha obrazli tasviriy vositalarni yo'l-yo'lakay o'rganish, yozuvchi g'oyasining targ'ibotiga berilib ketishi an'anasi lingvistik sohani - uslubiyatni kambag'allashtirib, rangsizlantirib qo'yishini ta'kidlaganlar.

Demak, uslubni o'rganuvchi va o'rgatuvchi shaxs filolog (ham tilshunos, ham adabiyotshunos) bo'lishi kerak. Chunki, uslubiyat ilmi tilni adabiyotdan, adabiyotni tildan ajratib o'rganmaydi.

Uslubiyatga doir qo'llanilayotgan terminologiya ham shu sohani tadqiq qilishda ma'lum qiyinchlik tug'diradi. Ba'zi tekshiruvchilar "til uslubi", "nutq uslubi" terminlarini farqlab qo'llasalar, boshqalari (har ikki termin ostida funksional uslub tushunilishini nazarda tutib) ularni farqsiz yoki sinonim terminlar sifatida qo'llaydilar.⁹²

Til ikki qutbga: grammatika (barcha til sathlari nazarda tutilmoqda) va uslubiyatga ajraladi. Grammatika tog'ri gapirish va to'g'ri yozish; uslubiyat esa yaxshi gapirish va yaxshi yozish formulasiga bo'ysunadi. Birinchisi moddiylikka, ikkinchisi ma'naviylikka ega bo'lib, birisiz ikkinchisi mavjud emas. Uslubiyat grammatikani to'ldiruvchi, taraqqiy ettiruvchi, uzil-kesil mukammalashtiruvchi oliy forma – figural sistemadir.⁹³

Uslubiyat til materiallarining realizatsiyaga tayyorlangan – nutqqa moslangan, bo'yoqdor shaklda namoyon bo'lishidir.

Rus tilshunosligida M.V. Lomonosovning ikki prinsip (nutqiy vositalarning fikriy va uslubiy xususiyati; badiiy asarning janr xususiyati) asosida yaratilgan uch bosqichli (yuqori, o'rta, quyi uslub) tasnifi mavjud. Bu tasnif uslubshunoslikning taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qilgan, hozir ham qimmatini yo'qotmagan bo'lsa-da, bugungi tarmoqlangan uslubshunoslik muammolarini har tomonlama qamrab ololmaydi.

Evfemizm nafaqat leksikologiya bo'limini, balki stilistikaning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Stilistik vositasida qo'llanilib keluvchi evfemizmlar, hozirgi kunda uslubshunoslarning diqqatini o'ziga qaratib kelmoqda. Chunki evfemizm nihoyatda imkoniyat va qo'llanish doirasi keng bo'lgan vositadir. Bundan tashqari tilda disfemizmlar yoki kakofemizmlarni ham ajratish zarur. Ularning stilistik funksiyasi evfemizm bajaruvchi funksiyaga

⁹² Омонтурдиев Ж, Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. Термиз.Бойсун.1994.– Б.32.

⁹³ Омонтурдиев Ж. Профессионал нутқ эвфемияси: Филол. фанлари. д-ри...дис. Т.,2009.– Б.95.

teskari hisoblanadi. Ular biror-bir tushunchani soʻzning ortidagi maʼnodan keskinroq, dagʻalroq ifodalaydilar, bu holat odatda noadabiy shakda kuzatiladi. Masalan, ***Bir gün toprak olacaksın, bu yüzden hayatının tadını çıkar.*** Bir kun tuproqqa aylanasan, shuning uchun oʻynab-kulib qol. Ushbu gapdagi **toprak olmak** (tuproqqa aylanmoq) iborasi oʻlmoq maʼnosida qoʻllanilgan. Ushbu soʻz asl tabulashtirilgan tushunchani berkitish maʼnosida emas, balki uning maʼnosini boʻrttirib koʻrsatish, salbiy maʼno qirrasini hosil qilish uchun xizmat qilgan.

Tilda oʻziga xos oʻrnashib qolgan evfemizm va disfemizmlar mavjud. Ammo biz evfemizmlar individual xarakterga ega dedik, yaʼni maʼlum bir holatda, maʼlum bir kishi tarafidan biror bir tushuncha tabulashtirilishi va oʻziga xos yangi evfemizm qoʻllanilishi mumkin. Ushbu evfemizmlar albatta badiiy va soʻzlashuv uslubida koʻp qoʻllaniladi. Badiiy uslubda, ushbu evfemizmlar asar qahramonini qandaydir xislatini ochib berishda vosita sifatida yoki oʻziga xos kinoyali dialoglarni qurishda qoʻllanilishi mumkin. Masalan, ***Kadıncağızı ‘periler bağlamış’, odasından dışarı adım atamıyor, düşer düşer bayılırmış. Cemile, sanki ablası, yoklayıp hatırını sormadı mı içi rahat etmez. ‘İyilik meleği’ canım.*** Bechora ayolni ‘parilar bogʻlagan’, xonasidan bir qadam ham tashqariga chiqolmaydi, chiqar-chiqmas hushidan ketar emish. Jamila xuddi opasi singari, hol-ahvolini soʻramasa, koʻngli tinchimaydi. ‘Yaxshilik farishtasi’. Ushbu gapda bir necha xil evfemizmlar qoʻllanilgan. Birinchi tur evfemizm **periler bağlamış** (parilar bogʻlagan) iborasi, aqldan ozgan maʼnosida qoʻllanilgan. Ikkinchisi **iyilik meleği** (yaxshilik farishtasi) kinoyali evfemizmdir. Albatta, ushbu soʻz evfemizm ekanligini kontekstdan kelib chiqqan holda baholash zarur. Opasi kabi munosabatda boʻlayotgan ayol aslida erining eski sevgilisi ekanligidan kelib chiqsak, ushbu farishta soʻzini kinoyali evfemizm sifatida baholashimiz mumkin. Albatta ushbu evfemizmlar kontekstual sinonim xarakteriga ega, ularni farqlash uchun bizga kontekst zarur.

Evfemik vositalar soʻzlashuv uslubida ham qoʻllaniladi. Soʻzlashuv uslubining oʻziga xos xususiyati, chunonchi, u soʻzlanib turgan momentdagina mavjudligi, unda soʻz tanlash va soʻz qoʻllashning yozma nutqqa nisbatan

erkinligi, soʻzning energiya iqtisod qilish, tejamlilik tamoyilining amal qilishi kabilar soʻzlashuv nutqiga evfemadan osonlik bilan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, turk tilida soʻzlashuv uslubida qoʻllaniluvchi *milli olmak* evfemik iborasi mavjud. Ushbu ibora soʻzlashuv uslubida keng tarqalgan boʻlib, yigitlarning birinchi jinsiy tajribaga ega boʻlishi maʼnosida qoʻllaniladi. Albatta, ibora ifodalayotgan maʼnoni axloqiy tabularga kiritishimiz mumkin.

V.A.Larinning evfemik vositalarni soʻzlashuv nutqida, oilaviy hayotda qoʻllanilishini inkor qilishiga qoʻshilib boʻlmaydi.⁹⁴

Olimlar ilmiy va rasmiy uslublarning oʻziga xos xususiyatlarini yoritish munosabati bilan tasviriy vositalar vazifaviy uslublarning bu turlari uchun xos emasliklarini taʼkidlaganlar. Lekin uslub turlarini bir-biridan ajratib tashlash ham notoʻgʻri. Chunki bir uslubda, bir nechta uslubning xususiyatlarini koʻrishimiz mumkin.

Bundan tashqari evfemizmlar publitsistik matnlarda juda koʻp qoʻllaniladi. Badiiy uslubda qoʻllaniluvchi evfemizmlar va publitsistik uslubdagi evfemizmlar bir-biridan farq qiladi. Publitsistik matnlarda frazeologik evfemizmlar kam qoʻllaniladi.

2.1. Badiiy uslubda qoʻllaniladigan evfemizmlar

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir boʻlimi boʻlib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qoʻllanish yoʻllari, lugʻaviy, frazeologik va grammatik birliklarning qoʻllanish xususiyatlari oʻrganiladi. Oʻzbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: soʻzlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub (ayrim darsliklarda soʻzlashuv uslubidan boshqa barcha uslublar kitobiy uslub degan umumiy nom ostida beriladi): durust, metro, koʻk, tuzuk (soʻzlashuv uslubi); moviy, metropoliten (kitobiy).⁹⁵

⁹⁴ Ларин Б. А. История русского языка и общее языкознание. Избранные работы. - М: Просвещение, 1977. – С.125.

⁹⁵ Hamroyev M.A. “Oʻzbek tilidan maʼruzalar majmuasi”, T., 2012. – B.65.

Badiiy uslubdagi evfemik vositalar yuqori ekspressiv-emotsional xususiyatga egadir. Xususan, ushbu holat poetik nutqda ko‘p kuzatiladi.

Emotsional ekspressiv evfemik birliklar: 1. O‘zining fonetik asosiga ega: u kuchaytirilgan hissiyot, hayajon hamda to‘lqinli, ko‘tarinki ohang va ta’kidlovchi urg‘ular bilan ta’minlangan bo‘ladi. 2. Grammatik asosga ega: mana shu fonetik jarayonni ifodalashda undov so‘z, yuklama, so‘roq olmoshi kabi leksik vositalar, grammatik-modal formalar: ritorik so‘roq, so‘roq, buyruq, undov gap, undalma, vokativ gap kabi sintaktik vositalar, shular asosida shakllangan matnlar (dialogik nutq, monolog va b.) qo‘llaniladi.

Yuqori evfemik uslubning ifoda obyektni mantiqan salbiy, ijobiy yoki neytral tushunchalarga ajratish amaliy ahamiyat kasb etmaydi.

Noemotsional-noekspressiv evfemalar biror tushuncha yoki voqelikni hayajonli, tantanali, o‘ta ta’sirchan shaklda ifodalashni o‘z ustiga olmaydi. Ular emotsiya yoki ekspressivlik ifodalovchi maxsus grammatik vositalar olmasligi bilan ekspressiv-emotsional evfemalardan ajralib turadi. Lekin bu ular o‘rtasida qat’iy chegara bor degani emas. Evfemik vositalarni noemotsional bo‘lishiga qaramasdan aloqa anglatish va axborot berish bilan birga, o‘zida umumevfemaga xos belgilarni – modallik, obrazlilik, subyektivlik, etik-estetik talab normasi kabi tushunchalarni aks ettirgan.

Til evfemik qatlami obrazli-figural ma’no ifodalaganligi uchun, ko‘pincha badiiy uslub uchun xizmat qiladi. U badiiy uslubning oliy shakli, eng ta’sirchan tasviriy vositasi – bezagidir.

Har bir uslubni yaratuvchi o‘ziga xos vositalar mavjud. Ana shunday til vositalariga evfemizmlar ham kiradi. Xususan, badiiy uslubda hozir kunda evfemizmlarni turli xil ko‘rinishlarini uchratishimiz mumkin. Chunki, badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi va bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi. Badiiy uslub o‘ziga xos, barcha uslublarga oid shakllardan foydalanish mumkin bo‘lgan va ifoda imkoniyati keng uslub hisoblanadi.

Badiiy uslub, voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik jihatdan ta’sir qiluvchi uslubdir.

Badiiy uslubda qo'llaniluvchi evfemizmlar haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu uslubda "evfemizmlarning eng zerikarli ko'rinishi"⁹⁶ deb ta'kidlangan grafik evfemizmlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu evfemizatsiya usuli asosan kitobiy uslublarga xosdir, ya'ni so'zlashuv uslubida kamroq qo'llaniladi. Masalan, *Her birimiz bir yerde ...diyor türkü. Erzurumlu bir türkücü gırtlığını yırtarcasına bağırtıyor. Har birimiz bir yerda...deydi bir qo'shiq. Erzurumlik bir baxshi tomog'ini qirguncha baqiradi.*

Ushbu usuldagi evfemizmlar asosan senzuraga zid bo'lgan so'zlarning substituti hisoblanadi. Badiiy asarning etik va estetik chegaralarini saqlash maqsadida qo'llaniladi. Grafik evfemizmlar badiiy uslubda qo'llanilar ekan, u o'quvchida hech qanday ijobiy assosiyatsiyalar uyg'otmaydi, faqatgina taqiqlangan so'zni "maskirovka" qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu evfemizatsiya usuli, tabu so'zga yaqqol ishora qiladi. *O çirkin kavgalar, küfürler, salonda, banyoda, her yerde kokan alkol, "o... çocuğu" bağirtısı anne, salyalı ağızdan fırlayan, sağa sola çarpan dağılan, kırılan kelimeler...Ah anne. O'sha urush janjallar, so'kinishlar, xonada, hammomda har yerda hidi anqib turuvchi ichkilik, "...bolasi" chinqirig'i, ona, so'lak to'la og'izdan chiqqan, har yerga tarqalgan o'sha bema'ni, betayin gaplar...oh ona.* Ushbu gapdagi *O...çocuğu* ifodasi orospu *çocugu* – haromzoda, haromi bo'lishi kerak aslida. Yozuvchi asar estetik chegarasidan chiqib ketmaslik uchun ushbu so'zning faqatgina bosh harfini keltirib o'tgan.

Bundan tashqari, grafik evfemizmlar badiiy adabiyotda, ma'lum bir qahramon, joy nomlarini oshkora qilmaslik maqsadida ham qo'llaniladi. Masalan, *Ben artık onsuz bir dünya kurmaya çalışıyorum bana bu konuda yardımcı olun lütfen dedim. Dediler ki Ekim başında, ...beyle görüşmeye geliyor istersen şirkete gelme birkaç gün.*(134) *Men endi usiz bir hayot qurishga harakat qilyapman, menga yordam bering bu masalada iltimos, – dedim. – Aytdilarki, oktabr oyi boshida korxonaga ish masalasida ...bey bilan uchrashuvga kelayapti, xohlasang bir necha kun korxonaga kelma. Bu yerda*

⁹⁶ Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. М.: Языки русской культуры, 1999.– С.304.

asar syujeti real hayotdan olinganligi tufayli, yozuvchi qahramonlar ismini tabulashtirgan holda aynan grafik evfemizmlar vositasida ko'rsatib bergan. Bunda ushbu usul kitobxonda voqea real ekanligi hissini uyg'otib, uning qiziqishini yanada orttirish maqsadida qo'llanilgan vosita sifatida xizmat qilgan.

Badiiy asarlarda generalizatsiya usuli yordamida hosil qilingan evfemizmlar juda ko'p uchraydi. Bunday evfemizmlarni albatta kontekst ichida o'rganish zarur. Chunki har qanday ko'rsatish, kishilik olmoshlari ham evfemizm xususiyatini namoyon qilmaydi, evfemizm bo'lishi uchun qandaydir tabulashtirilgan so'z yoki tushuncha bo'lishi zarur. Masalan, ***Onun baska birini bir daha bu kuvvetle sevebileceğine ihtimal vermiyorum. Aşık değildi. Bu yüzden bunu hiç önemsemedim.*** (135) *Uning boshqa birovni yana bir bor shunday qattiq seva olishi ehtimoldan yiroq. Oshiq emasdi. Shuning uchun bunga hech ahamiyat bermadim.* Ushbu gapda ***bunu hiç önemsemedim*** (bunga hech ahamiyat qaratmadim) ifodasidagi ko'rsatish olmoshi orqali ifodalangan so'z, sevgan insonining boshqa bir ayol bilan bo'lgan aloqasidir. Ushbu gapda eng muhimi o'sha ayolni sevmasligi, boshqa bir aloqa esa o'tkinchi, e'tibor qaratishga ham arzimaydi degan fikr mavjuddir. Ammo shunga qaramay, asar qahramoni ushbu aloqani tabulashtirgan, uni to'g'ridan to'g'ri nomlashdan qochib o'rniga neytral bir so'z qo'llagan.

Badiiy uslub matnlarida qo'llanilgan evfemizmlarni tahlil qilish jarayonida, ushbu evfemizmlar asosan metafora va generalizatsiya usuli vositasida hosil bo'lgan, degan xulosaga keldik. Badiiy matn tilida terminlar va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llanmasa-da, ushbu evfemizm usuli bu uslub matnlariga xos emas deyish ham noto'g'ri. Badiiy asardagi evfemizmlar o'zining emotsional-ekspressiv tarkibi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ushbu turdagi matnlarda so'roq olmoshi vositasida hosil bo'lgan evfemizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Badiiy asar o'quvchiga estetik zavq berishi lozim, shuning uchun badiiy uslubda har xil qo'pol, dag'al so'zlarni qo'llashdan qochib, evfemizmlarga murojaat qilinadi. Bunda evfemizm qo'pol bo'lgan tabu so'zni almashtirish hamda badiiy asar tilini chiroyliroq ifoda etish funksiyasini

bajaradi. Ya'ni evfemizm o'ziga xos evfemik badiiy vosita usuli sifatida ham qo'llanila oladi.

2.2. Publitsistik uslubda qo'llaniladigan evfemizmlar

E. Sazonov OAV tilida tabulashtirilgan leksikaning qo'llanilishi uning asosiy xususiyatlaridan biridir deb ta'kidlaydi. U OAV tilida 3 xil tabulashirilgan ma'lumotlarni ajratib o'tadi: intim munosabatlarga qiziqish, jamiyat diqqat markazida bo'lgan insonlarning shaxsiy hayotiga bo'lgan qiziqish, o'lim mavzusiga bo'lgan qiziqish, xususan, u anomal va favqulotda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lsa.

OAV tili haqida gapirar ekanmiz, o'ziga xos “желтая пресса” tilini alohida ajratib o'tish zarur.

Bu yerda qo'llaniluvchi evfemizm va disfemizmlar albatta tabulashtirilgan leksikaga asoslanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'lim OAV tilida ko'p yoritiladigan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuga bo'lgan qiziqishni tushunish uchun psixologik tadqiqotlarga murojaat qilish zarur. Ma'lumki, zo'ravonlik va dahshatli sahnalar asosida qo'rquv hissini uyg'otish yotadi. O'quvchi shunday tarkibli ma'lumotni qabul qilar ekan, o'zi istamagan holda qo'rquvni his etadi. Hozirgi kunda qo'rquv orqali insonlarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish ularning tafakkurini egallash bilan barobardir.

Jamiyatda bu borada odob-axloq normalari ishlab chilgan bo'lib, ular doim o'zgarishda bo'ladi. O'lim haqida gapirish odobsizlik hisoblanadi. O'limni bolalardan berkitishga harakat qilinadi. Shveysariyada hatto, insonlarni huzursiz qilmaslik uchun dafn marosimlari uchun avtobuslar kunduz soatlari yurishi taqiqlanadi.⁹⁷

Shaxsiy hayot ko'p qatlamli va ko'p darajali tushuncha hisoblanadi. Shaxsiy hayot tushunchasining aniq bir chegaralangan izohi yo'q, lekin u inson hayotining turli qirralarini o'zida mujassam qiladi. Shaxsiy hayot bu davlat va

⁹⁷ Меньшиков Л. А. Мифологическая и художественная картины мира (семиотический аспект исследования) // Человек. Язык. Искусство (памяти профессора Н. В. Черемисиной). Материалы Международной научно-практической конференции. - М.: МПГУ, 2002.- С.202-203.

jamiyat nazoratidan tashqari bo'lgan hayotdir. Shaxsiy hayot daxlsizligi, bu mavzuda turli taqiqlarni keltirib chiqaradi. Lekin ko'pincha OAV bu narsani jamiyat bunday ma'lumotni olishga ehtiyoji borligi bilan izohlashadi.

Bu borada albatta chegara bo'lishi zarur. Ya'ni ma'lum bir mashhur inson hayotida bo'lib o'tgan rasmiy va norasmiy tarzda e'lon qilingan voqelarni (to'y, ajrim, tug'ligan kun) yoritish albatta chegaralangan.

Publitsistik uslubda, xususan, gazeta janrida qo'llaniladigan evfemizmlar o'quvchiga ta'sir qilish, uni qaysidir ma'noda boshqarish maqsadida qo'llaniladi. OAV tilida qo'llaniluvchi evfemizmlar badiiy uslubda qo'llanilgan evfemizmlardan birmuncha farq qiladi. Chunki bu 2 uslub matnlari spesifik xususiyatga ega. Badiiy uslubdagi matnda, nasr yoki nazm bo'lishiga qaramay, subyektiv munosabatda yozilgan, ya'ni yozuvchining his-tuyg'ulari, hayotga munosabati, yashash pozitsiyasi aks etgan bo'ladi. Bunda yozuvchining maqsadi kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatish orqali o'z g'oyasini yetkazib berishdan iborat bo'ladi. Publitsistik uslubda, xususan, gazeta tili va janridagi matn konkret bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'lumot yetkazishdan iboratdir.

Publitsistik uslubda qo'llaniladigan evfemizatsiya usullariga inkor qo'shimchasini qo'llash misol bo'la oladi. Bunda tabu-so'zga antonim bo'lgan so'z tanlanadi (sifat, ravish) + inkor qo'shimchasi. Ushbu usul OAV mualliflari tomonidan ko'p qo'llaniladi, chunki psixologik nuqtayi nazardan ijobiy ma'nodagi denotatning inkori salbiy denotatni tasdiqlashdan ko'ra kommunikator nafsoniyatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, ***Bağımsız İzmir Milletvekili Ertuğrul Günay, 30 mart yerel seçim sonuçlarını değerlendirirken, "Tartışmaları iktidarı yıprattığını görüyoruz, Muhalefet ise bütün Türkiye'nin partisi olamıyor. Sonuçlar iktidar ve muhalefet için başarılı değildir. Mustaqil İzmir Millatvakili Ertug'ul Guney 30-martda bo'lib o'tgan mahalliy saylovlarga o'z munosabatini bildirib, "Munozaralar hukumatni susaytirganining guvohi bo'lyapmiz, Muxolifat esa butun Turkiyaning partiyasi bo'lolmaydi. Natijalar hukumat va muholifat uchun ham muvaffaqiyatli emas."*** Bu yerda so'zlovchi saylov u uchun muvaffaqiyatsiz kelganini ta'kidlashdan

qochib, yumshoqroq ma'noga ega bo'lgan *muvaffaqiyatli emas* iborasini qo'llagan.

Ma'noni generalizatsiyalash usuli boshqarish, ta'sir qilishda katta imkoniyatiga egadir. Chunki nomni keng semantikaga ega bo'lgan umumiy bir so'z bilan almashtirish ushbu so'zdagi salbiy ma'nodan qutilishga yordam beradi. Bundan tashqari gazetani o'quvchi neytral hisoblangan hamda turli xil obyekt va hodisalarni sifatlovchi, diqqatni o'ziga qaratmaydigan, o'ziga xos amyoba-so'zlarga, "mujmal" evfemizmlarga e'tibor ham qaratmasligi mumkin.

OAV tillarida generalizatsiya qilingan evfemizmlarning butun bir tizimi o'rnatilgan. Masalan, *Ajanslarning ge'chtiği bilgiye göre,Süriye'deki cihatçı örgütlerden IŞID militanlarına yönelik olduğu sanılan operasyonda iki polis memuru yaralandı. Josuslarning xabariga ko'ra, Suriyadagi jihodchi guruhlarning ISID militanlariga yo'naltirilgan operatsiyada ikki nafar politsiya xodimi yaralandi.* Bu yerda qo'llanilgan **operasyon** (operatsiya) so'zi harbiy harakat ma'nosida qo'llanilgan.

Metaforizatsiya usuli keng imkoniyatga ega bo'lganligi uchun funksional uslublarning ko'pida qo'llaniladi. Xuddi shunday OAV tilida ham hozirgi kunda keng qo'llanib kelinayotgan ushbu evfemizatsiya usuli gazeta tili uchun juda qulay hisoblanadi. Chunki ushbu usuldagi ma'no ko'chishi tabulashtirilgan predmet yoki tushuncha bilan ifoda qilinayotgan denotat o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Ushbu so'z o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanilgani tufayli o'quvchida hech qanday salbiy tuyg'ular uyg'otmaydi. Xuddi shunday 90-yillarda OAV tilida "etnik temizlik" metaforik ifodasi qo'llanila boshladi. Ushbu ifoda ma'lum bir hududda, tumanda hukmron millat bo'lmagan shaxslarni yo'q qilish ma'nosida qo'llaniladi. *Yugoslavya'yi bu hale getiren ve etnik temizlik yapan Miloseviç çizgisini savunarak mı bu hale gelmesini önleyeceğiz. Yugoslaviyani bu ahvolga olib kelgan va etnik tozalashni amalga oshirgan Melosivich chizgan chizig'ini yoqlab bu holga kelishining oldini olamizmi? "Temizlik"* so'zining turkcha izohli lug'atda Türkçe Sözlük (TDK) uchinchi argo so'z sifatidagi ma'nosida *o'ldirmoq, yo'q*

qilmoq ma'nolari berilgan.⁹⁸ Ushbu soʻz bu yerda yaqqol salbiy konnotatsiyaga ega boʻlgan hamda jamiyatda tabu sifatida qabul qilingan *oʻldirmoq* soʻzining koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan evfemizmi vazifasini bajaradi, maʼnoni yumshatadi, oʻquvchining negativ reaksiyasini neytrallashtiradi. Albatta, ushbu ibora OAV tilida koʻp qoʻllanilganligi tufayli til egalari gap nima haqida ketayotganligini yaxshi tushunadilar. Shunga qaramay, resipient psixikasiga neytral, turmushda koʻp qoʻllaniladigan “temizlik” soʻzi taʼsiri “oʻldirish”, “qirib tashlash” kabi emotsional boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlarga nisbatan neytral.

Polyarizatsiya ham keng tarqalgan evfemizatsiya usullaridan biri boʻlib, u publitsistik uslubda ham qoʻllanadi. OAV tili shartlariga mos boʻlganligi uchun, yaʼni shaxsga taʼsir qilish uni boshqarish, asl maʼnoni berkitish kabi maqsadlarda qoʻllanilganligi tufayli u publitsistik uslubdagi evfemizmlarga misol boʻla oladi. Hamda salbiy maʼnodagi denotatga umuman teskari boʻlgan nom qoʻllanilganligi tufayli oʻquvchiga salbiy tasʼir boʻlmaydi. Bu taʼsir, fosh qiluvchi, kinoyali kontekst boʻlmasa, ancha samaraliroq boʻladi. ***Bu ište siz savunduğunuz adalet. Mana siz himoya qilgan adolat.***

Abbreviatsiya usuli ham publitsistik matnlarda keng tarqalgan va samarali usullardan biri hisoblanadi. Soʻzning asosiy leksik maʼnosi va u bilan bogʻliq konnotatsiyasi oʻzagida joylashgan boʻladi. Abbreviaturada soʻzning faqatgina bosh harflari qoʻllanilgani tufayli u ifodalayotgan maʼno tushunarsizligi sababli, salbiy konnotatsiya keltirib chiqarmaydi. Masalan, ***YDH'den Hasan Sivri, bir Körfez Şeyhinin "Türkiye Alevileri ile Suriye Alevileri arasındaki bağlantıyı kopardık" dediğini aktarıyor.***⁹⁹ *YDH'dan Xasan Sivri, bir Korfaz Shayxining "Turkiya alevilari bilan Suriya alevilari oʻrtasidagi munosabatlarni uzdik" deganini yetkazdi.* Yeni Dini Hareketler (YDH) abbreviaturasi orqali insonlarga oʻziga xos taʼsir oʻtkazilib, ushbu soʻz keltirib chiqarishi mumkin boʻlgan salbiy taassurotlardan himoya qiladi. Chunki koʻp nsonlarda diniy oqimlar oʻziga xos salbiy munosabat uygʻotadi.

⁹⁸ Türkçe Sözlük, TDK, Ankara, 2005.– S.450.

⁹⁹ <https://twitter.com/SevraBaklaci/status/447000755426586624>

Boshqa tillardan soʻz olish va terminlar qoʻllash OAV tilida juda keng tarqalgan. Chunki ushbu soʻzlar til egalari uchun unchalik tushunarli emas, ularning ichki maʼnosi qorongʻudir. Ushbu soʻzlarning salbiy konnotatsiyalari mavjud emas, shuning uchun soʻzlovchiga mavqeyini orttirib koʻrsatish uchun oʻrinli tuyuladi va hatto toʻgʻridan toʻgʻri nomlashiga qaramay, denotatni “yaxshilash” imkoniyatiga ega. Nutqda maxsus soʻz va terminlar qoʻllanilganligi kommunikatorga hurmat maʼlumot manbasiga ishonch tuygʻusini uygʻotadi.

Ushbu evfemizmlarni aynan OAV tilida qoʻllanilishi, auditoriyaning koʻp qismi ushbu terminlarni aniq maʼnosini bilmaganliklari tufayli, asl yetkazilayotgan xabarni tushunib yetmasliklariga olib keladi. Masalan, ***Tahminlere göre Türkiye’de doğal gaz sektörünün liberalleşmesi bekleniyor.*** Taxminlarga koʻra Turkiyada tabiiy gaz sektorining liberallashuvi kutilmoqda. Ushbu gapda ***gaz sektörünün liberalleşmesi*** (*gaz sektorining liberallashuvi*) iborasi aslida narxlarining koʻtarilishi maʼnosida qoʻllanilgan.

Zamanla sevgi bitiyor, zevkler değişiyor. Erkeklerde andropoz dönemi başlıyor. Vakt oʻtishi bilan sevgi tugaydi, didlar oʻzgaradi. Erkek kishida andropoz davri boshlanadi. Bu yerda andropoz (erkaklik gormonining susayishi) termini ifoda etayotgan noxush bir tushunchani ilmiy, tibbiyot termini vositasida izoh etish, maʼlum bir auditoriya (xususan erkak kishilarning) tuygʻularini haqoratlamaslik uchun qoʻllaniladi.

2.2.1. Siyosiy evfemizmlar

Maʼlum muayyan bir tarixiy davr yoki uning oʻzgarishi bilan bogʻliq yangi falsafiy-axloqiy gʻoyalar maydonga keladi. Ana shu zaruriyat yangi-yangi nutqiy birliklarning shakllanishiga sabab boʻladi. Siyosiy tushuncha ifodalash odatda koʻproq publitsistik uslubga yuklatiladi.¹⁰⁰ Biroq siyosiy publitsistik uslubda har qanday tanqidiy tushunchani hamma vaqt ham oshkora ifodalab

¹⁰⁰ Чубарова А. В. Политическая корректность в английском и русском языках // Современная политическая лингвистика: Материалы международной научной конференции. Екатеринбург, октябрь 2003 г. / Урал.гос.пед. ун-т. - Екатеринбург, 2003.-С. 166-167.

bo‘lmaganidan, biror siyosiy voqelik ba’zan majozlashiriladi, ya’ni yumshoq “yopiq” shaklda ifodalashga harakat qilinadi.¹⁰¹

Bunday evfemik ifoda vositalarini siyosiy-badiiy yoki siyosiy-majoziy evfema deb atash mumkin.

Siyosiy tushunchalarni evfemalashtirish uzoq tarixga ega bo‘lib, u hatto maxsus tadqiqot talab qiladi. Bu jarayon M.Gorkiy ijodida yuksak darajada aks etgan. Masalan, M.Gorkiyda bo‘ron-revolutsiya, inqilob; Qora bulut, Ilon-kapitalist. Bunday nutqiy uslubga A.S. Pushkin ham murojaat qilgan: “Rossiyada qonun yo‘q. Unda bir ustun bor, xolos. Ustunga esa toj kiygizib qo‘yishgan” degan simvolik-evfemik tasvirda butun bir davlatning siyosati fosh etilgan.

Ingliz lingvisti Dj.Lourensning ta’kidlashicha, “evfemizm asrlar davomida harbiy va siyosiy sohaning tarafdori sifatida mavjud bo‘lib kelgan, aslini olganda evfemizmi ulardan ayirib bo‘lmaydi.”¹⁰² Asl maqsadlarni berkitish siyosiy evfemizmlarning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi.

Dj.Oruell o‘z romanida “yangi til” lug‘atini keltirib o‘tadi. Siyosiy evfemizmlar ushbu lug‘atdagi so‘zlarga to‘g‘ri keladi. Ushbu so‘zlar nafaqat siyosiy matnda qo‘llaniladi, balki ular o‘ziga xos ta’sir qilish kuchiga ham egadir.¹⁰³

Ammo ko‘pgina tilshunos olimlar ushbu turdagi evfemizmlarni qabul qilmaydilar. Chunki siyosiy evfemizmlar asl tushunchani (tabuni) yumshatmaydi, balki uni yo‘q qilishga harakat qiladi. Uning o‘rniga denotat bilan hech qanday assotsiatsiyalar keltirib chiqarmaydigan so‘z qo‘llaniladi, deb ta’kidlaydilar.¹⁰⁴

¹⁰¹ Панин В.В. Политический дискурс: «Язык двусмысленности» // Современная политическая лингвистика: Материалы международной научной конференции. Екатеринбург, октябрь 2003 г. / Урал.гос.пед.ун-т. - Екатеринбург, 2003. – С.122-124.

¹⁰² Lawrence J. Unmentionables and other euphemisms. - London: Gentry Books, 1973.– P.75.

¹⁰³ Оруэлл Д. 1984. - Свердловск: Средне-Уральское кн. изд-во, 1991.– С.390.

¹⁰⁴ Гальперин И. Р. Проблемы лингвостилистики // Новое в лингвистике. -1980.-Вып. 9.– С.30.

Ba'zi olimlar esa ushbu turdagi evfemizmlarni "hokimyat tili" deb nomlaydilar.¹⁰⁵

Siyosiy evfemizm termini siyosiy kommunikatsiya matnlarida qo'llaniluvchi evfemizmlar guruhi hisoblanadi, ushbu evfemizmlar keng omma uchun mo'ljallangan bo'lib, ma'lum bir faktlar bilan bog'liq bo'lgan salbiy assotsiatsiyalarni yumshatish uchun qo'llaniladi.

Tilda siyosiy evfemizmlarning qo'llanilishi siyosiy tabuning mavjudligidan dalolat beradi.

R.Xolder lug'atining ushbu turdagi evfemizmlarning mavzu guruhlarini ajratishimiz mumkin. Ushbu mavzu guruhlarini original nomlari bilan keltirib o'tdik. Umuman siyosiy evfemizm tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqani tufayli (political euphemisms), ushbu guruhlarini ajratib chiqishda ingliz tilidagi political so'zining lug'atdagi berilgan ma'nolaridan kelib chiqilgan.¹⁰⁶ Ular quyidagilar:

- siyosiy sohaga oid nomlar: (Politics /Siyosiy faoliyat; Bribery / Poraxo'rlik; Trade Unions / Kasaba uyushmalari);
- harbiy sohaga oid nomlar: (Warfare / Siyosiy soha);
- iqtisod va biznes sohasiga oid nomlar: (Commerce and Industry / Savdo-sotiq va ishlab chiqarish; Bankruptcy / Bankrotlik; Dismissal / Ishdan bo'shatish);
- kriminal sohaga oid nomlar: (Crime / Jinoyat; Police / Politsiya; Prisons and Prisoners / Qamoq va mahbuslar);
- kambag'allik bilan bog'liq nomlar: (Poverty and Parsimony / Kambag'allik; Charity / homiylik va saxovat; Unemployment / Ishsizlik);
- aqliy va jismoniy kamchiliklar: (Mental Illness / ruhiy kasalliklar; Illness and Injury / Jismoniy zaifliklar);
- ta'lim sohasiga oid nomlar: (Low Intelligence / Past aqliy imkoniyatlar);

¹⁰⁵ Neaman J. S., Silver C. G. Kind words: a thesaurus of euphemisms. - New York: Facts On File, 1990.- P.10.

¹⁰⁶ Павлова Е. К. Языковая преемственность в процессе эвфемизации политических реалий // Вестник МГУ. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. - 2000. № 3.- С.17-25.

- etnik, yosh va jinsiy farqliliklar: (Colour, Gypsies and Slavery / Irq, ko'chmanchilik va qullik)

- inson illatlari nomlari:

(Boasting, Flattery and Lying, cowardice / Maqtanish, manfaatparastlik, yolg'onchilik, qo'rqqoqlik)

Siyosiy tabuning ushbu mavzu guruhlaridan ko'rinib turibdiki, siyosiy evfemizmlarning ko'p qismi mamlakat ichki siyosatiga, jamiyat bilan munosabatiga tegishli. Tashqi siyosat, xalqaro aloqalar, harbiy soha bilan bog'liq tabu guruhlar ajratilmagan.

Aytib o'tish lozimki, aynan xalqaro aloqalar, tashqi siyosat yuritish muhitida o'ziga xos lingvistik tabular kelib chiqadi, ular esa, o'z navbatida, siyosiy tabularni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda lisoniy nazorat kuchli bo'lganligi sababli, biror bir noto'g'ri qo'llanilgan so'z katta oqibatlarga olib kelishi mumkinligi xavfidan evfemizmlarni qo'llash ehtiyojini tug'diradi. M. Edelman siyosiy til siyosiy reallikning bir qismi, uning qurolidir, deb ta'kidlaydi.¹⁰⁷ Bunday evfemizmlarga biz siyosiy terminlarni misol qila olamiz. Ko'pchilikda mavhum tasavvur uyg'otuvchi ushbu terminlar, ifodalanayotgan tushunchani nafaqat yumshatadi, balki siyosiy tusga ega bo'lgan ma'lum bir salbiy harakatga oddiylilik, tabiiylilik tusini beradi. *Aralarında Iran, Sudan, Suriye ve Kuzey Kore'nin de bulunduđu 17 ülkeye ambargo uygulayan OFACin yeni hedefi ise Ukrayna krizinde ABD ile ters düşen Rusya oldu. Tarkibida Eron, Sudan, Suriya va Janubiy Koreya bo'lgan 17 davlatga ambargo e'lon qilgan OFACning yangi maqsadi (nishoni) Ukraina krizisida AQSH bilan ziddiyatga borgan Rossiya bo'ldi.* Ushbu gapda qo'llanilgan *ambargo* siyosiy termini, moliyaviy qarshilik, moliyaviy urush, sanksiya ma'nosida qo'llaniladi. Ushbu gapda bu termin AQSH harakatiga qaysidir ma'noda siyosiy bir baho berish maqsadida qo'llanilgan.

Siyosiy evfemizmlar azaliy tabu mavzularidan biri hisoblangan o'lim mavzusiga ham alohida to'xtaladi. Ammo ushbu tabu boshqa kontekstlarda

¹⁰⁷ Edelman M. Political language: words that succeed and politics that fail. - New York: Academic Press, 1977. – P.473.

(siyosiy bo‘lmagan) qo‘rquv, nohushlik, suhbatdoshni tuyg‘usini haqoratlamaslik uchun evfemizm bilan almashtirilsa, siyosiy kontekstda o‘limni (o‘ldirishni) oqlash maqsadida ham o‘ziga xos siyosiy evfemizmlar qo‘llaniladi. Masalan, ***Tokat Jandarma Özel Hareket Tabur Komutanlığı ekipleri mağarada saklanan iki terroristi etkisiz hale getirdi. Tokat jandarma maxsus diviziya vakillari g‘orda yashiringan ikki terroristni zararsizlantirdi.*** Ushbu gapda qo‘llanilgan *etkisiz hale getirmek* “o‘ldirmoq” ma’nosida qo‘llanilgandir.

Aytish kerakki, publitsistik uslub, xususan, gazeta janridagi ijtimoiy sohaga oid matnlar evfemizm va disfemizmlar keng qo‘llaniluvchi maydon hisoblanadi. Gazeta janrida qo‘llaniladigan evfemizmlarni usullari nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda, hozirgi kunda gazeta tilida generalizatsiya, boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashmalar va terminlarni qo‘llash kabi usullardan foydalaniladi. Sababi shundaki, gazeta tilida qo‘llaniluvchi evfemizmlar publitsistik uslub chegarasidan chiqmaslik maqsadida bir til vositasida emas, balki konkret maqsadlarda, biror bir tabu tushunchani berkitish, yumshatish, niqoblash uchun qo‘llaniladi. Chunki gazeta butun bir jamiyat uchun yaratilgan bo‘lib, u siyosat va jamiyatning bir-biri bilan aloqa o‘rnatishida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ana shu ko‘prik ustunlaridan biri bu evfemizmlar hisoblanadi. Chunki jamiyatda senzura, tabu mavjud ekan, bu o‘z o‘zidan evfemizmlarni keltirib chiqaradi. Bu borada siyosiy evfemizmlarni o‘rganish hozirgi kundagi eng aktual masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Siyosiy evfemizmlarni alohida tadqiq etish ushbu jamiyatdagi mavjud lingvistik, siyosiy tabularni tadqiq etish demaktir. Bu ushbu davlatning bugungi siyosatini, jamiyat va siyosatning munosabatini o‘rganish demakdir. Biz qisqacha ushbu evfemizm turiga (gazeta matni doirasida) to‘xtalib o‘tgan bo‘lsak-da, bu hodisa alohida bir tadqiqot ishi sifatida o‘rganilishi lozim. Ushbu evfemizm turiga oid lug‘atlar yaratilishi, ularni qiyosiy tahlil qilish kabi maqsadlar qo‘yilishi kerak.

Bundan tashqari gazeta matnlari tahlili jarayonida turk gazetasi tilida evfemizmlardan ko‘proq disfemizmlarning qo‘llanilganini kuzatdik.

II bob bo‘yicha xulosa

1. Lingvistikada bir qancha evfemizatsiya usullari ajratiladi. Ammo, ushbu usullar mavhum, o'zaro bog'lanmaganligi tufayli kamchiliklarga egadir. Ushbu usullar rus va ingliz tili misolida keltirib o'tildi. Turk tilshunosligida evfemizatsiya usullari haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Mazkur bobda xorijiy lingvistlarning tasniflarini tahlil qilgan holda turk tilidagi evfemizatsiya usullari tasnifi ishlab chiqildi. Bunda grafik, morfologik, semantik, sintaktik usullarga ajratildi.

2. Evfemizmlar faqatgina bir til sathi doirasida o'rganiladigan hodisa emas. U o'z navbatida uslubshunoslikning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Evfemizmlar turli xil funksional uslub vositasi hisoblanadi. Turk tilida evfemizmlar badiiy va publitsistik uslubda qo'llanishi kuzatildi.

3. Badiiy uslubda qo'llaniladigan evfemizmlar nafaqat tabulashgan bir tushunchani yumshatish uchun, balki badiiy asar tilini sayqallash uchun, asar qahramonlari xarakterini ochib berish uchun, yozuvchining voqelikka munosabatini ochib berishda foydalaniladigan badiiy uslub vositasi vazifasini ham bajaradi.

4. Publitsistik uslubda qo'llaniladigan evfemizatsiya usullaridan eng keng tarqalgan usuli bu terminlar va umumiy semantikaga ega bo'lgan so'zlarni qo'llashdir. Ushbu so'zlar ma'lum bir harbiy harakatlar va nomlarni neytral ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

5. Turk tilshunosligida hozirgacha *politik örtmece* termini qo'llanilmagan bo'lsa-da, ingliz va rus tillarida allaqachon o'rganishga kirishilgan ushbu evfemizm turi turk gazeta tilini tahlil qilish jarayonida o'rganildi. Turk tilida siyosiy evfemizmlar mavjudligi turk ijtimoiy hayotida siyosiy tabu tushunchasi ham mavjud ekanligi xulosani keltirib chiqardi. Ushbu evfemizmlar ma'lum bir siyosiy harakatlarni yopiqroq, neytralroq ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

III bob. Turk tilida tabu, evfemizm va disfemizmlar aloqadorligi va ularning talqini

Evfemizatsiyaning aksi hisoblangan disfemizatsiya ham qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, evfemizmdan farqli o'laroq, kam o'rganilgan. Buni esa yuqorida aytib o'tganimizdek, madaniy muloqot me'yorlaridan izlash muhim. Chunki ular, odatda, badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtayi nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qaralgan. Odatda, tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalinmay, ko'pincha unda evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yarseva tahriri ostida chop etilgan “Лингвистический словарь”ni olishimiz mumkin. Unda evfemizm xususida so'z ketganda yo'l-yo'lakay “uslubiy va emotsional betaraf so'zni nisbatan qo'pol, noqulay so'z bilan almashtirish” deya ta'riflanadi.

Tilshunoslikda disfemizatsiya hodisasiga turlicha baho beriladi va u evfemizatsiyaning bir turi sifatida o'rganiladi.

1. Tilshunoslikda disfemizmga bo'lgan munosabat

Tilda borliq (hayvon, narsa buyum, inson va boshqalar) va kasallik nomlari bilan bog'liq bo'lgan evfemizmga teskari hisoblangan “*kötü adlandırma*” yomon nomlash, grekcha “dys” yo'q, yomon va “pheme” nutq so'zlaridan hosil qilingan “*disfemizm*” tushunchasi mavjuddir. Disfemizm terminiga sinonim sifatida “*kakofemizm*” termini ham qo'llaniladi.¹⁰⁸

Disfemizm ikkinchi jahon urushidan keyin turli illatlar (giyohvandlik, fohishabozlik, o'g'rilik, yetimlik) avj olgach, evfemik birliklar qatorida nutq sathida o'rnasha boshladi va tilshunoslikning tadqiq manbaiga aylandi.

Disfemizm terminiga quyidagicha ta'rif berilishi mumkin: “Disfemizm oldindan neytral hisoblangan tushunchani unga salbiy ma'no yuklash uchun yoki nutqni ta'sirchanligini oshirish uchun qo'qol, nohush ifodalashdir.”¹⁰⁹

¹⁰⁸ www.wiktionary.org/wiki/дисфемизм

¹⁰⁹ Эвфемизмы//Языкознание. Большой энциклопедический словарь. - М., 1998.- С.304.

Disfemizmga O.S.Axmanova, “Disfemizm (kakofemizm) trop. muayyan matndagi predmet, narsa hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish” deb ta’rif beradi.

Dastlab Yevropa tilshunoslari e’tiborini tortgan ushbu hodisa S.Vidlak, A.M.Katsev, K.Allan kabi olimlarning ishlarida o‘z aksini topadi. Ularda ta’kidlanishicha, disfemizmlarning evfemizm bilan o‘xshash tomoni shundaki, ular denotatga ma’lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm kabi qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi.

D.Lourens va boshqa tadqiqotchilar tomonidan so‘z erkinligi va oshkoralik yoqlanar ekan, disfemizmlarning foydali tomonlarini ta’kidlaydi. Masalan, noxush tushuncha qanchalik berkitilsa, shunchalik qiziqarli bo‘lishi, yomonlik taqiqlangani sari unga e’tibor kuchayishi va samarasi teskari bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi. Bu esa, o‘z o‘zidan evfemizatsiyaning qisqarishiga olib keladi. Shuning uchun ham oxirgi paytlarda disfemizm mavzusi yuzasidan Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan birmuncha ishlar qilinayotganligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, A.N.Rezanova ingliz tili disfemizmlarini o‘rganar ekan, disfemizm tarixi, badiiy nutqdagi vazifalari, leksik-semantik tahlili va tasnifini amalga oshiradi. Disfemizmga ham, asosan, nutqda ro‘y beradigan nolisoniy omil sifatida qarash lozimligi, u denotat salbiy ta’sirining kuchayishi ekanligi e’tirof etadi: “Disfemizm-denotatni salbiy baholovchi (u yoki bu darajada ma’lum bir bo‘yoq vositasida kamsituvchi, salbiylashtiruvchi) lisoniy ifoda”¹¹⁰. Shuningdek, T.B.Boyko, T.S.Bushuyevalar disfemizmni evfemizmning bir turi sifatida tadqiq etadilar.

Muayyan millatning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog‘liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ham ma’lum ma’noda disfemizmga alohida bo‘limlar ajratilib, uning

¹¹⁰ Резанова А.Н. Классификация дисфемизмов по лексико-семантическим разрядам.// Язык и культура. - Киев,1997. – С.124.

mohiyati, leksik qatlami, nutqiy xususiyati tavsiflangan. Masalan, O.B. Potapova belorus, rus, va polyak xalqi tilining XIX asrdagi etnik qolipini o'rganar ekan, shunday yozadi:

“Etnonominatsiya muhitida leksemalarning uslubiy farqlanishi muhim rol o'ynaydi. Aynan “etnik jamoaga xoslik” ma'noli leksemaga muayyan bo'yoq berish ushbu lug'aviy-ma'noviy guruh ichida sinonimlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunda ikki usul qo'llaniladi: evfemizatsiya va disfemizatsiya”

Ko'pgina tilshunoslar disfemizmgaga evfemizmganing bir shakli, turi sifatida qaraydilar.

Disfemizmgaga evfemizmgaga qarama-qarshi tushuncha emas. Aksincha, u evfemizmganing mohiyatini yanada o'tkirroq bir shaklda ifoda etishi haqida ham fikrlar mavjud. V.B Shklovskiy “Evfemizmgaga nafaqat muloyim so'zlash, balki so'zlarni salbiy ma'noda qo'llash bo'lib, u nafaqat berkitish, balki bo'rttirish vazifasini bajaradi”, deydi. –Disfemizmlar bu “manfiy” belgili evfemizmlar bo'lib, ular predmetning metaforik, to'g'ridan to'g'ri nomlanishlari hisoblanadi. Ammo ular yuqori salbiy ma'no qirrasiga ega nomlanishlar hisoblanadi.¹¹¹

Bu borada turk tilshunosligida ham bir necha fikrlar bildirilib o'tilgan. Yetarli darajada tadqiq etilmagan ushbu hodisaga turk tilshunosligida evfemizmgani o'rganish jarayonida to'xtalib o'tilgan. Ya'ni ushbu hodisa alohida tadqiq qilinmagan.

Disfemizmgaga nisbatan “*Kötü adlandırma*” yomon nomlash terminini qo'llagan turk olimlaridan biri Kerim Demirji shunday deydi:” Disfemizmganing tushunchasini evfemizmganing bir turi sifatida qabul qilib o'rganish kerak. “*Yi adlandırma*” yaxshi nomlashni *örtmece* (o'ralgan ma'nosida) evfemizmgaga deb qabul qilar ekanmiz, “*kötu adlandırma*” yomon nomlash ham *örtmece*, evfemizmgaga deb olishimiz kerak. Birinchisida nomlash pozitif, musbat, yaxshi bo'lsa, boshqasida negativ, manfiy, yomondir.”

¹¹¹ Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля. // Этимология. 1965. - 1967.– С.270.

Yuqorida berilgan fikr- mulohazalar, ta'riflardan kelib chiqqan holda ushbu tadqiqotimizda disfemizmlarni evfemizmning bir turi sifatida o'rganishga kirishdik. Ammo ushbu hodisa semantikasi, qo'llanilish maqsadiga ko'ra evfemizmga mutlaq qarama-qarshi ekanligi tufayli uni tabu va evfemizmdan so'ng uchinchi alohida hodisa sifatida yonma-yon tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb topdik.

2. Tabu va disfemiyaning o'zaro aloqadorligi

Evfemizm tabuga asoslangan, tabudan kelib chiqqan bir hodisa ekanligini aytib o'tdik. Disfemizm hodisasi ham tabu ta'sirida vujudga kelgandır. Evfemizmni vujudga keltirgan motivlar, disfemizatsiyani ham vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ushbu motivlarga biz albatta qo'rquv, o'z-o'zini himoya qilish kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin. Qo'rquv asosida odamlarda ilk tabu ko'rinishlari vujudga kelgan.

Dunyoning bir necha o'lkalarida bolalarga ism berilganda chiroyli ismlar yomon ruhlarning diqqatini tortadi deb tasavvur qilingan. Siyamda, Tonkingda shu sababli bolalarga chiroyli ism berish o'rniga shaytonlarning, yomonlik ruhlarining ismlarini, nomlarini qo'yishar ekan, masalan, *Domuz*, *Yaramaz*. Yana ushbu hodisani turkiy xalqlarda, qozoq va oltoy xalqlarida kuzatish mumkin. "Tozak", "Kork", "Itbay", "Itibay", "Italmaz", "Tezekbay", "Yılan", "Şeytan", "Manas" dostonida nomi keltirilgan "Bokmurun" kabi ismlar turkiy xalqlarda keng tarqalgan. Kumuklarda qiz bolaning ismi sifatida "Gerekmez", "Gocuk" (erkak kishi ismi "it" ma'nosida) kabi yomon ma'noli ismlar qo'yilgan.¹¹² Yana Oyrotchada Cickan sichqon, Dyitu yomon hidli, Oltin O'rda xoni O'zbekxonning qizi ismi It Kucucek, Shorjada Poktugkiris, Hokoschada Colbanah isimlari qiz bola ismlari sifatida keng tarqalgan.¹¹³

¹¹² Сативалов А. А. К вопросу о личной ономастика. Кумков/ ХУР; Советское языкознание, том второй, Ленинград, 1936.– С.25.

¹¹³ Rasonyi, Laszlo 1963, *Turklukte Kadın Adları*, Turk Dili Araştırmaları Yıllığı, Belleten, Turk Tarih Kurumu Basımevi, II. Baskı 1988, Ankara.– S.78.

Professor Doktor Tüncer Gülensoy “Turk kishi nomlarining til va tarix nuqtayi nazaridan ahamiyati” nomli maqolasida turklarda “Hafiye”, “Hurda”, “Ibish”, “Meymenet”, “Nanoş”, “Porsel”, “Sefore” va boshqa ismlar xalq orasida yomon, noxush tuyg‘ularni tug‘diradi deb yozadi.¹¹⁴

Saljuqiylarning mashxur davlat arbobining ismi ham Saadettin Köpek (it ma’nosida) bo‘lgan, ushbu barcha disfemizmlarning tabuga asoslanganligi, yomonlik ruhlarini shaxsga zarar berishining oldini oladi degan tasavvurdan paydo bo‘lgan.

Bu albatta qadimgi disfemizmlar turidir. Hozirda qo‘llaniladigan disfemizmlar xarakteri biroz farqlidir. Hozirgi kunda qo‘llaniladigan disfemizmlar tabulashtirilgan tushunchani, yanada salbiy bir ko‘rinishda bo‘rttirib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

Kasallik nomlaridan miya faoliyati buzilishi bilan bog‘liq *cin çarpması*, ciban kasalligi uchun xalq orasida *kedi memesi*, xolera kasalligi uchun “*kirli paçavra*”, shol kasalligi uchun “*tersi bozuk*” kabi disfemizmlar qo‘llaniladi.

Hayvon nomlari bilan bog‘liq disfemizmlar: “*adibatasıca*” chayon, “*karadul*” o‘ldiruvchi o‘rgimchak turi, “*bitli*” bir yoshdagi cho‘chqa bolasi, “*övey ana*” chaqqanida juda achitadigan ingichka hashorat.

Ko‘rganimizdek inson, hayvon, kasallik nomlari bilan bog‘liq evfemizmlar bilan birga, qo‘pol, nohush tasavvurlarni aks ettirgan nomlash, ya’ni disfemizmlar ham mavjuddir. Difemizmlar bolalar, hayvonlar, kasallik va boshqa tushunchalar quloqqa hush kelmaydigan ismlar, nomlarni berish hodisasi turkiy xalqlarning tarixidan kelgan *shamanism* izlarining hali ham jamiyatda yashashini ko‘rsatuvchi yomon ruhlarning, jin, alvasti va boshqa shu kabi borliqlarning yomonliklaridan himoyalaniş uchun aldash maqsadida berilgan nomlardir.

¹¹⁴ GÜLENSOY, Tüncer, 1999 ‘Türk kişi Adlarının Dil ve Tarih Açısından Önemi’ Turk Dili, S. 565, Ocak, Ankara.– S.95.

Disfemizm tasnifi tilshunoslik bo'yicha ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi.

- o'lim, kasallik, jismoniy va ma'naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar.
- keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog'liq disfemizmlar.
- inson nuqsonlari bilan bog'liq disfemizmlar
- millatga mansub disfemizmlar
- xudo, iblis, cherkov marosimlari bilan bog'liq disfemizmlar.¹¹⁵

Ko'rinib turibdiki, disfemizmlarning mavzu guruhleri evfemizm mavzu guruhlariga juda yaqin.

Albatta, qadimda qo'llanilgan disfemizmlar bilan hozirgi kundagi disfemizmlar turli kognitologik asosga ega. Yuqorida misollardan ko'rinib turibdiki, disfemizmlar ibtidoiy din shakllari ta'siridagi tabular asosida vujudga kelgan va ularning mavzu guruhleri tor bo'lgan. Hozirgi kunda esa tabu tushunchasi kengaygani singari disfemizmlarning mavzu guruhleri, qo'llanilish doiralari ham kengaygan. Bugungi kunda disfemistik leksik birliklar insonning fizik va aqliy kamchiliklari, o'ziga xos xususiyatlari, fiziologik holatlar, jamiyatdagi ma'lum bir holatlarni aks ettiradi.

Disfemizm – denotatga subyektiv munosabatning “manfiy” tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Bu albatta, unga adabiy tilda o'rin yo'q deyishga asos bo'la olmaydi. Disfemik ma'noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o'rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo'qligini, maqsad noma'lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko'rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati

¹¹⁵ Резанова А.Н. Классификация дисфемизмов по лексико-семантическим разрядам.// Язык и культура. - Киев, 1997 - Т. 3.– С.122-123.

nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama qarshi - zid vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

3. Turk tilida disfemizmlarning qo'llanilish xususiyatlari

Disfemizmlar so'zlovchining salbiy emotsional holatini ko'rsatib berishda samarali bir vosita sifatida foydalanila oladi. Ko'pincha hayvon nomlarini majoziy bir obraz sifatida inson kamchiliklarini ko'rsatib berish uchun foydalaniladi. Bu, albatta, qo'pol bir o'xshatish, ammo ushbu obraz vositasida biror tabu tushuncha qo'pol ifodalansa, bu disfemizmgga misol bo'la oladi. Biz buni asosan maqollarda ko'p kuzatishimiz mumkin. Chunki maqol xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lganligi tufayli, uning ta'sir darajasini yengillashtirish sababli qo'pol, dag'al ifodalar, o'xshatishlardan foydalaniladi. Masalan, ***Domuzun kuyruğunu kes, yine domuz. Cho'chqaning dumini kessang ham, cho'chqa bolib qolaveradi.*** Bu yerda *domuz* – *cho'chqa* obrazi yomon insonlarga nisbatan aytilmoqda. Fe'l-atvorida yomonlik bo'lgan buzuq insonning xatosini to'g'rilaganingiz bilan, uning o'zidagi yomonlikni yo'q qila olmaysiz ma'nosida. Cho'chqa islom dunyosida harom hayvon hisoblanganligi tufayli, ushbu maqol yomon bir inson, xulqi buzuq bir insonga nisbatan o'ta qo'pol ifoda (disfemizm) sifatida qo'llanilgan. Maqollarda juda ko'p kinoya qo'llaniladi, ularda tanlangan obrazlar xilma-xilligi tufayli ifoda etilayotgan fikr ham shunchali koloritli bo'ladi. Masalan, ***Esmere al bağla, geç karşısına ağla. Qoraga (qoramag'iz odamga nisbatan) qizil rangli biron narsa bog'la (kiygaz), ro'parasiga o'tib yig'la.*** Ma'nosi qorachadan kelgan insonlarga qizil rang yarashmaydi. Ana shu ma'lum bir kontekstda yarashmaslik kabi tabulangan tushunchani ifodalash uchun, salbiy ma'noni yanada bo'rttirib, kinoyaviy bir ko'rinishda (shunchalik yarashmaganki, inson hatto yig'lab yuboradi) ushbu maqolni disfemistik deb baholash mumkin.

Bundan tashqari doimiy tabu sifatida qaralgan o'lim mavzusi ham disfemizmlar vositasida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, ***Nedim Türkmen, 'Terbiyeli olun' deyince Manisa Başkanı Kenan Yaralı "Dışarıya bizi hep***

sattin. Seni geberteceğim' diyerek yumruğu salladi. Nadim Turkman, "Tarbiyali bo'ling' degan gapiga Manisa hokimi Kenan Yarali 'Tashqariga bizni doim sotding. Seni bo'g'izlayman' deb musht o'qtaldi. Ushbu gapda geberteceğim "bo'g'izlayman" so'zi "o'ldiraman" so'zining disfemizmidir. Chunki gebermek ifodasi hayvonlarga nisbatan o'lmoq ma'nosida qo'llaniladi.

Badiiy nutqdagi disfemizatsiyani individual usul (priyom) sifatida baholash mumkin. Bu individuallik evfemizmdagi individuallikka nisbatan birmuncha ustuvorligi bilan farqlanadi. Faqat pragmatika nuqtayi nazaridan tegishli til vositasining evfemikligi yoki kakofemikligi kuzatuvchi (tinglovchi)ga bog'liq bo'ladi.

Badiiy matnda qo'llanilgan disfemizmning xususiyatlaridan biri o'quvchida salbiy taassurot uyg'otish bo'lsa, ikkinchi tomondan personajlar ruhiyatidagi salbiy munosabatni namoyon qilishdir. Shuning uchun disfemizm muallif yoki personaj nutqiga xos bo'lishi mumkin.

Badiiy nutqda muallif nutqiga xos disfemik birliklar personaj nutqiga xos disfemik birliklardan ancha kamligi bilan xarakterlanadi. Zero, badiiy nutq talabi shunday yo'l tutishni taqozo etadi. Badiiy matnda personajlar nutqiga xos disfemizmlar gohida faqat salbiy munosabatni, ba'zan esa ularning ma'naviy tubanliklarini salbiy munosabati bilan uyg'un ifodalash vazifasini bajaradi.

Disfemizmlar hozirgi kunda publisistik uslubning o'ziga xos qurollaridan biri hisoblanadi. Evfemizmlar singari disfemizmlar ham ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta va jurnallar tilida o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratish maqsadida foydalaniladi. Ijtimoiy matnlarda disfemizmlar ma'lum bir tarixiy jarayonda qurol vazifasini ham bajaradi. Siyosiy mavzudagi gazeta matnlarining ta'siri nuqtayi nazaridan subyekt tomonidan muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun zarur lisoniy vosita va nutqiy faoliyatni tanlash masalasi ham amaliy, ham ilmiy jihatdan hamisha muhim bo'lib kelgan. Bu esa publisistik asar muallifidan zakovat va mahoratni talab qilgan. Siyosiy mazmundagi diskursning axborot funksiyasiga nisbatan ta'sir vazifasi har doim ustuvor bo'ladi. Bunda ta'sir vazifasi nutqiy strategiya va

nutqiy taktika orqali vujudga keladi. Disfemizmlarning ko‘p hollarda salbiy munosabat strategiyasi asosida fosh qilish, ayblash, uyaltirish orqali namoyon bo‘ladi. Siyosiy sohada qo‘llaniluvchi disfemizmlar diskreditatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun haqorat, ayblash va ustidan kulish kabi ma’nolarni yetkazib berishda foydalaniladi. Bu ayniqsa, saylov kabi siyosiy muhim bir jarayonda namoyon bo‘ladi. Turkiyada bo‘lib o‘tgan mahalliy saylovlar ham asosan OAV tilini (gazeta) disfemizmlar bilan birmuncha to‘ldirdi. Albatta, haqiqatni berkitmaslik, ma’lumotni chegaralamaslik, oshkoralik bu albatta yaxshi. OAV tili ham doim o‘zining haqiqat tarafdori ekanligi bilan ajralib turadi. Ammo haqorat, qo‘pol ifodalar bilan opponentlarini kamsitish, bu jamiyatdagi odob-axloq normalariga ziddir. Bu haqida hatto turk politologlari ham bir qancha fikrlar bildirib o‘tganlar: Umran “Siyasette Üslup Sorunu: Yanlışlıkların Dili” (Siyosatda uslub: xatoliklar tili) maqolasida ***“Siyasetçi tahamülsüz, eleştiriye gelmiyor, çok çabuk coşkuya kapılıyor, kendi politika ve projelerini anlatmak yerine ötekini “sözle dövüyor” Siyosatchi sabrsız, tanqidni qabul qilmaydi, tez his-tuy’gularga beriladi, o‘z siyosati va loyihalari haqida gapirish o‘rniga boshqa birovni “so‘z bilan savalaydi (haqoratlaydi, qoralaydi)”***.

Masalan, ***Vicdanımızla baş başa kalıp, oy vereceğimiz, önümüzdeki beş sene kimin tarafından yönetilmek istediğimize karar vereceğimiz bir gün ve bu kadar önemli bir karar verirken bir kez daha düşünmeliyiz; özgürlükten yana mı oy kullanacağız, zalimden yana mı?*** Vijdonan, ovoz beradigan, oldimizdagi 5 yil kim tomonidan boshqarilishni xohlashimizni hal qiladigan bir kunda bunchalik muhim bo‘lgan qaror qabul qilar ekanmiz, yana bir marta o‘ylab ko‘rishimiz zarur; ozodlik uchun ovoz beramizmi yoki zolim uchunmi? Bu gaplar Turkiya Respublika Xalq Partiyasi vakili tomonidan saylovoldi tashviqot nutqida so‘zlangandir. Ushbu gapdagi *zalim – zolim* so‘zi boshqa partiya vakili (AKP) ni qoralash uchun, disfemistik ifoda sifatida qo‘llanilgan. U siyosatchining faoliyatini boshqa neytralroq so‘z bilan ifoda etish mumkin edi. Ammo *zolim* so‘zi bu yerda yaqqol salbiy konnotatsiya keltirib chiqargani uchun

hamda raqobatdoshini ushbu soʻz bilan taʼriflab, oʻz siyosatining demokratik (ozodlik soʻzi orqali ifodalangan) ekanini taʼkidlash uchun qoʻllanilgan.

Silvanʼda BDPʼnin d zenledięi mitingın ardından polisin saldırısı sonucu başına aldığı gaz kaps l  ile ağır yaralanan 10 yaşındaki Mehmet Ezerʼin beyninde ciddi hasar olduęu belirlendi...Bu silahlı katilleri kim yerleřtirdi buralara... Silvanda BDP tomonidan tashkil qilingan mitingning oxirida politsiya bosqini oqibatida ogʻir yaralangan 10 yoshdagi Mehmet Ezerning miyasida jiddiy bir jarohat aniqlandi...Bu qurollangan qotillarni kim joylashtirdi bu yerlarga. Ushbu gapdagi silahlı katiller – qurollangan qotillar disfemizmi politsiya xodimlariga nisbatan aytilgan.

Disfemizmlar xuddi evfemizmlar singari maqollarda ham aks etadi. Maʼlumki, maqollarda insonni toʻgʻridan toʻgʻri nomlanishi berilmaydi, bu ramziy obrazlar vositasida amalga oshiriladi. Ushbu ramziy obrazlar predmet nomlari, atrofimizni oʻrab turuvchi borliq, tabiat, hayvonot va oʻsimlik dunyosi nomlari boʻlishi mumkin. Nutqning taʼsirchanligi yoki maʼlum bir shaxsga taʼsir koʻrsatish uchun baʼzan insonning obrazli, ramziy xarakteristikasi qoʻpol boʻlishi mumkin. Masalan,

Balık baştan kokar. Bu yerda baliq boshidan sasigani kabi, biror jamiyat, tashkilot boshida turgan shaxslar oʻz lavozimlarini suisteʼmol qilsalar, bu butun jamiyat ahvolini buzadi degan maʼnoda qoʻllaniladi.

Fare çıktıęı delięi bilir. Yomon ishlar qilgan inson, oʻzini oqlash yoʻllarini oldindan biladi.

Faydasız baş, mezara yaraşıır. Inson doim mehnat qilishi , boshqalarga yordami tegishi kerak. Aks holda uni oʻlikdan farqi qolmaydi.

İki çıplak bir hamamda yakışıır. Teng tengi bilan.

4. Turk tilida disfemizatsiya va evfemizatsiya motivlari

Evfemizatsiya motivlari bu bir soʻz va iborani boshqasi bilan almashtirib qoʻllanishining oʻziga xos maqsad bilan bogʻliq sabablari boʻlib, ular turli tilshunoslar tomonidan turlicha aniqlanadi va tavsiflanadi.

Baʼzi olimlar, masalan, Dj.Lourens, E.Partridj motivlarning salmoqli guruhlarini keltirib oʻtsalar, boshqalar A.Katsev, S.Kapu barcha motivlarni umumiy belgilariga qarab 2-3 katta guruhlarga boʻlganlar.

Eng toʻliq, keng qamrovli tavsif E.Partridj tavsifi hisoblanadi. Ammo, uning asosiy kamchiligi evfemizatsiya motivlarining mavhumligi va ularni belgilashdagi mezonlarning aniq emasligidadir.

E.Partridj quyidagi evfemizatsiya motivlarini keltirib oʻtadi:

- Umumiy joy, kayfiyat, jamoa, muhitga moslashish istagi.

Masalan, sheʼriyatda yuqori badiiy uslubning saqlanishi; yosh bolalar yoki pastroq boʻlgan ijtimoiy guruhdagi odamlar bilan suhbatda, shuningdek, doʻstlar davrasida maxsus terminlar, kitobiy va adabiy soʻzlarni qoʻllamaslik.

- Ega boʻlgan narsangni qadrini oshirish istagi. (форма гиперболы)

Masalan, *bar/bar* oʻrniga *saloon/ salon; technical school / texnik maktab* oʻrniga *university/universitet; teacher / oʻqituvchi* oʻrniga *professor / professor*

- Murojaat qilayotgan insonga nisbatan hurmat, yaxshi taassurot qoldirish, muloyim boʻlish yoki suhbatdoshni haqorat qilmaslik istagi.

Masalan, *Negro / negr* oʻrniga *colored man / rangli odam*.

- Koʻpgina titullarning qoʻllanilishi, professional sohada, tijorat sohasidagi stereotip muloyimlik shundan kelib chiqqandir.

- Nohush xotiralarni yoki fojiali xabarlarini yumshatish zaruriyati.

Masalan, oʻlim, kasallik, jinnilik kabi tushunchalar evfemizatsiyasi.

- Ijtimoiy va ahloqiy tabularning mavjudligi.

Shunday qilib ichkilik, fiziologik jarayonlar, jinslarning munosabati va boshqalar bilan bogʻliq evfemizmlar vujudga keladi.

- Irimlar va diniy tabularning mavjudligi.

Evfemizatsiya motivlarini ko'rib chiqqan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkinki, biron bir narsani to'g'ridan to'g'ri nomlashni taqiqlash, noo'rin deb qabul qilish bir necha omillar bilan bog'liqdir:

Jamiyat rivojining hozirgi davrida tildagi ba'zi tabularni mavjudligi. Asliga ko'ra bu tabular evfemizatsiyaning ijtimoiy, axloqiy-etik, diniy sohalariga taalluqlidir.

Aniq bir muloqot bu evfemizatsiyaning kommunikativ sohasidir.

Agar mezon sifatida ushbu 2 omilni oladigan bo'lsak, **evfemizim motivlari** tavsifini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Ijtimoiy motivlar:

1) turli xil jamiyat guruhlariga hurmat ko'rsatish zaruriyati:

- irq, yosh, jins va boshqa xususiyatlarga tegishli nomlar: *yaşlanmak* (qarimoq) so'zi o'rnida *olgunlaşmak* (tajribaga ega bo'lish)

- kambag'allik bilan bog'liq tushunchalar nomi: *ucuz mal* (arzon mahsulot) so'zining o'rniga *ekonomik mal* (tejamli mahsulot)

- insonning aqliy va jismoniy kamchiliklari: *sakat* (nogiron) so'zi o'rniga *engelli* (imkoniyati cheklangan)

2) ijtimoiy sohadagi ba'zi realiyalarning ahamiyatini oshirish;

- ba'zi kasb, muassasa nomlari: *çöpçü* (axlatchi) so'zi o'rniga *temizlik işçisi* (tozalik bo'yicha ishchi)

2. Evfemizatsiyaning axloqiy-etik motivlari

Jamiyat tarafidan o'rnatilgan axloqiy-etik taqiqlarni buzmaslik xohishini ifodalash uchun xizmat qiladi:

- inson qusurlarining nomlari: *sarhoş* (mast) so'zi o'rniga *güzel, keyifli, uçuyor*

- fiziologiya sohasiga taalluqli nomlar: *menstruasyon* so'zi o'rnida *beli acılmak, üst, üstü gelmek*

- o'lim tushunchalari bilan bog'liq nomlar: *ölümlü dünya* (o'limli dunyo) o'rniga *yalan dünya* (yolg'on dunyo)

- oila va turmush bilan bog‘liq nomlar: *kari* (xotin) so‘zi o‘rnida *eş*, *hayat arkadaşı*, *kadın* (juft, turmush o‘rtoq, ayol)
- jinsiy hayot bilan bog‘liq nomlar:
- hayvon va hayvon go‘shtlari nomlari: *domuz* (cho‘chqa) o‘rniga *kötü hayvan* (yomon hayvon)
- qo‘pol so‘kishlar: grafik evfemizmlar orqali ifodalanadi.

3. Din va irimlar bilan bog‘liq evfemizatsiya motivlari

- g‘ayritabiiy kuchlarni nomlab keluvchi so‘zlar. *Cin* (jin) so‘zi o‘rnida *uç harfli* (uch harflik)

4. Evfemizatsiyaning kommunikativ motivlari

1) Suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish, taassurot qoldirish istagi

- biznes va tijorat bilan bog‘liq ba‘zi nomlar
- siyosat bilan bog‘liq bazi nomlar

2) Noxush haqiqatni berkitish, niqoblash istagi

- harbiy soha bilan bog‘liq nomlar
- siyosat bilan bog‘liq nomlar
- kriminal soha bilan bog‘liq nomlar
- biznes va tijorat bilan bog‘liq nomlar
- maxsus ta‘lim muassasalari bilan bog‘liq nomlar (asosan ushbu soha terminlari vositasida evfemizatsiyalashadi)

Ushbu motivlarni tahlil qilar ekanmiz, bir narsani aniq farqlash zarur. Evfemizmnining asosiy funksiyalari aytilishi noo‘rin bir tushunchani boshqa so‘z vositasida ifodalash va biror narsani qog‘ozga o‘rab aytishdan iborat. Ammo bu ikki funktsiyaning asosida albatta tabulashgan ma‘no bo‘lishi zarur. Umumiy motiv ana shu tabuni buzmaslikdir. Evfemizim haqiqatni bilib turib o‘zgartirish emasdir. Ya‘ni bu evfemizimga umuman zid, agar evfemizim ifodalanayotgan denotat bilan aloqani saqlab qola olmasa, u evfemizim hisoblanmaydi.¹¹⁶

¹¹⁶ Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1958. – С.306.

V.P Moskin evfemizm va dezinformatsiyani bir-biridan ajratadi, kommunikativ maqsadlariga ko'ra ularni funksional bir-biriga qarama-qarshidir, deb ta'kidlaydi. Evfemiya maqsadi – ifodani yumshatish, dezinformatsiya maqsadi – yolg'on, aldash, haqiqatni o'zgartirish.¹¹⁷ Bu narsa, siyosiy evfemizmlarda yaqqol ko'rinadi. Albatta, ushbu fikrlar to'g'ri, lekin denotat bilan uzoq aloqada bo'lsa-da, ushbu so'zlarni evfemizm sifatida qabul qilsa bo'ladi. Chunki ular negativ reaksiyani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, kommunikator uchun ma'lum bir holatda noxush, noo'rin bo'lgan ifodalarni almashtiradi, neytral konnotatsiyaga ega va nutq evfemizatsiyasining asosiy maqsadlariga amal qiladi: suhbatda konfliktdan qochish, borliqdagi noxush hodisalarni berkitish imkoniyatini beradi.

Disfemizmlarga kelsak, ular evfemizm bajaradigan funksiyaga teskari funksiyani amalga oshiradi. Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, disfemizm tabuga asoslangan va u ham tilda tabusiz vujudga kelolmaydi. Chunki tabusiz har qanday salbiy konnotatsiyaga ega so'zlar ham disfemizm bo'lib ketishi mumkin (masalan, argo so'zlar). Disfemizatsiya motivlari haqida gapiradigan bo'lsak, ularni evfemizm singari bir tizimlashtirilgan ko'rinishi yo'q. Chunki disfemizmlarning mavzu guruhlari hali to'liq ishlab chiqilmagan. Turk tilida esa ushbu hodisaga hali ham evfemizm sifatida qaralib kelinmoqda. Ma'lum bir so'z disfemizm yoki evfemizm ekanligi faqatgina nutq jarayonida o'rta chiqadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, disfemizmlarning eng birlamchi motivi bu, albatta, qo'rquvdir. Bunga din bilan bo'g'liq nomlar, jin, shayton nomlari bilan bog'liq disfemizmlar kiradi. Hozirgi kunda qo'llaniluvchi disfemizmlar esa ma'lum bir inson illatlarini tanqid qilish motivi asosida qo'llaniluvchi so'zlardir. Masalan, ***Bu yuzden isteklerini genellikle anası aracılığıyla bildirir. “Sadakaları”kabulden kaçınmaz. Shu sababli istaklarını onasi vositasida bildirar. “Sadaqalar”ni qabul qilishdan tortinmasdi.*** Ushbu

¹¹⁷ Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования//Вопросы языкознания. - 2001. - № 3. – С.65.

gapda qo'llanilgan *sadaka* (sadaqa) so'zi ota-onaning ulg'aygan farzandini hali ham boqishi, unga pul berishiga nisbatan disfemik ifoda sifatida qo'llanilgan. Bunda yozuvchi ushbu asar qahramonini, shu bilan birga, jamiyatdagi xuddi shunday insonlarni tanqid ostiga oladi. Sadaqa so'zi juda salbiy konnotatsiya tashigani tufayli, ushbu kontekstda asar qahramoni xarakterini, yozuvchining unga munosabatini ochib berishda o'ziga xos vosita vazifasini bajargan.

III bob bo'yicha xulosa

1. Tilshunoslikda disfemizm hodisasiga turlicha munosabat bildiriladi. Xususan, turk tilshunosligida disfemizmlar evfemizmning turi sifatida tadqiq qilingan. Ushbu yondashuv yetarlicha asoslanmagan. Disfemizm o'z funksiyasiga ko'ra evfemizmdan farq qiladi, u tabuga asoslanganligi tufayli evfemizm bilan bir sistemada joylashgan. U alohida hodisa sifatida yoki evfemizm va tabu bilan yonma-yon tadqiq qilinishi mumkin.

2. Disfemizmlar asosini tabu tashkil etadi. Disfemizmning ilk ko'rinishi tabulashtirilgan ismlar sababli paydo bo'lgan. Tabu, evfemizm va disfemizm bir-biri bilan uzviy bo'g'liq bo'lgan til hodisalaridir. Tabu – evfemizm va disfemizmdan bog'lab turuvchi hodisadir.

3. Yozuvchi ma'lum bir personajning salbiy jihatlarini ochib berish, unga o'z munosabatini bildirish, ularni tanqid qilish maqsadida disfemizmlardan foydalanadi. Siyosiy matnlarda esa disfemizmlar o'ziga xos taktika vositasi sifatida qo'llaniladi. Disfemik ifodalar adabiy til me'yorlariga zid bo'lmaganligi uchun, ular siyosiy kontekstda birovni haqoratlash, fosh qilish maqsadlarida qo'llaniladi.

4. Turk tilida evfemizatsiya motivlarini ajratish evfemizmlarning mavzu guruhlariga ko'ra amalga oshirildi. Ushbu motivlar ijtimoiy, axloqiy-etik, diniy, kommunikativ guruhlariga ajratildi. Disfemizatsiya motivlari tizimli shaklda ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, misollardan kelib chiqqan holda ular qo'rquv, nutqni emotsional-ekspressivligini oshirish, adabiy til me'yorlaridan chiqmagan holda birovga salbiy munosabat bildirish kabilardan iborat bo'lishi belgilandi.

XULOSA

1. Tilshunoslikda tabu va evfemizm hodisasi XX asrdan boshlab o'rganish obyektiga aylangan bo'lib, evfemizm hodisasiga turlicha ta'rif berilgan, har bir ta'rif albatta ushbu hodisaga bo'lgan munosabatni va ushbu hodisaning tildagi funksiyasini belgilab beradi. Evfemizmlar tilda so'zlovchi va tinglovchi uchun noxush bo'lgan tushuncha va so'zlarni yumshatish, haqiqatni niqoblash kabi funksiyalarni bajaradi.

2. Tabu qadimdan mavjud. Tabuning etnografik va lingvistik ko'rinishlari farqlanadi. Etnografik tabulardan lingvistik tabular kelib chiqqandir. Ammo tabuning tilda aks etishini, evfemizm bilan almashtirib qo'llanilishini aniq qonuniyat va sabablarini keltirib o'tish qiyin. Tabu va evfemiya bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan til hodisalari bo'lganligiga qaramay, ular o'rtasidagi munosabat doim ham simmetrik emas. Tilda evfemiya hodisasini tabuga asoslangan holda o'rganish zarur. Chunki tabu evfemizmgga muhtoj bo'lmasligi mumkin, ammo evfemizmnining tilda mavjud bo'lishi uchun tabulangan tushuncha mavjud bo'lishi zarur.

3. Qadimda qo'llanilgan tabular va hozirgi kunda qo'llaniladigan tabular bir-biridan farq qiladi. Qadimda qo'llanilgan tabular asosan, diniy motivlar bilan bog'liq bo'lsa, hozirgi kundagi tabular ijtimoiy motivlarga borib taqaladi hamda ular individual xarakterga ega, qaysi tushuncha tabu yoki tabu emasligini kommunikator aniqlaydi.

4. Evfemizm tilda sinonimlar, frazeologizmlar, maqollar va boshqa yondosh hodisalar bilan munosabatga kirishadi. Evfemizmlarni biz kontekstual sinonimlar turiga kiritdik, chunki ushbu so'zlar faqatgina kontekstda sinonim hisoblanadi. Evfemistik frazeologizmlar esa, obrazli ma'noda qo'llanilgani uchun, evfemistik ma'no tashishi mumkin. Maqollar ma'lum xalqning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o'zida aks ettirgani uchun, ushbu xalqlarda tabulangan tushunchalarni berkitish maqsadida qo'llaniladi.

5. Turk tilshunosligida evfemizatsiya usullari haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Xorijiy lingvistlarning tasniflarini tahlil qilgan holda turk tilidagi

evfemizatsiya usullari tasnifi ishlab chiqildi. Bunda grafik, morfologik, semantik, sintaktik usullar ajratildi.

6. Badiiy uslubda qoʻllaniladigan evfemizmlar nafaqat tabulashgan bir tushunchani yumshatish uchun, balki badiiy asar tilini sayqallash uchun, asar qahramonlari xarakterini ochib berish uchun, yozuvchining voqelikka munosabatini ifodalashda foydalaniladigan badiiy uslub vositasi vazifasini ham bajaradi.

7. Publitsistik uslubda qoʻllaniladigan evfemizatsiya usullaridan eng keng tarqalgan usuli bu terminlar va umumiy semantikaga ega boʻlgan soʻzlarni qoʻllashdir. Ushbu soʻzlar maʼlum bir harbiy harakatlar va nomlarni neytral koʻrsatish uchun qoʻllaniladi.

8. Turk tilshunosligida hozirgacha *politik örtmece* termini qoʻllanilmagan boʻlsa-da, ijtimoiy matnlar tahlili turk tilida siyosiy evfemizmlar tushunchasi mavjud ekanligi xulosasiga kelindiva bu borada alohida tadqiqot olib boorish mumkin.

9. Turk tilshunosligida yetarlicha asoslanmagan yondashuv asosida disfemizmlar evfemizmlarning turi sifatida tadqiq qilingan. Disfemizm oʻz funksiyasiga koʻra evfemizmdan farq qiladi, u tabuga asoslanganligi tufayli u evfemizm bilan bir sistemada joylashgan. Disfemizmlarning ilk koʻrinishi tabulashtirilgan ismlar sababli paydo boʻlgan. Tabu evfemizm va disfemizmlarni bogʻlab turuvchi hodisadir.

10. Badiiy asarlarda maʼlum bir personajning salbiy jihatlarini koʻrsatish, oʻz munosabatini bildirish, ularni tanqid qilish maqsadida disfemizmlardan foydalaniladi. Siyosiy matnlarda esa disfemizmlar oʻziga xos taktika vositasi sifatida qoʻllaniladi.

11. Turk tilida evfemizatsiya motivlarini ajratish evfemizmlarning mavzu guruhlariga koʻra amalga oshirildi. Ushbu motivlar ijtimoiy, axloqiy-etik, diniy, kommunikativ guruhlariga ajratildi. Disfemizatsiya motivlari tizimli shaklda ishlab chiqilmagan boʻlsa-da, misollardan kelib chiqqan holda ular qoʻrquv,

nutqning emotsional-ekspressivligini oshirish, adabiy til me'yorlaridan chiqmagan holda birovga salbiy munosabat bildirish kabilardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 171 b.

Asosiy adabiyotlar:

2. AKSAN Doğan, Her Yönüyle Dil Ana Çizgileriyle Dilbilim C. 3, TDK. Yay., Ankara 1982.–180 s.

3. Allan K. Linguistics meaning. – London, New York: Routledge&Kegan Paul, 1986. – 452 p.

4. BİLGİNER Hayriye, “Bati dillerinde ve Türkçede güzel adlandırmalar”//Türk Dili, 2001.– S. 390-398.

5. Celik C. Türkiye Türkçesinde örtmece ve tabu kelimeler.Doğu Akdeniz Üniversitesi.2011.– 126 s.

6. CONDON, John C. 2000; *Kelimelerin Büyülü Dünyası* (Çeviren: Murat Ciftkaya), İnsan Yayınları, İstanbul ,2003. –220 s.

7. DEMİRCİ Kerim, “Örtmece (Euphemism) kavramı üzerine”//Milli Folklor. Ankara, 2008.– S.77.

8. GECEKUŞU Ahmet, Güzel Adlandırma, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yüksek Lisans Tezi. Elazığ, 2006.– 90 s.

9. GÜNGÖR Ahmet, “Tabu – örtmece sözler üzerine”// Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, Erzurum 2006. – S.75.

10. Inan A.*Tarihte ve Bugün Şamanizm, Materyaller ve Araştırmalar*, Turk Tarih KurumuYayınları, Ankara, 1986, – 200 s.

11. Ismatullayev N. Hozirgi o'zbek tilida efemizmlar. Nomzodlik dissertatsiyasi.Toshkent,1963. –125 b.

12. Oaks D. D. "Good heavens!" An old English euphemism // General linguistics. – University Park, 1993. – Vol. 33, #1/2. – P. 57-63.

13. Omonturdiyev A. O'zbek nutqining evfemik asoslari.Termiz: HC, 2000.–128 b.

14. Partridge E. Usage and abuse. -New York: Penguins Books, 1964.– 379 p.
15. Sheygal E. Political euphemisms in ironical context // Bridging cultures: the next step. – Volgograd, 1997. – P. 99-106.
16. ÜSTÜNER Ahat, “Kayseri ve yöresi ağızlarında güzel adlandırmalar”, II Kayseri ve Yöresi Kültür, Sanat ve Edebiyat Bilgi Şöleni 10 – 12 Nisan 2006. Bildiriler, Kayseri 2007.
17. Алтаев С. Эвфемизмы в туркменском языке, Ашхабад, 1955.– 105 с.
18. Арнольд С. Эвфемизмы в современном английском языке. М, 1959. – С. 149.
19. Ахмедов А. К. Табу и эвфемизмы в казахском языке, Алматы, 1973. – 85 с.
20. Блумфильд Л. Язык. М., 1968.– 400 с.
21. Болотнова Н.С. Эвфемизация в современном словоупотреблении и языковая компетенция личности//Языковая компетенция. Новосибирск, 1998.-4.1.-С. 19-23.
22. Гальперин И. Р. Проблемы лингвостилистики // Новое в лингвистике. –1980.– Вып. 9.– С. 5-68.
23. Джаббаров Н. М., Табу и эвфемизмы в азербайджанском языке. Канд. филол.наук...дис. Баку, 1972. – 90 с.
24. Евсеева Н.А. Культура и языковые запреты//Вестник МГУ.Лингвистика и межкультурная коммуникация. -2000. №2-С.43-47.
25. Ергазиева Н.И. Взаимосвязь прозвищ табу и эвфемизмов в казахском языке// Ономастика Узбекистана ИЯЛ, Ан Уз ССР. – 1989.– С.46-53.
26. Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти//ТошДПИ илмий асарлари, 1964. – Б. 3-12.
27. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф.дис...канд.филол.наук. Т.1963.–20 с.

28. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке: Автореф. дис... д-ра филол. наук.-Л., 1977.–22 с.
29. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. Л.ЛГПИ, 1989,– 200 с.
30. Кочеткова Т.В. Эвфемизмы в речи носителя элитарной речевой культуры//Вопросы стилистики. – Саратов, 1998. – Вып.27.С.168-178.
31. Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи / Русский язык конца XX столетия (1985-1995) – М., 1996. – С. 391.
32. Кужим Г.Г. Некоторые лингвистические аспекты эвфемии в современном английском языке//Пятигорск, 1997. С.104–111.
33. Ларин Б. А. История русского языка и общее языкознание. Избранные работы. - М: Просвещение, 1977. –224 с.
34. Москвин В. П. Способы эвфемистической зашифровки в современном русском языке // Языковая личность: социолингвистический и эмотивный аспекты. – Волгоград, Саратов, 1998. – С. 160-168.
35. Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. – 2001. – № 3. – С. 58-70.
36. Омонтурдиев А.Эвфемик воситаларнинг функционал услубий хусусиятлари.филол.фан.номзоди...дис/Тошкент,1997.–175 б.
37. Омонтурдиев Ж, Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. Термиз.Бойсун.1994.–55 б.
38. Омонтурдиев Ж. Профессионал нутқ эвфемияси: Филол.фанлари.д-ри...дис. Т.,2009.–252 б.
39. Павлова Е.К. Языковая преемственность в процессе эвфемизации политических реалий//Вестник МГУ. Лингвистика и межкультурная коммуникация. -2000. №3, С.17-25.
40. Панин В. В. Политический дискурс: «Язык двусмысленности» // Современная политическая лингвистика: Материалы международной научной конференции. Екатеринбург, октябрь 2003 г. / Урал. гос. пед.ун-т. – Екатеринбург, 2003. – С. 122-124.
41. Панин В. В. Политический дискурс: «Язык двусмысленности»

// Современная политическая лингвистика: Материалы международной научной конференции. Екатеринбург, октябрь 2003 г. / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2003. – С. 122-124.

42. Резанова А.Н. Классификация дисфемизмов по лексико-семантическим разрядам.// Язык и культура. – Киев, 1997. С.119–129.

43. Родченко А.В. Средства эвфемии в современном испанском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – М, 2000. – 20 с.

44. Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке// Советская тюркология. Баку, 1981. – С. 266.

45. Субботин М. М. Особенности и возможности интеллектуального поиска текстовой информации// НТИ. Сер. 1. Организация и методика информационной работы. – 1999. № 12. – С. 1-5.

46. Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале современного английского языка): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 1998. – 18 с.

47. Фрейд З. Табу и тотем. Москва. М., 1960. – 265 с.

48. Шейгал Е.И. Эвфемизм, ирония в политическом тексте// Филология. – Краснодар, 1997. № 11. С. 47-49.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

49. Edelman M. Political language: words that succeed and politics that fail. New York: Academic Press, 1977. – 473 p.

50. FREUD, S. 1947; *Totem ve Tabu* (Ceviren: Niyazi Berkes), Milli Eğitim Bakanlığı Yayınları, Ankara.

51. GÜLENSOY, Tüncer, 1999 ‘Türk kişi Adlarının Dil ve Tarih Açısından Önemi’ Turk Dili, S. 565, Ocak, Ankara. – 180 s.

52. Lawrence J. Unmentionables and other euphemisms. - London: Gentry Books, 1973. – 84 p.

53. Hamroyev M.A. “O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi”. T., 2012.

54. Боровой Л.Б. “Путь слова” М., 1963.–294 с.
55. Вандриес Ж. Язык.-М.1937.–269 с.
56. Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1958. – 458 с.
57. Крысин Л. П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. - М.: Наука, 1989. –186 с.
58. Мечковская Н.Б. “Магическая функция языка” М., 2000.–195 с.
59. Оруэлл Д. 1984. - Свердловск: Средне-Уральское кн. изд-во, 1991. –592 с.
60. Реформатский А.А. Введение в языкознание, М.1967.–540 с.
61. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. - М.: Логос, 1999. – 236 с.
62. Чудинов А. П. Политическая лингвистика (общие проблемы, метафора): Учеб. пособие. -Екатеринбург:Уральский гуманитарный институт,2003.–194 с.

Lug‘atlar:

63. Holder R. W. A dictionary of euphemisms. – London: Oxford University Press, 1995. – 470 p.
64. Neaman J. S., Silver C. G. Kind words: a thesaurus of euphemisms. – New York: Facts On File, 1990. – 373 p.
65. Oxford, Ansiklopedik İngilizce – Türkçe Sözlük, Sabah Yayınları, 1990. –650 s.
66. Spears A. Richard. Slang and euphemism: a dictionary of oaths, curses, insults, sexual slang, metaphor, etc. – New York: New American Library, 1982.– 462 p.
67. Türkçe Sözlük, TÜRK DİL KURUMU, Ankara, 2005.
68. Yuldaşev I, Öztürk T, Öztürk Y. Özbek-Türk atasözleri ve deyimleri sözlüğü. Taşkent, 1998.– 191 s.
69. Кудрявцев А.Ю., Куропаткин Г.Д. Англо-русский словарь табуированной лексики и эвфемизмов. – 450 с.

70. Обвинцева О.В. Англо-русский тезаурус политических эвфемизмов: Словарь-справочник. – Екатеринбург: Изд-во ИПК-УГТУ, 2003. – 83 с.

71. Омонтурдиев Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати.-Т.: Фан, 2006.–134 б.

72. Рыбальченко Т.Б. Турецко-русский и русско-турецкий словарь. Москва. – 694 с.

73. Эвфемизмы//Языкознание. Большой энциклопедический словарь. – М., 1998.547 с.

Manbalar:

2012-2014-yillar oralig‘ida chiqqan gazetalar (gazeta forumlari)

74. “*Hürriyet*”

75. “*Bir gün*”

76. “*Haber*”

77. “*Radikal*”

Badiiy asarlar:

78. *Sadık Yalsızuçanlar. Garip (hikoyalar to‘plami) Kapı yayınları. Istanbul., 2007.– 144 s.*

79. *R.Anar. Beş katlı yapının altıncı katı. (Roman) – Istanbul., 2000.– 150 s.*

Internet sahifalar:

80. <http://www.google.com.tr>

81. <http://wikipediya.com>

82. <http://ziyo.uz>

83. <http://bilinç.com>

84. <http://referat.ru>

85. <https://twitter.com/SevraBaklaci/status/447000755426586624>

86. www.wiktionary.org/wiki/дисфемизм

87. www.haberler.com/birgun-gazetesi/

88. www.gazeteler2.com/birgun_gazetesi_oku.htm

89. www.gazeteoku.org/...gazeteler/radikal-gazetesi